**Novokain.** Suvda va spirtida yaxshi eriydigan oq kristalli kukun. Uning suvli eritmasini suvda 30 daq. qaynatish yo`li bilan sterilizatsiyalanadi. Anestetik kam toksik, keng terapevtik ta`sirga ega. Uni infiltratsion va o`tkazuvchi og`riqsizlantirish uchun ishlatiladi. Novokainning 0.25%li eritmasi infiltratsion va 1-2%li eritmasi o`tkazuvchi va alveolyar o`siq yumshoq to`qimalarini anesteziyasi uchun qo`llaniladi. YUmshoq to`qimalarda infiltratsion og`riqsizlantirish tez boshlanadi. Mushakka yuborilganda eng yuqori bir martalik dozasi — 0,1 g (5 ml). infiltratsion og`riqsizlantirish uchun quyidagi bir martalik dozalar belgilangan: 0.25%li eritma qo`llanilganda 500ml (1.25g)dan ko`p emas operatsiya boshida, so`ng operatsiya davomida har bir soatda 1000ml (2.5g)dan ko`p emas; 0.5%li eritma qo`llanilganda – 150ml (0.75g) va 400ml (2.0g). Klinik amaliyotda o`tkazuvchi anesteziyada 100ml 1%li va 30ml 2%li eritmalar ishlatiladi.

Novokainni qonga so`rilishini sekinlashtirish uchun (toksik ta`sirini oldini olish uchun) va ta`sirini kuchaytirish uchun eritmaga 0.1%li adrenalin gipoxlorid eritmasi (100ml novokainga 1ml adrenalin) qo`shiladi. Novokain bilan anesteziyani ta`siri 30 daq.gacha. yallig`lanish o`chog`ida novokainni qo`llash yuqori natija bermaydi.

Intoksikatsiya maxalida bosh aylanishi, noxushlik, ko`ngil aynishi, teri qoplamlarini oqarishi, ter ajralishi, qo`zg`alish, taxikardiya, qon bosimini pasayishi, nafas olishni buzilish apnoegacha, tutqanoq rivojlanishi mumkin. Ba`zida o`pka shishishi kuzatiladi. Allergik reaksiya rivojlanganda terida toshmalar toshishi, dermatit, Kvinke shishi, qichishish, bronxiospazm belgilari kuzatiladi.

**Trimekain** (mezokain) — Suvda va spirtida yaxshi eriydigan oq krisstalik kukun. Eritmani 100 °S da 30 daqiqa davomida qaynatish bilan zararsizlantiriladi. Trimekain yallig`lanish o`choqlarida, keloid chandiqlar va granulyatsion to`qimalar bor joylarda yaxshi ta`sir ko`rsatadi. Novokaından anesteziya vujudga kelishiga ko`ra 2 marotaba, ta`sir kuchiga ko`ra 2-2.5marotaba, ta`sir davomiyligiga ko`ra 3 marotaba ustun turadi. Toksikligi kam. Adrenalin bilan yaxshi kirishadi. Allergik reaksiyalar kamdan-kam vujudga keladi. Applikatsion anesteziya uchun qo`llanilmaydi. Infiltratsion og`riqsizlantirish uchun 0,25—2 % li eritmalar, o`tkazuvchi og`riqsizlantirish uchun 1—2% li eritmalar qo`llaniladi. 0.25%li anestetik qo`llanilganda 800ml gacha, 0.5%li – 400ml gacha, 1%li 100ml, 2%li – 20ml gacha yuboriladi.

**Lidokain** (ksikain, ksilokain) — Suvda va spirtida yaxshi eriydigan oq kristalli kukun. Anesteziya uchun lidokainning xlor vodorodli tuzi ishlatiladi. Kuchli anestetik xisoblanib, og`riqsizlantirish natijasiga ko`ra novokaından 2-3 marotaba ustun va ta`sir etish davomiyligi 3-5 soatgacha. YAllig`langan to`qimalarda yaxshi ta`sir ko`rsatadi. Allergik reaksiyalar kamdan-kam kuzatiladi. Lidokain toksikligi eritma kotsenrratsiyasiga bog`liq: 0,5%li eritmasini toksikligi novokainnikidan farqlanmaydi, 1—2%li eritmalarining toksikligi novokainnikidan 1.4-1.5 marta yuqori. YUrak-qon tomir etishmovchiligida, atrioventrikulyar blokadaning II-III darajasida, jigar va buyrak kasalliklarida qarshi ko`rsatma bo`lib hisoblanadi. YUqori tezlikda aralashuvlarda infiltratsion og`riqsizlantirish uchun 0.25-0.5%li eritmalar, o`tkazuvchi anesteziyalarda esa (yuqori va pastki jag` alveolyar o`siqlaridagi boshqa operatsiyalarda ham) 2%li eritmalar ishlatiladi. Applikatsion anesteziya uchun 1—2 % lidokain eritmasi, yoki 5 %li lidokain malxami va 10 % lidokain aerezoli ishlatiladi. Anestetikning maksimal dozalari 0,15% — 1000 ml, 0,5%—500 ml, 1—2 % — 50 ml dan ko`p emas.

**Bupivakain** (markain, karbostezin) og`riqsizlantirish kuchi bo`yicha novokaından 6 marta kuchli, lekin toksikligi 7marta yuqori. Lidokaından natijaliroq. Anesteziya 4—10 daqiqadan keyin boshlanadi, maksimum 15—35daqiqadan keyin boshlanadi. Og`riqsizlantirish davomiyligi— 12—13 soat. Xirurgik amaliyotida 0,25 %, 0,5 % va 0,75 % li eritmalar qo`llaniladi. Maksimal doza — 175 mg.

**Mepivakain** (karbokain, skandikain) – amid guruxiga kiradi, ta`sir kuchi bo`yicha ksikainga yaqin, ammo undan toksikroq. Preparat 2% yoki 3% li eritma qo`rinishida ishlatiladi. Boshqa anestetiklarga qaraganda tomirlarni kengaytirmaydi va sekin so`riladi. Mepivakainni ta`siri davomiyligi ksikaından yuqoriroq, ammo bir vaqtda inaktivatsiya tezligi kamroq, ya`ni sekinlashgan metabolizmga ega. Mepivakain xujayra membranasidan yaxshi o`tadi, yaxshi “ximik turniket” xususiyatiga ega, to`qimalarda saqlanib anesteziya ta`sirini uzaytiradi, bunda vazokonstriktor yuborilishi kerak bo`lmaydi.

**Ultrakain** (artikain, septonest, al fakain) – tiofenni amidli xosilasi. Infiltratsion va o'tkazuvchi anesteziya uchun qo'llaniladi. Lidokaindan tezroq ta'sir qiladi, yuqori diffuz va oqsillar bilan bog'lanish xususiyatiga ega va yog'da erish xususiyati past. Tomirni kengaytirish xususiyatiga ega, minimal kontsentratsiyalarda vazokonstriktorlar bilan birga qo'llaniladi..

**Ultrakain D-S fort** – bitta ampulada 80 mg artikain gidroxlorid va 0,024 mg epinefrin gidroxloridini saqlaydi.

### **Ma'ruza 6. Kuchaytirilgan mahalliyog'riqsizlantirish, mahalliy anestetiklarni ta'sirini uzaytiruvchi preparatlar. Vazokonstriktorlar farmakologiyasi, qo'llanilishi. Hamrox kasalliklari bor bemorlarda kuchaytirilgan mahalliyog'riqsizlantirish va operatsiyaga tayyorlash.**

Potentsirlangan mahalliy og'riqsizlantirish – operatsion maydonni mahalliy og'riqsizlantirish yordamida og'riq sezgirligini kamaytirish, organizm reaktivligini kamaytirish, umumiy analgeziya holatiga aytiladi.

Poliklinika sharoitida potentsirlash uchun trankvilizatorlarni nonarkotik analgetiklar bilan birga ishlatishadi. Ba'zida bu moddalarni antigistamin va narkotik moddalar bilan birga ishlatiladi. Trankvilizatorlar orasida ko'proq elenium, seduksen, trioksazin, fenazepam va hokazolar ishlatiladi.

Poliklinikada shifokor bemorni psixoemotsional holatidan kelib chiqqan holda trankvilizatorlarni qo'llash kerak. YAqqol nevroitik reaksiyada, o'ta qo'zg'aluvchan hollarda vena ichiga seduksen (0,3 mg/kg) leksir analgetik bilan birga (0,5 mg/kg) ishlatiladi. Meyyoriy manfiy reaksiyada ichga trioksazin, fenazepam, seduksen yuborish mumkin.

Statsionarda tayyorgarlik operatsiyadan bir yoki bir necha (ko'rsatmaga qarab) kun avval o'tkaziladi. Tunda uxlatuvchi, antigistamin dorilar va kichik trankvilizatorlar buyuriladi. Operatsiyadan 3 soat oldin bu dorilar qaytadan beriladi. Qo'shimcha mushak orasiga narkotiklar va vitaminlar (V va S) yuboriladi. Operatsiyadan 45 minut avval mushak ichiga, narkotik, antigistamin dorilar, M-xolinolitiklardan iborat «aralashmasi» yuboriladi. Ularning o'rniga (yoki birgalikda) seduksen yoki neyroleptanalgeziya uchun foydalaniladigan dorilar (droperidol, fentanil) yuborish mumkin.

YOshi katta va qariyalarda tezkor holatlarda organizmni kompensator va adaptatsion xususiyatlari pasaygan bo'ladi. Bu koronar, buyrak, bosh miya tomirlarni aterosklerotik o'zgarishlari bilan bog'liq.

Gipertonik kasalliklari bor bemorlar muolajadan, uning natijasidan, xirurgik xonadan qo'rqib, arterial bosim oshishi bilan reaksiya berishadi. Emotsional zo'riqish natijasida gipertonik kriz rivojlanishi mumkin, uning asorati esa o'tkir chap qorincha etishmovchiligi bo'lishi mumkin. Og'riq ham arterial bosimni oshirib yuborishi mumkin. SHuning uchun gipertonik kasallik bilan og'rikan bemorlarda effektiv og'riqsizlantirish yaxshi sedativ, ba'zida gipotenziv tayyorgarlik bilan birga talab etadi.

Surunkali koronar etishmovchiligi va YUIK bor bemorlarda o'tkir koronar buzilishlarni oldini olish kerak. Antigistamin moddalar berish tavsiya etiladi (suprastin, diazolin). Profilaktika maqsadida koronarolitiklar (validol, nitroglytserin til ostiga, 1—2 ml 2 % papaverin gidroxlorid eritmasi yoki 1—2 ml 2 % no-shpa eritmasi mushak ichiga) buyuriladi.

Ortirilgan yurak etishmovchiligi bor bemorlarda stomatologik muolajalardan oldin yurak glikozidlari bilan (strofantin yoki korglikon) quvvatlovchi davo o'tkazish kerak.

O'pka emfizemasida va pnevmosklerozda o'pkani hayotiy sig'imi va nafas-perfuzion koeffitsient kamaygan bo'ladi. Bu esa gipoksik gipoksiya va giperkapniya rivojlanishiga olib keladi.

Bronxial astma — bu kasallikni etiologik faktori bo'lib, allergik va infeksiyon komponentlar hisoblanadi. Bronxial astmasi bor bemorlarda og'riqsizlantirishda xavflilik darajasi oshadi, chunki bu bemorlar og'irlashgan allergologik anamnezlilar safiga kiradi.

Aholini 1-2% qandli diabet bilan og'riydi. Bunda yog` va qand almashinuvi buziladi. Har bir qandli diabet bilan og'rikan bemorga shoshilinch yordam ko'rsatilishi kerak bo'lmasa, ular korrigirlovchi davo olishi kerak.

Og'irlashgan allergologik anamnezli bemorlarga nisbatan taktika. Stomatologik poliklinikalarda allergologik asoratlarni oldini olish uchun anamnezni (xususan allergologik anamnezni) yaxshi yig'ish va uni tahlil qilish kerak.

Bu ma'lumotlar A. S. Lopatin (1983) fikricha, barcha bemorlarni ikki turga bo'lish kerak: 1) og'irlashmagan allergologik anamnez bilan va 2) og'irlashgan allergologik anamnez bilan.

### **Ma'ruza 7. Tish olish operatsiyasi. Tish olishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Yuqori va pastki jag'larda tish olish xususiyatlari va tamoyillari. Yuqori va pastki jag'da ombur va**

## **elevatorlar bilan tish olish biomexanikasi. Tish va tish ildizlarini olishda erta va kechki asoratlar va ularni bartaraf etish usullari.**

Stomatologik poliklinika amaliyotida tish olish keng tarqalgan operatsiya bo'lib hisoblanadi. Uni amalga oshirish uchun tish olishni texnik usullari, maxsus asboblardan foydalanish bilan ishlashni bilish kerak.

**Ko'rsatmalar:** operatsiya shoshilinch va rejali ravishda o'tkaziladi. SHoshilinch ravishda tish, konservativ davoga qaramay periodontdagi yiringli yallig'lanish jarayoni davom etsa olinadi. Bundan tashqari, o'tkir osteomielitda, periostitda, jag' oldi abscess va flegmonada, sinusitda, limfadenitda, tishlar infeksiya manbai bo'lsa, konservativ usul bilan davolab bo'lmasa yoki funktsional ahamiyatga ega bo'lmasa olib tashlanadi.

Rejali ravishda tish olishga ko'rsatmalar:

1) periodontda va uning atrofidagi suyak to'qimasida surunkali yallig'lanish o'chog'i bo'lib, endodontik yo'l bilan davolanmasa, odontogen o'choqlar natijasida organizmni surunkali intoksikatsiyasi kuzatilsa (xroniosepsis);

2) Tishni tojining katta qismi singan yoki anatomik xususiyatlari sababli texnik noqulayliklar bo'lsa (ildizlarni qiyshaygan yoki o'tib bo'lmaydigan kanallari); davo natijasida ildiz yoki tish perforatsiyasi yuzaga kelsa;

3) Toj qismini to'liq emirilishi, qolgan ildiz tish protezlashi uchun ishlatib bo'lmasa;

4) Paradontit va paradontozni og'ir shakllari tufayli tish atrofi suyak rezorbsiyasi natijasida tishni III darajali qimirlashi va oldinga chiqishi;

5) Ortodontik davolanib bo'lmaydigan, og'iz va til shilliq qavati zararlovchi noto'g'ri joylashgan tishlar. Bunday tishlar estetik ko'rsatmalarga ko'ra ham olinadi;

6) Noto'liq yoki to'liq chiqmagan, shu tufayli atrof to'qimalarda yallig'lanish jarayonini keltirib chiqaruvchi tishlar;

7) Siniq chiziqda joylashib, bo'laklar repozitsiyasiga halaqit beradigan va konservativ davolanib bo'lmaydigan tishlar;

8) Antagonist yo'qligi sababli surilgan tishlar, funktsional tish protez tayyorlashga halaqit beruvchi konvergirlovchi va divergirlovchi tishlar. Prikus anomaliyasini bartaraf etish uchun karies bilan og'rimagan tishlar ham olinadi.

Tish olish operatsiyasiga ko'rsatmalarni aniqlab olib, o'tkazish vaqtini kelishib olinadi. Bu organizm umumiy holati, turli a'zo va tizimlarni yo'ldosh kasalliklarga bog'liq.

**Qarshi ko'rsatmalar.** Bir qator umumiy va mahalliy kasalliklar va ba'zi fiziologik holatlar tish olishga qisman qarshi qo'rsatma bo'lib hisoblanadi. Bunday bemorlarda maxsus davo va tayyorgarlikdan keyin tish olsa bo'ladi. Qisman (vaqtinchalik) qarshi ko'rsatmalar bo'lib, quyidagi kasalliklar hisoblanadi:

1) YUrak-tomir kasalliklari (infarkt oldi holati va miokard infarktidan 3—6 oy o'tgandan keyin, kriz vaqtidagi gipertonik kasallik, stenokardiya xuruji bilan davom etuvchi yurak ishemik kasalligi, mertsatelniy aritmiya paroksizmi, paroksizmal taxikardiya, o'tkir septik endokardit va boshqalar);

2) Parenximatov a'zolarni o'tkir kasalliklari – jigar, buyrak, oshqozon osti bezi (infeksion gepatit, glomerulonefrit, pankreatit va boshqalar);

3) gemorragik diatezlar (gemofiliya, Verlgof kasalligi, S-avitaminoz); gemorragik simptomlar bilan kechuvchi kasalliklar (o'tkir leykoz, agranulotsitoz);

4) o'tkir yuqumli kasalliklar (gripp, o'tkir respirator kasalliklar, rojali yallig'lanish, pnevmoniya);

5) markaziy asab tizim kasalliklari (bosh miya qon aylanishini o'tkir buzishi, meningit, entsefalit);

6) psixik kasalliklarni o'tkirlashuv darida (shizofreniya, maniakal-depressiv psixoz, epilepsiya);

7) o'tkir nur kasalligi I—III darajalari;

8) og'iz bo'shlig'i kasalliklari (stomatit, gingivit, xeylit).

Bu kasalliklarni davolagandan keyin va ahvol yaxshilangandan keyin tish olinadi. Buni kerak bo'lgan mutaxassis bilan maslahatlashib o'tkazgani ma'qul. Og'ir yo'ldosh kasalliklari bor bemorlarni tishlarini statsionar holatida oldirish ma'qul.

**Tekshirish.** Tish olishga ko'rsatma bo'lsa uni xirurgik aralashuvga tayyorlash, og'riqsizlantirish, operatsiya usuli, kerakli asboblardan foydalanish haqida o'ylash kerak. Operatsiyadan oldin olinayotgan tishni shifokor yaxshilab ko'rish kerak. Toj qismi ko'rilayotganda uni zararlanganlik darajasini, anomaliyasini aniqlab, kerakli asboblarni tanlash kerak. Ko'rik vaqtida yallig'lanish bor-yo'qligiga va patologik qimirlashiga ahamiyat beriladi. Rentgenda ildizlar sohasidagi suyak to'qimasi holatiga, soniga, shakliga, kattaligiga, tarqalish darajasiga baho beriladi va uni burun va jag' bo'shliqlari, pastki jag' kanali bilan munosabatiga ahamiyat beriladi. Tish ildizlari to'siq bilan bog'liqmi, mustahkammi, yoki olindan ildizlarni ajratib olish kerakligini ko'rish kerak.

Ko'rik vaqtida yig'ilgan ma'lumotlar operativ aralashuv rejasini tuzishga va xirurgik asboblarni tayyorlashga imkoniyat beradi.

Bemorni tayyorlash. Muolajadan oldin bemorni tinchlantirish, tish olishni muvaffaqiyatli o'tkazish zarurdir. SHuning uchun muolaja vaqtida bo'ladigan hissiyotlar haqida bemorga aytib berish kerak. U oldindan ularga tayyor bo'ladi va kamroq e'tibor beradi. Labil nerv tizimli bemorlarda sedativ tayyorgarlik kichik trankvilizatorlar yordamida o'tkazish kerak.

Operatsiyadan oldin bemorga siqib turuvchi kiyimlarni echish, tasmani bo'shashtirish, ko'ylakni yoqasini bo'shashtirish tavsiya etiladi.

### Aamliy mashg'ulotlar.

- Xirurgik stomatologik xonani tashkillashtirish va tarkibi. Poliklinikaik stomatologiyabo'limda foydalaniladigan asboblarni. Xirurg stomatolog yordamiga muhtoj bo'lgan bemorni tekshirish va qo'shimcha tekshirish usullari. Kasallik tarixini to'ldirish - forma №043/U.**

### DARS XRONOKARTASI

#### Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Ish bosqichlari va vaqti. 2soat:80daqqa	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
<b>Tayyorlov bosqichi</b> (5 daqiqa)	1.Auditoriya tozaligini nazorat kiladi. 2.Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi. 3.Davomatni nazorat Qiladi. 4. Adabiyotlar bilan tanishtirih	Tinglashadi
<b>O`quv mashg'ulotiga kirish bosqichi</b> (5 daqiqa)	1.Mavzuga oid bo'lgan boshlangich bilimla darajasini aniqlash 2.Interfaol usulni moxiyatini tushintirish 3.Interfaol usulda mavzu taxlili.	Qatnashadi, tinglashadi va javob berishadi
<b>Asosiy qism</b> 30 daqiqa	1. Taqdimotdan foydalanib mavzuni talabalarga yoritib berish. <b>-10 - daqiqa</b> 2. Mavzuning rejasi <b>-10 - daqiqa</b> 3.Mavzuning maqsadini belgilash- <b>10 - daqiqa</b>	Qatnashadi, ko'rishadi, tinglashadi va yozib olishadi.
1 juftlik 5 daqiqa, 2 juftlik 10 daqiqa, 3 juftlik 20 daqiqa.	tanaffus	
<b>Nazariy bosqich</b> (10 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlarga bo`lib, mavzu bo`yicha savollarni beradi. 2. Ko`rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, mul'timedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlarga bo`linadilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
<b>Klinik bosqich</b> (25 daqiqa)	BZKTTM "Yuz -jag' jarrohligi" bo'limida bemorlar bilan ishlash, klinik mashg'ulotlarni mulyajlarda va bo'limda bemorlarda bajarish. <b>-5 - daqiqa</b> Bemorlarning bog'lovlarida ishtirok etib, kasallik tarixlarini o'rganish.Davolash ishlarini olib boradi <b>-10 - daqiqa</b> Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi. <b>-10 - daqiqa</b>	Qatnashadilar, bajaradi, yozadi, tahlil qiladi,

<b>yakuniy bosqich</b> (5 daqiqa)	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yakunlovchi xulosa qiladi.</li> <li>2. Talabalarni baholaydi</li> <li>3. Mustaqil ish beradi</li> <li>4. Uyga vazifa beradi</li> </ol>	

### Amaliy mashg'ulotning texnologik modeli.

Mashg'ulot vaqti-3 soat	Talabalar soni 9 Nafar
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Mashg'ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kasalliklar klassifikatsiyasi</li> <li>2. Kasallik etiologiyasi</li> <li>3. Kasallik klinikasi</li> <li>4. Kasallikni tashxislash usullari</li> <li>5. Kasalliklarni davolash choralari</li> </ol>
O'quv mashg'ulotning maqsadi	Talabalarga 4 kurs taqvimiy reja asosida mavzularni tushuntirish.
Ta'lim berish usullari	Mul'timediya Interfaol usullar "Akvarium", "Qor parchasi"
Ta'lim berish shaqllari	Jamoaviy
Ta'lim berish vositalari	O'quv uslubiy ishlanma , elektron darsliklar, kompyuter
Ta'lim berish sharoiti	Metodik jixatdan jixozlangan auditoriya
Monitoring va jixozlash.	

Jarroxlik stomatologiya – stomatologiyaning mustaqil klinik tarkiblaridan biri bo'lib, kompleks davo usullarini talab etuvchi tish, og'iz bo'shlig'i, yuz va bo'yin a'zolari yuz skeleti suyaklari kasalliklari va jaroxatlarni o'rganish. Bu usullar ichida jarroxlik aralashuvlar yo'naltiruvchi hisoblanadi. Jarroxlik stomatologiya boshqa mutaxassisliklar bilan (terapiya, ortopediya, bolalar stomatologiyasi, xirurgiya, otolaringologiya, oftal'mologiya, nefrologiya, rentgenologiya va radiologiya) bog'liq bo'lib, tashhislash va davolash usullari umumiy bo'ladi.

Bu tartib bir vaqtning o'zida fizika, kimyo va fundamental tibbiyotning ko'pgina bo'limlari: normal va topografik anatomiya, normal va patologik fiziologiya, mikrobiologiya, patanatomiya, farmakologiya, jarroxlik kasalliklari fanlari yutuqlariga asoslangan.

Tish jarroxlik stomatologiyasi tezkor jarroxlik aralashuvlarni: tishlar travmatik (o'tkir yallig'lanish kasalliklari, shular ostibatida bo'g'ilish, qon ketishi, karaxtlik va boshqalar) va rejali orperatsiyalarni (tish surunkali yallig'lanish kasalliklarni, yuz nuqson va deformaqiyalari tug'ma etishmovchilik va anomaliyalar va boshqalar) talab etilishi mumkin. SHifokor stomatolog ish uslubidan qat'iy nazar, xushdan ketganda, karaxtlik, kollaps, koma, yurak va nafas etishmovchiligida, miokard infarkti, gipertonik kriz, epileptik holat, allergik reaksiya, o'tkir shikaq, ilon chaqishida, zaxarlanishlarda birinchi yordam ko'rsatishni bilishi zarur.

Oldingi stomatologiyada tish vrachligi dentiatriya yoki odontologiya jarroxlikning birinchi yunalishni tashkil etgan.

Meditsina tarixida chuqur iz qoldirgan qadimgi asr vrachlaridan Gippokrat, Qel's, Galen va boshqalar xam tish vrachligi bilan shug'ullanishgan. Masalan, hozirgi vaqtgacha shu davrda vrachlar ishlatgan tish vrachlik asboblari va omburlari etib kelgan. Yangilanish davrida anatomiya, xirurgiya fanlarining rivojlanishiga qaramay tish vrachligi ilm chegaralaridan tashkarida kolgan. Meditsina mustaqil soxa bo'lib, frantsuz dantisti P'er Fo'shar (1690- 1762)ning ishlaridan keyin shakllana boshlagan. U 1725 yilda o'zining birinchi kapital ishini nashr etgan. Fo'shar xizmatchilaridan biri birinchi marotaba ko'p avtorlarni materiallari va amaliyotlarini yig'ib sistemaga soldi. Birinchi tish vrachlik maktablari 1838 yilda Amerikada, 1857 yil Angliyada, 1881 yil Frantsiyada, Germaniya va Rossiyada ochilgan. Tish vrachlik jurnali Amerikaning Filodel'fiya shahrida 1839

yil nashr etilgan. Tish va og'iz bo'shlig'i xirurgiyasi tarakkiyotida chet mamlakat tish shifokorlari maktabi katta rol o'ynagan. 1808 yil prof. A. Bush "quyon lab" bo'yicha birinchi orperatsiyani qilgan. 1820 yilda A. Bushning o'quvchisi pastki jag' rezektsiyasini amalga oshirgan. Stomatologiyada ikkita tibbiy tartib odontologiya va yuz jag' jarroxligi rivojlanish natijasida kelib chiqqan. Odontologlar tish kasalliklari, davolash va protezlash bilan shug'ullangan. YUz jag' jarroxlari tish kasalliklari natijasida kelib chiqqan asoratlar bilan shug'ullangan. Kasallarni davolash tajribasi odontogen kasalliklar davolashga o'rtacha yondoshishni talab etadi. tish vrachini jarroxlik bo'limiga jarroxlarning bo'lgan e'tibori umumiy jarroxlikda jag' orperatsiyalarini takomillashtirishga olib kelgan. Ularning ko'pchiligini asoschisi qilib rus vrachi N.I.Pirogovni xisoblasa bo'ladi. U tomonidan jag' o'smalarini davolash asoslari ishlab chiqilgan. YUz plastik jarroxlik rivojlanishida Kiev universitetining prof. YU.K. SHimanovskiyning ishlari katta rol o'ynagan. U plastik orperatsiyalarga ko'rsatmalar sistemasini printsiptini ishlab chiqqan. 1886 yil plastik orperatsiyalarni mukammallashtirilgan turlarini taklif qildi va bir qator jarroxlik aralashuvlarini metodlarini yaratdi. Rus tish vrachi S.S.Tigershtedt (1914) jag' sinishida bo'laklarni tish usti sim shinalari yordamida imobilizatsiya usulini taklif etgan. O'zbekistonda stomatologiya mustaqil fan sifatida inqilobdan keyin rivojlana boshladi. Stomatologiya fani rivojlanishi bilan Respublikada oliy toifali yordam ko'rsatish boshlandi. Turkistonda Turkiston Davlat Universiteti qoshida tibbiyot fakul'teti bor edi. Fakul'tet xirurgiya klinikasi qoshida P.P. Sitkovskiy boshchiligida yuz jag' jarroxligi va odontologiyasi bo'yicha dostentlik kursi ochildi. 1925 yil hospital jarroxlik klinikasida 10 yotoqlik stomatologiya bo'limi ochildi. Besh yildan keyin 15 ta bo'ldi. 1940 yilga kelib respublikada beshta stomatologik klinikasi, 198 ta stomatologik va odontologik kabinet, 47 ta bo'lim, 2 ta klinika, 65 ta koyka bor edi. Ulug' vatan urushi davrida O'zbekistonda jag' jarroxligi tez rivojlandi. Toshkent, Samarkand va Qo'qon shaharlarida hospital qoshida yuz jag' jarroxligi ochildi. SHu davrda Parodoksov M.V, L.M.Obuxova, G.A.Londa, T.A. Ayupovich, L.R.Gubin, A.F.Klyuevalar ilmiy maslahat va davolash ishlarini olib borishdi. Ulug' vatan urushidan keyin 1950 yil Samarkand tibbiyot instituti ochildi. Kursha dostent L.M.Obuxova boshchilik qildi. O'zbekistonda stomatologiyani rivojlanishi asosan 1954 yilda Toshkent tibbiyot instituti qoshida stomatologiya fakul'teti ochilgandan keyin boshlandi. Buxoro Davlat Tibbiyot instituti 1991 yilda ochildi.

#### **Jarroxlik stomatologiya yordamini tashkilashtirish.**

Statsionar sharoitda operativ jarayonlar yoki konservativ davolashni talab etadigan yuz-jag' soxasi kasalliklari bo'lgan bemorlarni tekshirish va davolashga mo'ljallangan vrach stomatologga murojat etuvchi kasallarning 1,5% i statsionarda. davolanishga muhtoj. Tez yordam tomonidan hospitalizatsiya qilinishi kerak bo'lgan yuz-jag' soxasi kasalliklari bo'lib, ularga abstsess va flegmona, o'tkir jaroxat, yuz skeleti sinishi, qon ketish va boshqalar. Jar.s. statsionariga bemorlar jaroxat asoratlari rivojlanishi tug'ma poroklari, yangi xosilalari bilan xam murojaat etadilar. Ular rejim tartib o'tkazilishi mumkin bo'lgan. Tegishli operativ aralashuvlarga muhtoj bo'ladi. Bu bemorlar poliklinika sharoitida oldindan gospital-ga tayyorlanishi kerak.

Statsionarda yukori kvalifikatsiyalangan xirurg stomatologlar ishlashi kerak. Bu vrachlar asosan tibbiyot institutida jarroxlik stomatologiyada klinik ordinaturani bitirgan va jarroxlik ishlarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Jarrox stomatolog statsionar xududi, umumiy xirurgik statsionar singari bo'limlarga ega bo'lishi kerak. Operativ-bog'lov bloki, intensiv terapiya palatalari, ovqatlanish xonasi, tibbiyot xamshiralari posti, material xonalari va boshqa xonalar. Ko'p profilli kasalxonada reanimatsiya va anesteziologiya bo'limlari mavjud bo'lib, u erda jarroxlik stomatologiya kasallari davolanadilar.

Stomatologiyada bemorlarni tekshirish usullari asosan 2 bosqichdan iborat:

Umumiy bemorning holatiga baxo berish, ya'ni birinchi o'rinda bemorning nevrologik statusiga baxo berish, vaznini, bo'yini arterial bosimi va pul'sini tekshirish, terisidagi toshmalar, rangiga e'tiborni qaratish. Ko'z sklerasining rangiga e'tibor berish. Bu kuzatuvlar birinchi bosqichga aloqador.

Ikkinchi bosqich mutaxassislikka aloqador bo'lib, umumiy tekshiruvdan so'ng bemorning shikoyati so'raladi, undan so'ng anamnez (hayot va kasallik) so'ralib, fizikal tekshirish bosqichiga (instrumental tekshirish, ya'ni shu bosqichdan boshlab bemorga shifokor teginishni boshlaydi), undan so'ng qo'shimcha tekshirish usullaridan laborator, rentgen, kompyuter tomograma, 3D, termodiagnostika amalga oshiriladi. Barcha tekshirish usullari diagnoz qo'yishga aniq ma'lumot bera olmaganida, MARFOLOGIK tekshirish usulidan foydalaniladi. Bu xujayra va to'qima darajasidagi tekshirish usuli bo'lib, ikkiga GISTOLOGIK va TSITOLOGIK tekshirish usullaridan iborat. GISTOLOGIK usulda tekshirilayotgan to'qimalar formaliga solinib tekshirishga yuboriladi, TSITOLOGIK usulda punktat, so'lak, surtma, biopstatlar maxsus oynachalar ichiga joylanib xujayra darajasigacha tekshirishga laboratoriyaga yuboriladi.

Bemorni tekshirish usullari 3 bosqichda olib boriladi:

a) Sub'ektiv tekshirish. Surab-surishtirish.

b) Ob'ektiv tekshirish. Fizikal tekshirish usullari. Palpatsiya, perkussiya, auskul'tatsiya.

v) Kushimcha tekshirish usullari.

1. Laboratoriya tekshirish usullari.
2. Instrumental tekshirish usullari.

a) Sub`ektiv tekshirish bemordan surab-surishtirishdan iborat.

Surab-surishtirish bemorni tekshirishning sub`ektivismi bulib, u bemor va vrach urtasidagi mulokot asosida olib borilib, bunda vrach uz patsienti (bemori) bilan yakindan tanishish imkoniyatiga ega buladi, xattoki bemor xakida kerakli xulosani chikarishi mumkin.

Surab-surishtirish palatada, vrach kabinetida olib boriladi. Surab-surishtirish es-xushi joyida bulgan barcha bemorlarda, agar bemorning es-xushi uzida bulmasa uning yonidagi kuzatuvchilaridan: ota-onasi, karindosh-uruglaridan suraladi.

Surab-surishtirishdan maksad:

- ma`lumot olish (tashxis uchun).
- kasallik kelib chikishiga baxo berish.
- boshka ma`lumot manbalarini aniklash (karindoshlari, boshka vrachlar).
- bemorning ishonchiga sazovor bulish.
- bemorning xulk-atvorini, bilim doirasini bilib olish.
- bemorning kasallikka munosabati va uning shaxsiy sifatlariga baxo berish.

Surab-surishtirish mobaynida begona, notanish odamlar bulmasligi, albatta vrach va bemor urtasida ishonch bulishi lozim.

Bajarish tartibi:

1. Pasport ma`lumotlarini surash (tugilgan yili, millati, kasbi, ish joyi, manzili, telefon va x.k.).

2. SHikoyatlari:

a) Asosiy (eng asosiy) lari – mazkur organ va tizim faoliyatining buzilishiga sabab bulishi.

b) Kushimcha (2 lamchi) – terli darajadagi umumiy uzgarishlar natijasida kelib chikib, boshka kasalliklarda xam kuzatiladi.

3. Kasallik anamnezini tuplash:

- Kasallik kachon boshlandi, bemor yoki karindoshlar bu borada kimga murojaat kildilar ... q
- Kasallik kachon boshlandi, kasallikning kelib chikishining sabablari, bemor yoki ota-onasi uni nima bilan boglaydiq
- Kuzgalishi yoki kasallikning boshlanishi kachon kechdiq Mavsumiyliqi.
- Kachon tekshirishlar utkazildi, ularning natijasig
- Kachon davolash usullari utkazilgan va ularning samarasi kachon buldiq
- nogironlik mavjudligi, kachon davom etib kelmokdaq

4. Xayot anamnezini tuplash:

- Umumbiografik ma`lumotlar (turar joyi, ukuv jarayoni boshlanishi, uzlashtirishi, ma`lumoti, ijtimoiy axvoli, jismoniy jixatdan faolligi).
- Dam olish kunlaridan, mexnat ta`tilidan kay tarzda foydalanishi oldingi va xozirgi yashash sharoiti, navbatchilik, armiya xizmati kaerda utganligi, utmagan bulsa – sababi.
- Irsiyati: Oilasida, yakini karindoshlarida arterial gipertenziya, kandli diabet, alkogolizm, sil, ruxiy buzilishlar, onkologik buzilishlar mavjudligi.
- Xayoti davomida boshidan kechirgan kasalliklari.
- Mexnat va turmush sharoitlari (zararli chang, ogir tuz va metallar ta`siri, kasbiy zararli odatlaridan ximoya kilish omillari).
- Zararli odatlari: CHEkish, alkogol, narkotiklarga moyilligi.
- Oilaviy va jinsiy xayoti:

a) Ayol bulsa: xayz boshlanishi muddati, ogrik bomi-yukligi, kachon turmushga chikkan, xomiladorligi, tugish jarayoni, abort bulishi.

b) erkak bulsa: Potentsiya, libido:

- Ovkatlanishning xususiyati, parxezga amal kilish, ovkatlanishni iziga solishi, ovkat kushimchalari, xayvon yoglari, kovurilgan, shur achchik maxsulotlarni iste`mol kilish, ozish maksadida parxez kilish, kasallik buyicha parxez kilish.

- Dori anamnezi: Kaysi dori vositalarini tez-tez va uzok vakt mobaynida kabul, dorilarni kabul kila olmaslik xolati bulganligi, dorilardan allergiya kuzatilganligi, unga kon, zardob utkazilganligi.

- epidemiologik anamnez: Nokulay epidemiologik zonada yashashi, yukumli kasalliklar bilan mulokotda bulishi, nokulay klimato-geografik zonada istikomati kilishi.

### Xamshiralik jarayoni tavsifi

Xamshiralik jarayoni xamshira bilan mijoz birgalikda xamshiralik parvarishiga extiyojni (1), davolash rejasi xamda amalga oshirilishini (2) va natijalar baxosini (3) aniklashlari uchun lozim bulgan tartibli usuldir. Bu jarayon boskichlari mijoz bilan boglik bulib, besh boskichning xar biri avvalgisi anik bajarilishini talab etadi. Jarayon xamshira bilan mijozga kuyidagilarni bajarishga imkon beradi:

- Mijoz xakida tartibli ma`lumotlar tuplash (anamnez yigish).
- Mijozning mustaxkam (kuchli, chidamli) va zaif (kuchsiz, beriluvchan) tomonlarini tugri topish (diagnostika).
- Bemorga vazifalarni bajarishda yordam beruvchi tadbirlar va xamshira xarakatlarini belgilaydigan davolanishning individual rejasini ishlab chikish.
- Davolash rejasini ijro etish (amalga oshirish).
- Davolash rejasining bajarilishi effektivligini baxolash (baxolash).

Bu jarayonning xar bir boskichida mijoz va tibbiy xamshira partnyorlar sifatida xamkor bulib ishlashadi. Bunda mijozning ishtirok etish darajasiga uning salomatligi xolati va resurslari ta`sir kiladi. Agar mijoz gudak, xushsiz xoldagi yoki xamkorlikka imkonsiz kishi bulsa, jarayon boskichlari mijozning oila a`zolari yoxud kumakchi shaxslari yordamida bajariladi.

Xamshiralik jarayonidagi birlamchi maksad xar tomonlama ilmiy asoslangan tibbiy xizmatni bajarishda xamshiraning ijodiy yondashishiga yordam berishdan iborat. Maksad tulik erilishi uchun xamshira intellektual shaxslararo muomalaga va psixomotor kunikmalarga, bu kunikmalardan mijozlar bilan ishlashda kasallikning oldi olinishi, yaxshi tugashi, salomatlik va yukotilgan funktsiyalar tiklanishi jarayonlarining tezlashishi uchun ijodiy foydalanish xoxishiga ega bulishi kerak.

### Ma`lumotlar tuplash

Xamshiralik jarayonidagi birinchi kadam – ma`lumotlar tuplash. Mijoz ma`lumotlarini tartibli va davomli yigish, baxolash va xabar kilish xamshiralik ishining birlamchi vazifasidir. Ma`lumotlar tuplash buyicha kullanma mazkur muassasa xamshiralik nazariyasini aks ettiradi. Umuman, xamshiralik salomatlikni ximoyalash choralari kurish bilan kishilar funktsional faolligi yaxshilanishi yoki kasallik yoxud betoblikka duchor bulishi masalalari bilan shugullanadilar. Xamshiralik parvarishidagi keyingi boskichlar ma`lumotlarning tulikligi, anikligi va urniga boglikdir. Ma`lumotlar tuplashda xamshira kuyidagilarni bajaradi:

- Xamshiralik anamnezi, fizikal baxolash, tibbiy varaka va xamshiralik adabiyotlari kurigi, soglikni saklash mutaxassislari va mijozning kumakchilari bilan maslaxatlarni uz ichiga olgan ma`lumotlar asosida tuzadi.
- Ma`lumotlar asosiga doimiy yangiliklar kiritib turadi.
- Ma`lumotlarni baxolaydi.
- Ma`lumotlar xakida xabar kiladi.

### Diagnostika

Diagnostika – bu mijozdagi muammolardan darak beruvchi, uzgarishlar yoki kasalliklar sabablari paydo bulishiga olib keluvchi, shuningdek, mijozning zaif va mustaxkam tomonlarini kursatuvchi ma`lumotlar taxlilidir. SHundan sung xamshira kaysi muammo bilan tibbiy xamshira, kaysi biri bilan boshka tibbiy xodim shugullanishini aniklaydi. Taxlil natijasida salomatlikning tibbiyot xamshirasi xal kila olishi ma`kul topilgan muammolari xamshira tashxisi deyiladi. Tashxisot boskichida xamshira kuyidagilarni bajaradi:

- Mijoz ma`lumotlarining taxlili va interpretatsiyasi.
- Mijozning kasalligi va mustaxkam tomonlarini aniklash.
- Xamshira tashxisini asoslash va tartibga solish (formulirovkasi).
- Xamshira tashxisi katorini ustuvorligi buyicha ketma-ketlik tartibida ishlash.

### Rejalash

Rejalash – bu xamshira tomonidan tashxisot jarayonida aniklangan va salomatlik bilan boglik muammolarni kamaytirish, yukotish, oldi olinishi, bajarilishiga shu tarzda tugri imkon beradigan xamshiralik amallari xajmini aniklash buyicha mijoz vazifalarini tuzishdir. Undan tashkari, xar tomonlama davolash tadbiri mijoz extiyojlarini kodirish uchun zarur xamshiralik yordami (1) va tibbiy davolash rejasi buyicha xamshiralik amallari (2) ni belgilaydi. Rejalash boskichida xamshira kuyidagilarni bajaradi:

- Ustuvorlikni xal etadi.
- Mijoz vazifalari va baxolashni ishlab chikadi.
- Xamshiralik choralarini tanlaydi.
- Xamshiraning parvarish rejasi axborotini beradi.

### Amalga oshirish



Amalga oshirish davolashni reja buyicha bajarishdir. Uning tarkibiga soglikni ximoya qilish, kasalliklarning oldini olish, salomatlikni tiklash va yukotilgan funktsiyalar kaytarilishini tezlatish buyicha tibbiy xamshira bajaradigan barcha tadbirlar kiradi. Bu boskichda tibbiy xamshira quyidagilarni bajaradi:

- Xamshiralik davolashni reja buyicha bajaradi.
- Ma`lumotlar tuplashni davom ettiradi va zarur bulganda davo rejasiga uzgartirish kiritadi.
- Xujjatlashtirish ishlarini yuritadi.

#### Baxolash

Baxolash – bu mijoz extiyojlarining kondirilishi darajasini ulchashdir. Xamshira va mijoz birgalikda davolash rejasida kuyilgan masalalar kanchalik xal etilganligini ulchashadi xamda ijodiy yoki salbiy ta`sirga ega bulgan omillarni aniklaydi. Mijozning davolash rejasiga munosabati bu reja davom ettirilishi, uzgartirilishi yoki tuxtatilishini belgilaydi. Agar baxolash xamshira parvarishi uzgartirilishi zarurligini kursatsa, anamnez ma`lumotlar, tashxis va tibbiy muolajalarning bu ma`lumotlarga mosligini batafsil kurib chikish kerak buladi. Baxolash boskichida xamshira quyidagilarni bajaradi:

- Mijoz xoxoshiga kura vazifalarning bajarilganligi darajasini ulchash.
- Vazifalarning bajarilishiga ijobiy yoki salbiy ta`sir kiluvchi omillarni aniklash.
- Zarurat buyicha xamshiralik parvarishi rejasini uzgartirish.

#### Xamshiralik jarayoni tasviri

Boskich	Izox	Maksad	Tadbirlar
Ma`lumotlar tuplash	Ma`lumotlar tuplash, mijoz xakida axborot berish va tasdiklash	Mijoz salomatligi xolati, uning kobilyati tugrisida xulosa chikarish. Xamshira tomonidan parvarish kilinishi va xamshira parvarishiga muxtojlikni nazorat etish. Mijozning sogligi xolati, uzgarishlari xisobga olingan xar tomonlama individual tibbiy parvarishni rejalashtirish.	1.Ma`lumotlar asosini tuzish: -xamshiralik anamnezi; -fizikal baxolash; -mijoz tibbiy varakasi va adabiyotlarni kurib chikish; -soglikni saklash mutaxassislari va mijozning kumakchi shaxslari bilan maslaxatlashish. 2.Tibbiy varakani yangi ma`lumotlar bilan tuldrib borish. 3.Ma`lumotlarni tasdiklash. 4.Ma`lumotlar axboroti.
Tashxis kuyish	Mijozning xamshira mustakil xal kila oladigan kasalliklari yoki mustaxkam tomonlarini aniklash uchun ma`lumotlar taxlili.	Xamshiralik tashxisining ustivorlik tartibi ruyxatini tuzish.	1.Ma`lumotlar asosining taxlili va interpretatsiyasi. 2.Mijozning kasalliklari va salbiy tomonlarini aniklash. 3.Xamshiralik tashxisini aniklash va tartibga solish. 4.Xamshiralik tashxisining ustivorlik ruyxatini ishlash.
Rejalashtirish	Xamshiralik tashxisida kursatilgan muammolarning oldi olinishi, kamaytirilishi va yukotilishi buyicha mijoz vazifalari (1) xamda shunga mos xamshiralik muolajalarini belgilanishi (2).	Individual xamshiralik parvarishi rejasini ishlab chikish.	1.Ustivorlikni tartiblash. 2.Vazifalar tuzilishi va baxolash uslubini ishlab chikish. 3.Ulchov tizimini tanlash. 4.Xamshiralik parvarishi rejasining axboroti.
Amalga oshirish	Davolashni reja buyicha bajarish.	Mijozga soglik ximoyasi, kasalliklar oldini olinishi, buzilgan funktsiyalarning tiklanishini tezlatish va shu ishni	1.Davolashni reja buyicha bajarish. 2.Ma`lumotlar tuplashni davom ettirish va zarur bulganda

		bajarishda yordam kursatish.	davolash rejasiga uzgartirish kiritish. 3.Xujjatlashtirish.
Baxolash	Davolash rejasida belgalangan vazifalardan mijoz istaganini bajara olish darajasi ulchanishi, kuyilgan masalalar bajarilishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir kiluvchi omillarni aniklash, zarurat buyicha davolash rejasini kayta kurib chikish.	Davolashni reja buyicha davom ettirish, uzgartirish yoki tuxtatish.	1.Mijoz oldiga kuyilgan vazifalarni kanchalik bajara olganligini ulchash. 2.Maksadga erishish yoki erishmaslikka sabab buluvchi omillarni aniklash. 3.Zarurat buyicha davolash rejasini uzgartirish.

Umumiy kuruv va tana kismlarini kuzdan kechirish

Kuruv va kuzdan kechirish bemorning umumiy axvoli xakida fikr yuritishimizga yordam beradi.

Dastlab umumiy kuruv utkazilib sungra esa tana va kismlarni aloxida kuzdan kechiriladi.

Maksad: es-xushli, bemorning axvoli, ruxiy xolati, umumiy kurinishi, teri koplamlari, tanasidagi aloxida kismlarining kurinishi baxolanadi.

Kursatma: Kuruv barcha bemorlarda albatta utkazilishi shart.

SHarot: YOrug, issik, tinch xona.

Bajarish tartibi:

1. Bemor xolati:

- Faol (aktiv) – bemor uz-uziga xizmat kila oladi.
- Passiv – YOtok xolatidagi ogir axvoldagi bemor.
- Majburiy – Bemor uz axvolini engillatishi (ogrikni kamaytirish uchun, xansirash, bugilishni kamaytirish maksadida bu xolatni tanlaydi).

2. Konstitutsiya (Gavda tuzilishi).

- Astenik – Gavdaning uzunasiga bulan ulchami, eniga kundalangiga bulgan ulchamidan ustun (orik).
- Giperstenik – Gavda kundalangiga ulchami, buyiga ulchamidan ustun (semiz).
- Normostenik – proporsional ulchamlar.

3. YUz kiyofasi:

- Azobli – ogrik, xansirash tufayli.
- «Korvizor» yuz – yurak etishmovchiligida.
- «Mitral» yuz (Fasies Mitralis) – ikkala yonogining kizarib turishi (mitral klapan nuksonlida).
- «Fasies nefritica» – YUz va kuz kovoklari shishinkiragan, okimtir (glomerulonefrit, nefrotik sindromda).
- «Fasies Hippocratica» – Ogrik peritonidida.
- «Oysimon» yuz – Itsenko-Kushengo kasalligida.
- Akromegaliyadagi yuz – Burin, engagi, yonogi uzun.
- «Bazedov yuzi» – ekzoftalm (Kuzi otilib chikib turishi), giperterioz (tireotoksikoz)da.
- Nikobli, amimik yuz – ogiz atrofida burmalar, ogiz va kuzi tulik yopilmaydi – sistemali sklerodermiyada.
- SKV (sistemali kizil yugurux–SKYU) yuz – ikkala chakkasi va burun yoyi buylab kizarishi, kapalaksimon belgi.
- YUz asimmetriyasi – YUz nervi parez va paralichida.

1. Boshni kuzdan kechirish

- Mikrotsefaliya – boshning kichkina razmeri – idiotizmida.
- Gidrotsefaliya – boshning kattalashib borishi – bosh istiskosida.
- Makrotsefaliya – katta bosh – raxit.
- kvadratsimon bosh – Raxit utkazganda.
- Boshni ixtiyorsiz tebratib turishi – Aortal klapan etishmovchiligida.
- sochning tukilishi – korin tifida, skarlatina, leykoz, adrenogeneatik allopetsiyada.

2. YUzi:

- CHekka soxasi – CHekka arteriyasi pul'satsiyasi-arternoskleroz, miya tomiri sklerozi.
- Kuz kovoklarining tuk tusga kirishi – Bazedov kasalligi, sil, buyrak usti bezi faoliyati etishmovchiligida.
- Kovok kastomas (sargayishi) – lipid-xolesterin almashinuvi buzilishi.

- YUz kiyofasi – turli kasalliklarda turlicha uzgaradi (yukoriga karang).
- YOnoklarning bir tomonlama kizarishi – krupoz zotiljamda.
- Labga uchuk toshishi (Herdes labialis) – Gripp, zotiljamda.

### 3. Kuzlar:

- Gilaylik – diplopiya (narsalarni ikkita kurish) – epidemik entsefalit, minengit, boshdagi usma kasalligida.
- Nitagm – korachigning titrab turishi bosh miya kasalliklarida, tarkalgan sklerozda.
- YOruglikka reaksiyasi – YOruglikka sezgirligi.
- Korachikning torayishi (micosis) – oniy va tinchlantiruvchilardan zaxarlanganda.
- Korachigning kengayishi (midvosis) koma xolatlarida, atropin bilan zaxarlanishda, agoniya.
- ekzoftalm – tireotoksikozda.
- Kovoklar ptozi – kuz kovoklari tushib turishi, bir tomonlama, ikki tomonlama.

### 4. Ogiz:

- Ogiz shillik kavati xolati – aft (yara) pigmentatsiya, kon kuyilishlari, filotov doglari.
- Milk xolati – (kizarish, yaralar, shish, konash) – tsinga, stomotit, leykoz, kandli diabet.
- Tilning kattaligi – miksedema, daun, akromegaliya.
- Toza, nam va kizil til – yara kasalligida.
- «Malina» simon til – skarlatinadi.
- Surgichlar yukolishi, sillik lakdek (Xanterov) til addison Birmer kasalligi.
- «Lak» simon til – Oshkozon rakida, pellgra, spruda.
- Til epiteliysining maxalliy kalinlashishi – Leykoplakiya, chekuvchilarda.

### 1. Buyin:

- Uyku arteriyasi pul'satsiyasida – aortal klapan etishmovchiligida.
- V. Jugularis pul'satsiya (kavak vena) – 3 tavakali klapan etishmovchiligida.
- Limfa tugunlar kattalashishi – Sil, limfoleykozda, limfogranulematozda, rak metastazida.
- Kalkonsimon bez kattalashishi – tireotoksikozda, oddiy zobda, xavfli usmada.

### 2. Teri koplamlari:

- Teri okimtirligi – kamkonlikda.
- Sargimtir teri – Addison-Birmer kamkonligi.
- YAshilsimon – xlorozda.
- Ersimon – xavfli kamkonlikda.
- «Sutli kaxva» rangi – yarim utkir septik endokarditda.
- Teri kizarishi – eritremiyada.
- TSianoz (terining kukimtirligi) – kon aylanishi etishmovchiligida, upkaning surunkali kasalligida.
- Ikterik – teri rangining sargayishi – Bilirubin almashinuvi buzilishida, kuchli gemolizda.
- Kungir yoki jigarrang teri – buyrak usti bezi etishmovchiligida.
- Kukrak surgichi atrofi giperpigmentatsiyasi, yuzida korin ok chizigida – ayollarda xomiladorlikda giperpigmentatsiya.
- Depigmentatsiya – vitiligo (viteligo) uchoklari.
- Terini namligi kuchli terlash – sil, malyariya tireotoksik zob yiringli jarayonlarida.
- Terining kurishi – diareya, kaytda.
- Terida toshmalar – toshma bilan kechuvchi turli kasalliklarda:
  - a) eriteya – teri be`zi soxalari kizarib turishi – roja, kvarts bilan nurlanganda, xinin kabul kilganda, nikotin kislota kabul kilganda.
  - b) Rozeola – dogsimon toshmalar, korin tifi, paratif, toshmali tif zaxm.
  - v) Burtiksimon toshma – (krapivnitsa) eshakem, (urticaria), allergiyada.
  - g) Purpura – Terida kontalashlar – Verlgof kasalligi, gemofiliyada, tsinga kapilyarotoksikozda.
  - d) Terida chandiklar – xomiladorlikdan va operatsiyadan sung.
  - e) In`ektsiyalarning urni.
  - j) SHish – yurak, bukrak kasalligi.
  - z) Maxalliy shish – jaroxatlanganda kon-limfa aylanishi maxalliy buzilishi.

### 1. Mushak tizimi:

- Mushakning maxalliy atrofiyasi – paralich (falaj) parezlarda.
- Butimlar xolati – shish, deformatsiya, giperemiya, burtik, tugun, revmatizm, artrit, podagra, deformatsiyalanuvchi osteortrozda.

### 2. Kukrak kafasi:

- Deformatsiyalar – kifoz, lordoz, skolioz, kifoskolioz-raxitda.
- emfizematoe (bochkasimon) – upkaning surunkali kasalligida.
- Paralitik – sil, rak, kaxeksiyada.
- Tovuksimon kukrak – Raxitda.

### 3. Korin soxasi kuruvi:

- Asimmetrik korin – talok va jigar kattalashganda.
- Korinning bir xil kattalashuvi – astsit, meteorizmida.
- Teri osti venalarining, kindki atrofi venalarini, korin yon tomonlari kengayishi – jigar tsirrozi, portal gipertenziyada.

### 4. Ku-oyoklarni kuzdan kechirish:

- Kul barmoklarni «Barabansimon» tirnoklarni soat aylanasidek, tusga kirish, surunkali yiringli kasalliklardan bronxoektatik kasallikda, upka abstsessida, yarim utkir septik endokarditda, yurakning tugma nuksonida, jigar tsirrozida.
- «Ulik barmok» belgisi – oyok-kul barmoklarining juda okimtiriligi – Reyno kasalligida.
- Venalar varikoz kengayishida, trofik yaralar, tupik shakli, tizza shakliga e`tibor beriladi.

## Antropometriya

Antropometriya – umumiy va maxsus tarlarga bulinadi.

- Umumiy – buy, vaznini ulchash, buy vazn indeksi.
- Maxsus – tor mutaxassislar uz ulchamlarini ulchaydilar. Ginekolog – chanokni va x.k.

Kasalliklar dinamikasida vazn tez-tez ulchab turiladi.

Maksad: buy, vazn ulchash.

Kursatma: barcha bemorlarda utkaziladi.

Kerakli sharoit: yorug, issik xona, rostomer, tibbiy tarozi.

Bajarish koidasi:

1. Buyi ertalab oyok kiyimsiz ulchanadi.
2. Bemor rostomerga tikka kilib, turguzib ulchanadi (tupigining orkasi, boldir, dumbasi, kukrak, ensa dumbogi, rostomerga tegib turizi kerak).
3. Plankasi bosh ustiga kuyiladi.
4. Bemor planka ostidan chikadi va u erda belgi kuyiladi.
5. Vazn ertalab naxorda ulchanadi.
6. Bemor iloji boricha echingan xolatda bulish lozim.
7. Ulchanishdan oldin siydik pufagi va ichaklar bushatilgan bulishi kerak.
8. Ulchash vaktida tarozining tugri ishlashi tekshiriladi.
9. Anik milligramgacha ulchanadi.
10. Bemor tarozida turganda tinch xolatda, kimirlamasligi lozim.

## Tana xaroratini ulchash

Bir necha xil usul bilan tana xarorati ulchanadi (simobli termometr, suyak kristall va elektron termometrlar).

Simobli termometr xozirgacha keng kullaniladi.

Maksad: Tana xaroratini aniklash.

Kursatma: Turli kasalliklarda barcha bemorlarda bajariladi.

SHaroit: Termometr bulishi kerak.

Bajarish tartibi:

1. Xaroratni ulchashdan oldin, termotetrdagi rtut kursatkichi 350-360 ga tushiriladi.
2. Xarorat kultik ostida 51 davomida, ogiz bushligida 31 tugri ichakda 11-21 davomida ulchanadi.
3. Xaroratni ulchash natijasi kayd kilinadi.
4. Xarorat ulchangach, termometr yana silkitilib 350-360 gacha tushilib, antiseptik eritmasi solingan idishga solib kuyiladi.
5. Tugri ichakdagi xarorat ulchangach, termometr spirt bilan kayta ishlanib, boshka termometrdan aloxida saklanadi.

## Arterial bosimni (AB) ulchash

AB ni ulchash turli kasalliklarni erta aniklashda axamiyati katta.

Maksad: Bilvosita usul yordamida sistolik va diastolik arterial bosimni ulchash.

Kursatma: Barcha bemorlarda ulchanadi.

SHaroit: Jgutli tanometr, prujinali manometr (ABni ulchash uchun).

Bajarish sharoiti:

AB utirgan xolatda 51 li xordik chikargandan sung, kul-oyok mushaklarini bush tutgan xolda, nafasni tutmagan xolda, gaplashmagan vaktida, AB ulchanadigan kul yurak bilan bir tekis turishi lozim.

Bajarish koidasi:

1. Bemor kiyim elkasidan echiladi.
2. Elkaning urtasidagi elka arteriyasi pul'satsiyasi aniklanadi.
3. Tirsak chukurchasidan 2,5 sm yukoridan elka soxasining pastiga manjet kuyiladi.
4. Bilak arteriyasidagi pul's yukolmaguncha manjetaga xavo tuldiriladi.
5. fonendoskop bilak arteriyasi ustiga tirsak chukurchasiga kuyiladi.
6. Asta-sekin manjetdan xavo chikarila boshlaydi.
7. Manometr shkalasi kuzatilib turiladi va fonendoskopda eshitiladi.
8. Fonendoskopdan eshitilgan birinchi tovush (ton) – maksimal sistolik bosimdir.
9. Fonendoskopda tovush (Ton) ning yukolishi – minimal diastolik bosimdir.
10. ulchash 3 marta utkaziladi (xar kulda) va urtacha kursatkich kayd kilinadi, xamda xulosa chikariladi: gipertoniya, gipotoniya, normotoniya.

Pul'sni tekshirish

Maksad: Pul'sning turli xususiyatlari tugrisida fikr yuritish.

Bajarish koidalari:

1. Bemorning bilagi echintiriladi.
2. Vrach kul kafti bilan bemor pul'sini tekshiriladigan bilakning pastki soxasi orka tomoniga utkazilib, katta barmok bilan kaft soxasining orka tomonidan kuyiladi.
  - Pul's ikkala kulda bir vaktida aniklanadi, agar ikki kulda bir xil ekanligiga ishonch xosil kilinsa, shundan sung bir kulda baxo berish davom ettiriladi.
  - Ung kulning 3 ta barmogi bilan vrach extiyotkorlik bilan bilak arteriyasi bosib kuruladi, tomir buylab paypaslaniladi va pul'sning 6 xususiyatiga baxo beriladi.
  - Tez pul's – tireotoksikozda, miokarditda, gipertoniya, intoksikatsiyada, nevrozda, isitmada.
  - Sekin pul's – sariklikda, yurakning butunlay blokadasida.
  - Kattik pul's – aterosklerozda, gipertonik kasallikda.
  - YUmshok pul's – surunkali yurak, tomir etishmovchiligida, kamkonlikda, kon yukotishda, gipotoniya.
  - Baland va katta pul's – aorta klapani etishmovchiligida, tireotoksikozda.
  - Kichik (ipsimon) pul's – aorta torayishi, taxikardiya, shokda.
  - Pul's etishmovchiligi – mitral teshik stenozida.
  - Pul's aniklanmasligi – tomirlar trombozida, takayasu kasalligida (obliterlovchi endoarterint), aorta koarktatsiyasida, kul protezida.

Fizikal baxolash

Axvoli va xamshiralik parvarishi rejasi tuzilishini belgilab beradigan ob`ektiv ma`lumotlar olinishi uchun mijozning tekshirilishi fizikal baxolashdir. Fizikal baxolash anamnez yigish va suxbat vaktida bajarilib, sub`ektiv ma`lumotlarni tasdiklashi xamda yangi axborotlar takdim etishi mumkin. Tibbiy yondosh tekshiruvchilar xisoblanganlari uchun xamshiralarning fizikal kurik olib borishlari xakida kup baxslashadilar. Fizikal kurikni, tibbiy xizmat tartibiga yul boshlab berishi va tibbiy davolash uchun asos bulishi xisobga olinib, odatda vrachlar bajaradilar. Ba`zi xamshiralalar xar tomonlama fizikal tekshiruvni bajaradilar. Xar kanday vaziyatda xam tibbiy xamshiralalar fizikal kurikning xamshiralik maksadlari uchun tanlangan xamma aspektlarini bajaradilar.

Vrach patologiya va uning sabablarini topish uchun bajargan fizikal kurikdan xamshiralik fizikal kurik mijozning funktsional kobilyatlarini aniklash uchun bajarilishi bilan fark kiladi. Nevrologik etishmovchilik bulganda xamshira sezuv-xarakat kibilyatiga kanday tarzda ta`sir bulganligini aniklaydi. Masalan, insul't utkazgan mijoz tushunish va axborot berish kobilyatini aniklash buyicha tekshiriladi; undan tashkari, uning kundalik vazifalarni bajarish kobilyati xam urganiladi.

Xamshiralik fizikal kurik maksadlari salomatlik xolati baxolanishini, kasallik aniklanishini va xamshiralik muolajalari uchun ma`lumotlar asosi tuzishni uz ichiga oladi. Tibbiy muassasalarda amaliyot utayotgan xamshiralalar xar xil maksadlarda fizikal baxolashning turlicha uslublarini kullaydilar. YUragi xasta bemorlarni parvarishlovchi xamshiralalar mijozni fizikal baxolashda yukori texnologiyalarni kullaydilar. Reabilitatsiya markazi xamshiralari bulsa, mexnatga layokatsizlik funktsional va nofunktsional javob belgilarini aniklash buyicha mutaxassislikning keng kamrovli kunikmalaridan foydalanadi. Xamshiralik fizikal baxolash boshdan tovongacha barcha a`zolar tizimi tartibli tekshiruvini uz ichiga oladi. Bu ma`lumotlar aloxida yoki ma`lumotlar asosining umumiy varakasida yuritiladi.

## Palpatsiya

Palpatsiya usuli xis kilish tuygusiga asoslanadi. U kul barmoklari bilan utkazilib, bunda albatta kaft va barcha kup katnashadi. Palpatsiya yordamida u yoki bu a`zolarining fizik xususiyati, biror bir xosila paydo bulganligini, uning joylashgan joyini, kattaligini, shaklini, yuzasini, kattikligini, xarakatchanligini aniklanadi. Maksad: u yoki bu a`zoning fizik xususiyati, uning biror xosila paydo bulganligini, uning joylashgan urnini, kattaligini, shaklini, yuzasini, kattikligini, xarakatchanligi aniklanadi.

Kursatma: Barcha bemorlarda utkaziladi.

SHaroit: Issik xona yoki palata, krovat (divan).

## Kalkonsimon bez palpatsiyasi

Bajarish tartibi:

1. 4 ta barmokning yumshok yuzasini vrach kalkonsimon bezning orka tomoniga kuyiladi.
2. Ikkala kulning bosh barmoklari buyinning orkasiga kuyiladi.
3. Sungra vrach bemorga bir nechta yutish xarakatlarini bajarishni buyurib, shu vaktida palpatsiya kilinadi.
4. Kalkonsimon bez palpatsiyasi kilinganda uning konsistemasi tugunlari borligi, xarakatchanligi baxolanadi.

## Kukrak kafasi palpatsiyasi

Bajarish tartibi:

1. Paypaslash ikkala kul bilan bajariladi, kul kaftini ikkala tomonga simmetrik kuyiladi. Vrach bemorning old tomonida turadi.
2. Vrachning kuli kukrak kafasining lateral (yon) tomoniga kuyilib bu soxa kullar bilan bir xil bosiladi.
3. CHap kul ung kukrak kafasi kurak ostiga, boshka kul esa oldinda xuddi shu soxaga kuyilib tugri bosib kuruladi.
4. Ung kul chap kukrak kafasi kurak ostiga, boshka kul esa oldinda xuddi shu soxaga kuyilib bosib kuruladi.
5. YOsh bolalarda kukrak kafasi elastikdir. Kukrak kafasining elastikligi plevruga transudat, ekssudat, usma bulsa, upka tukimasi kattiklashganda susayadi.

## Tovush tebranishi(titrashi)ni aniklash

Bu usul tovushning kukrak kafasi yuzasiga berilishini sezdirishidan aniklanadi.

Bajarilish tartibi:

1. Kul kaftlari umrov usti va osti soxasiga kuyilib, «R» xarfi saklovchi suzini (traktor, turt, kirk) talaffuz kilish buyuriladi.
2. Sungra kaft kukrak kafasining oldi tomonidan 4-kovurgachaga kuyiladi, bunda xam «R» saklovchi suzlarni aytish buyuriladi.
3. Bemorning kuli yukoriga kutarilib, vrachning kuli aksilyar liniyaga kuyiladi, «R» xarfli suzlar aytiladi.
4. SHundan sung bemor orkasi bilan vrachga ugirilibturib, vrach kulini kukrak ustiga kuyadi, jarayon takrorlanadi.
5. Bemor kulini kukrak ustiga chatishtiradi, bunda ikkala kukrak bir-biridan uzoklashadi, vrach kaftini kukrak orkasiga kuyib, yana jarayonni takrorlaydi.
6. Kukrak ustida yana bir jarayon bajariladi. Odatda kukrak kafasining simmetrik soxalarida tovush tebranishi bir xil bulishi lozim.

Tovush tebranishi upka tukimasi zichlashganda kuchayadi, plevral buligiga gaz, suyuklik tuplansa, upka tukimasi kalinlashganda susayadi.

## CHukki turtkisi palpatsiyasi

Maksad: CHukki turtkisini, uning maydonini, kuchini, kattaligini, rezistentligini aniklash.

Bajarish tartibi:

1. Vrach ung kul kaftini bemorning kukragi ustiga kuyib, chukki turkisini sezishi lozim.
2. Bunda kaft tush suyagi, 4-5 kovurgalar ustida, barmoklar kultik osti soxasi urta kultik osti chizigida bulishi kerak.
3. Kaft bilan chukki turtkisi aniklanadi, uchala barmokning yumshok uchlari tashkaridan ichkariga yunalib, chukki turtkisi soxasida tuxtaydi.
4. Uning chegarasi, maydoni, balandligi, kuchli rezistentligiga baxo beriladi.
5. CHukki turtkisi kattalarda 5 kovurgalar oraligi Lmedoclavicularis 1-1,5 sm ichkari, bolalarda esa yoshga munosib ravishda xar-xil joylashadi.

## Korin palpatsiyasi

Bu korin bushligiga baxo berishdagi asosiy fizikal usullarda xisoblanadi.

2 xil palpatsiya ajratiladi:

a) YUzaki yoki kiyosiy.

b) CHukur palpatsiya.

Korinning yuzaki palpatsiyasi

Maksad: Maxalliy defans, ogrik, teri osti xosilalarini aniklash va simmetrik soxasini kiyoslash maksadida kullaniladi.

Bajarish tartibi:

1. Bemor orkasi bilan yotadi, beligacha kiyimi kutariladi, oyogi tizzasiban bukiladi, kuli tanasi buylab tushiriladi.
2. Vrach ung kuli barmoklarini yarim bukib, bemorning korniga, chap son soxasiga va extiyotlik bilan chukur bosmay, bemorni chalgitgan xolda barmoklari bilan soat strelkasi yunalishida, agar ogriydigan soxani aytsa, unga karshi tomondan boshlab palpatsiya kilamiz.
3. Sungra vrach kulini chap vranka kuyib, palpatsiya davom ettiriladi.
4. CHap kovurga osti soxasi paypaslanadi.
5. epigastral soxa paypaslanadi.
6. Ung kovurga osti soxasi paypaslanadi.
7. Korinning ung flankasipaypaslanadi.
8. Ung yonbosh soxasi paypaslanadi.
9. Korinning urta kismi va korinning pastki urta kismi (siydik pufagi) soxasi bilan palpatsiya tugatiladi.
10. Korindagi korin devori karshiligi, ogrik aniklanadi. Odatda u yumshok, ogriksiz bulishi lozim.

Korinning chukur palpatsiyasi

Bu palpatsiya V.P.Obraztsov usuli bilan utkaziladi.

Bajarish tartibi:

1. Sigmasimon ichakning chukur palpatsiyasi bilan boshlanadi. Bunda turt barmok sigmasimon ichakka parallel kilib kuyilishi kerak.
2. Nafas olganda barmoklar bilan terida burma xosil kilinadi, nafas chikarganda esa barmoklar korinning orka devoriga karab (orientir spina ilaca) boriladi, itarib boruvchi tartibda.  
Kul kafti bilan ichkaridan tashkariga va yukoridan pastga itarib turishi kerak.
1. S-simon ichak topilib, uning yuzasi, xarakatchanligi, ogrikligi, konsistensiyasi aniklanadi (odatda chap yonbosh soxasida joylashib, yumshokdir).
2. Sungra kur ichak ung yonbosh soxada paypaslanadi. CHukur nafas olganda va chikarganda bir kul orka tomondan, boshka kul bilan ung yonbosh soxasidan chukur palpatsiya kilib borilib kur ichakka baxo beriladi. Odatda kur ichak 3-4 sm yumshok, ba`zan biroz gaz borligi seziladi, kam xarakatli.
3. shundan sung ingichka ichak chap tomonidan ung tomoniga karab, pastdan yukoriga karab palpatsiya kilinadi.
4. Kundalang chamrab ichak kindikdan 2-3 sm yukoridan boshlanib, asta sekin pastga karab boriladi (ungdan chapga tomon). Odatda erkaklarda kindikdan pastda 1 sm, ayollarda esa 1-3 sm pastda joylashgan.
5. Kundalak chambar ichakning kutariluvchi (ungda) va tushuvchi (chapda) kislari V.X.Vasilenko tomonidan tatbik kilingan bimanual palpatsiyausuli bilan aniklanadi.

Jigar palpatsiyasi

Jigar palpatsiyasi yordamida uning yuzasi, chegarasi, kirrasi, konsistensiyasi, ogrikligi aniklanadi.

Bajarish tartibi:

1. Bemor orkasi bilan yotadi, beligacha echintiriladi, oyogi tizzasidan bukiladi, kullari tanasi buylab tushiriladi.
2. Perkussiya yordamida jigarning pastki chegarasi aniklanadi.
3. CHap kul kafti bel soxasining pastiga kuyilib (XI-XII kovurga ostiga), bosh barmok kovurga yoyiga joylanadi va bir biriga karab bosiladi.
4. Ung kul kafti korin devoriga korin tugri mushagining yon tomoniga kuyiladi, bunda barmok oxirgi jigar chegarasining pastiga kuyiladi.
5. Nafas chikarganda vrach terini burmaga keltiradi (sung kul barmoklari bilan), bemorga chukur nafas olish buyuriladi.
6. Nafas olganda jigarning pastki kirrasi pastga tushib, barmoklarga takaladi.
7. Agar jigarning pastki chegarasini aniklash imkoni bulmasa (palpatsiya kilib bulmasa), barmokni 1-2 sm yukriga kuyib yana takrorlanadi, shunday kilib, to jigarning pastki kirrasi palpatsiya kilinguncha jarayon kaytariladi.

8. Odatda jigarning pastki kirasini yumshok, yumalok, tekis, sal sezgirdir.

#### Buyrak palpatsiyasi

Odatda katta bolalarda, katt aodamlarda buyrak palpatsiyada sezilmaydi. Kichik bolalarda, chakaloklarda, gidronefrozda, polikichtozda, usma kasalligida, nefroptozda buyrakni palpatsiyada sezish mumkin.

Buning uchun razmeri, yuzasi, konsistentsiyasi, ogrikiligi aniklanadi.

Bajarish tartibi:

1. Bemor gorizontaal xolatda yotgan bulishi, korinni bush tutishi, oyogini tizzadan bukishi, kullarini kukragiga chalishtirishi lozim. Frachning chap kuli kafti, bemorning ung bel soxasi ustiga, barmoklari umurtka buylab XII kovurga buylab kuyiladi.
2. Vrach ung kulini korin ustiga, korin tugri mushagi chekkasiga kuyadi. SHu kulning yarim bukilgan barmoklari kovurga yoyi kirasiga kuyiladi.
3. Ikkala kullari bir biriga takalganda, bemorga chukur nafas olish buyuriladi.
4. SHu vaktida buyrakning pastki kismi pastga tushib, kulga seziladi.
5. Nafas olgnada ung kul barmoklari korin bushligiga chukur kirib, chap kul tomoniga boradi.
6. Agar buyrak sezilsa, uning shakli, kattaligi, yuzasi va uzgarishlariga baxo beriladi.

#### Talok palpatsiyasi

Badarish tartibi:

1. Bemor ung yonboshga yotkiziladi, boshi oldinga kukragiga karab egiladi, chap kul tirsagidan bukilib, kukrak kafasida erkin yotadi. bu xolat korin pressini bushashtiradi. Frachning chap kuli bilan, chap kukrak kafasi ustiga VII va XII kovurga orasiga, aksilyar soxaga kuyib, bosiladi (xarakatni chegaralash uchun).
  2. Vrach ung kuli barmoklarini sal bukib, korin old-yonbosh soxasi yuzasiga, kovurga yoyi kirasiga kuyadi.
  3. Bemor nafas chikarganda, vrach ung kuli bilan korin devoriga bosib, chuntak xosil kiladi.
  4. Sungra vrach bemorga chukur nafas olishni buyuradi.
  5. nafas olganda talok palpatsiya kilinsa, ung kul barmoklariga unmaydi (seziladi).
- Odatda talok palpatsiya kilinganda sezilmaydi.

#### Limfa tugunlari palpatsiyasi

Bu bilan limfa tugunlarining ulchami, konsistentsiyasi, xarakatchanligi, ogrikiligi aniklanadi.

Bajarish tartibi:

1. Kaysi guruxdagi limfa tugunlari palpatsiya kilinsa, shu soxada mushaklar bushashgan xolda bulishi lozim. Limfa tugunlari palpatsiyasi ikkala kul bilan bir vaktida, kursatkich va urta barmok bilan paypaslab bajariladi.
2. Palpatsiyada limfa tugunlari kuyidagicha baxolanadi:
  - mikdori (kancha);
  - ulchami (razmeri);
  - konsistentsiyasi;
  - xarakatchanligi;
  - atrofdagi tukimalar bilan alokasi va sezgirligi (ogrikiligi).
3. Palpatsiya navbat bilan kuyidagi tartibda bajariladi:
  - jag osti;
  - engak osti;
  - buyin;
  - umrov usti va umrov osti;
  - ensa;
  - kultik osti;
  - tirsak;
  - torakal;
  - chov;
  - tizza osti.

#### Bugimlar palpatsiyasi

Bugimlar palpatsiyasida bugimning xarakati, ogrikiligi, konfiguratsiyasi, bugin shovkini, suyuklik aniklanadi.

Bajarish tartibi:

1. Palpatsiyada ogrik, shish, maxalliy isitma, bugimdagi suyuklik, krepitatsiya aniklanadi.



2. Faol va passiv xarakter yordamida bugimning xarakter faollik darajasi, xarakterning chegaralanishi baxolanadi.
3. Aktiv va passiv xarakter vaktida vrach kaftii bugim ustiga kuyib, undagi krepatitsiya (gijirlash)ni aniklaydi.
4. Bugimdagi pernatikulyar xosilani aniklash mumkin.

Perkussiya ichki organlarni fizikal tekshirish usuli bulib, tekshiriladigan a`zo joylashgan tana yuzasini tukillatib kurishga asoslanadi.

Maksad: U yoki be a`zoning chegarasi, ulchami, shakli, undagi perkutor tovushning turiga karab shu a`zodagi uzgarishlar xakida vikr yuritish simmetrik joylashgan a`zolardagi perkutor tovushni bir-biri bilan solishtirish.

Kursatma: Nafas olish a`zolari, yurak-kon tomirlar tizimi, jigar, talokning chegarasi, ularning konfiguratsiyasi, ulchamini, ulardagi patologik uzgarishlarini, korin bushligidagi suyuklikni (astsit) aniklash.

SHaroit: Issik, tinch xona, begonalar yulamasligi, bemor beligacha echingan bulishi lozim.

Upkaning kiyosiy perkussiyasi

Maksad: Upkaning simmetrik soxalaridagi perkutor tovushni bir-biri bilan kiyoslash.

Bajarish tartibi:

1. Oldindan chap va ung tomondan umrov usti va osti soxalari soxasida xam chap va ung tomonidan perkussiya utkaziladigan va tovushlarni bir-biri bilan solishtiriladi. Odatda anik upka perkutor tovushi eshitilishi kerak.

Patalogiyada: - kutisimon tovush – upka emfizemasida, bronxial astmada.

- Timpanit – upka abstsessi yorilganda va u soxa yiringdan bushaganda, bronxolitda.

- Bugik – zotiljam, plevritda.

2. Sungra orkadan kukrak ust va kurak osti soxasida ung va chap tomonidagi simmetrik, soxalardagi tovushlar bir-biri bilan solishtiriladi.

Upkaning topografik perkussiyasi

Topografik perkussiyada upkaning yukri va pastki chegarasi, upka ekskursiyasi, krening maydoni aniklanadi.

Upkaning pastki chegarasini aniklash

Upkaning pastki chegarasi belgilangan liniyalar buylab chap va ung tomondan aniklanadi.

Barmok plessimetr kovurgalar oraligida, kovurgalarga parallel kuyiladi va 1-kovurga oraligidan boshlanib liniyalar buylab pastga tomon bajariladi.

Bajarish tartibi:

1. L. medioclavicularis (urta umrov liniyasi) buylab upkaning pastki chegarasi aniklanadi (normada 6-kovurga).

2. Sungra barmok plessimetr oldingi kultik osti liniyasiga (L. Axillaris ant) kuyiladi, xamda shu liniya buylab, chap va ung tomondan upkaning pastki chegarasi aniklanadi (normada ung va chap tomonda 7-kovurga).

3. Ung va chap tomonda orka kultik osti liniyasi buylab upkaning pastki chegarasi aniklanadi (normada ikkala tomondan xam 8-kovurga).

4. CHap va ung tomondan orka kultik osti liniyasi buylab upkaning pastki chegarasi aniklanadi (normada 9-kovurgaga).

5. ung va chap tomonda kurak liniyasi buylab upkaning pastki chegarasi aniklanadi (normada ikkala tomondan 10-kovurga).

6. Umurka liniyasi buylab upkaning pastki chegarasi aniklanadi (normada 11-kurak umurtkasi).

Upka ekskursiyasini aniklash

Bajarish tartibi:

1. oldingi kultik osti yoki urta kultik osti liniyasi buylab bemorning tinch xolatida upkaning pastki chegarasi aniklanadi va maxsus kalam bilan belgilanadi.

2. Bemor chukur nafas oladi va nafas tutib turishi buyuriladi, xamda xuddi yukoridagi liniya buylab upkaning pastki chegarasi yana aniklanadi, kalam bilan belgilanadi.

3. Sungra bemor nafasini tulik chikaradi, yana yukoridagi jarayon takrorlanadi va kalam bilan belgilanadi.

Odatda (normada) upkaning pastki chegarasi yukoriga va pastga 3-4 sm, jami 6-8 sm gacha (ekskursiyasi) siljishi. ekskursiyasi kamayishi upka emfizemiyasi, bronxial astma, upka zotiljami, plevrit kasalliklarida kuzatiladi.

Krening maydonini aniklash

Bajarish tartibi:

1. Barmok plessimetr oldindan chap va ung tomonda trapetsiyasimon mushakning oldingi urta kismiga kuyiladi.

2. Sungra barmokni shu erdan (trapetsiyasimon mushakning urtasidan) ichkariga tomon anik upka tovushidan bugik tovushgacha perkussiya kilinadi va kalam bilan belgilanadi.

3. SHundan sung yana usha urtadan boshlab tashkariga tomon perkussiya kilinadi, kalam bilan belgilanadi.

Ikkala belgilangan soxa oraligi masofasi ulchanadi, bu oralik – Krening maydoni deyiladi. Normada bu maydon 5-6 sm ni tashkil kiladi. Upka emfizemasida kengayadi, upka silida kiskaradi.

YUrak perkussiyasi

YUrakning nisbiy chegarasini aniklash

YUrakning nisbiy chegarasi uning xakikiy chegarasini (ulchamini) bildiradi.

Bajarish tartibi:

1. Dastlab diafragmaning yukori chegarasi aniklanadi. Urta umrov liniyasi buylab ung tomondan bugik tovushgacha perkussiya kilib, 1-kovurgaga yukoriga kutariladi, 4-kovurga oraligiga tugri keladi.
2. Belgilangan nuqtadan boshlab kul-barmokni kovurgaga perpendikulyar, tush suyagiga nisbatan parallel kuygan xolda perkussiya kilib anik upka tovushidan bugik tovush xosil bulguncha davom ettiramiz, bugik perkutor tovush paydo bulgan erni belgilaymiz (normada tush suyagining ung tomonidan 1 sm tashkarida). Surunkali bronx upka kasalliklarida, upka arteriyasi, chap atrioventrikulyar teshik stenozida, eksudatli prevritda yurak ung tomonga kattalashadi.
3. CHap urta kultik osti liniyasidan 5-kovurga oraligida tush suyagining chap tomoniga karab perkussiya kilib boramiz va chap chegarani aniklaymiz (normada chap urta umrov liniyasida 1,5 sm ichkarida). Mitral klapan etishmovchiligida, aortal teshik stenozida, eksudatli perikarditda yurak chap tomonga kattalashadi.
4. CHap parasternal liniya buylab pastga tomon perkussiya kilib boramiz (1-kovurga oraligidan boshlab) va bugik tovush paydo bulgan soxa yukori chegara xisoblanadi. Normada kattalarda L.parasternalis sinistra dan 3-kovurgada (bolalarda 2-kovurga oraligida) aniklanadi. CHap atrioventrikulyar teshik stenozida, eksudatli perikarditda yurak yukoriga kattalashadi.
5. YUrakning kundalang kesimini aniklash uchun ung va chap chegaralarni birlashtiramiz. Normada 11-13 sm. aortal konfiguratsiya – aorta teshigi stenozida, mitral konfiguratsiya esa mitral klapan etishmovchiligida kuzatiladi.
6. YUrak taliyasi (beli)ni aniklash uchun kultik osti chukurchasining yukorigi chegarasidan to tush suyagi ustigacha liniya utkazamiz va kultik ostidan tush suyagiga karab bugik tovushgacha perkussiya kilamiz (yurak taliyasigacha).
7. YUrakdagi tomir tutami kengligini aniklash uchun 2-kovurga oraligidan tush suyagidan ung va chap tomonidan perkussiya kilinadi chap umrov urta liniyasiga tugri keladi. Normada 5-6 sm. kattalashishi aorta anevrizmasida, upka arteriyasi anevrizmasida, aterosklerozda kuzatiladi.

YUrakning absolyut chegarasini aniklash

YUrakning absolyut chegarasi yurakning upka bilan koplanmagan kismiga tugri keladi.

Bajarish tartibi:

1. YUrakning ung nisbiy chegarasi topilgach, yana shuni sekin perkussiya usuli bilan to butunlay bugik tovush eshitilguncha davom ettiramiz.
2. YUrakning chap nisbiy chegarasidan ichkariga karab sekin perkussiya usuli to absalyut bugik tovushgacha davom ettiriladi.
3. YUkuri nisbiy chegara topilgach, yana pastga karab, to butunlay bugik tovushga perkussiyani davom ettiramiz.
4. Normada yurakning barcha (ung, chap, yukori) absalyut chegaralari nisbiy chegaralaridan 1 sm ichkarida aniklanadi.

Kurlov buyicha Jigar perkussiyasi

Kurlov usuli buyicha jigar perkussiyasi jigar ulchami (razmeri)ni aniklash uchun 3 ta parametrdan utkaziladi.

Bajarish tartibi:

1. ung urta umrov liniyasidan yukoridan pastga karab perkussiya kilib, bugik perkutor tovushni aniklaymiz. Bu jigarning yukorigi 1-chegarasi xisoblanadi.
2. Sungra xuddi shu liniya buylab korin soxasidan yukoriga karab bugik tovushgacha perkussiya kilamiz. Bu pastki birinchi chegarasi ikkala (yukorigi va pastki) nuqtalarni tutashtiramiz (normada 9+2 sm).
3. YUkorigi birinchi nuqtadan oldingi urta liniyaga tomon perpendikulyar utkazamiz, ikkala liniyalarning kesishgan nuqtasi jigarning 2-ulchamining (chegarasining) birinchi nuqtasidir.
4. Sungra shu liniya buylab, korin soxasidan yukoriga tomon perkussiya kilamiz, to bugik tovushgacha, bu esa ikkinchi chegaraning 2-nuqtasidir (2-chegaraning 1 va 2 nuqtalarini tutashtiramiz). Normada bu liniya 8+2 sm.
5. Kovurga yoyi buylab chap tomondan tashkaridan ichkariga karab, bugik perkutor tovushgacha perkussiya kilamiz. Bu erni belgilab, uni 2-chegaraning yukorigi nuqtasi bilan tutashtiramiz. Normada bu liniya 7+2 sm. jigar chegarasining gepatit, jigar exinokoksi, kamkonlik, kollagenozlarda kattalashganligi kuzatiladi. Kichrayganligi – jigar tsirrozida aniklanadi.

Auskul'tatsiya

Bu usul xam fizikal tekshiruv usuli bulib, organizmda xosil buladigan tovushlarning eshitishiga asoslaniladi.

Maksad: Asosiy va kushimcha tovush xamda shovkinlarni, yurak tonlarini, yurak shovkinlarini, yurakning patalogik ritmlarini eshitish vositasida aniklash va baxo berish.

Kursatma: Nafas va yurak kon-tomirlar sistemasini tekshirish.

SHaroit: issik tinch xona, fenondoskop, stetoskop.

Upka auskul'tatsiyasi

Bajarish tartibi:

1. Fenondoskopning nayi uchi kulokka tikiladi. Stetoskop yoki fenondoskop kizdirilib, sungra eshitadigan soxaga kuyiladi.
2. eshitish upkaning uchidan (umrov usti soxasidan) boshlanadi. Upkaning ung va chap simmetrik soxalarini bir-biri bilan kiyoslab eshitib kuramiz.
3. Oldinigi chap tomondan 4-kovurga oraligigacha eshtiladi.
4. Kultik osti soxasi eshtilayotganda kullar yukoriga bosh orkasiga chalishtiriladi.
5. Orkadan eshitganda kukrak usti, osti va oraligi ung va chap tomondan bir-biriga kiyoslangan xolda eshtilib kuruladi, bunda bemorboshini oldinga pastga egib kulini old kukragiga chalishtirib utirishi lozim.
6. Bemorda 2-3 nafas akti (nafas olish, chikarish) eshtilib kuruladi. Normada upka ustida vezikulyar nafas eshtiladi.
  - Vezikulyar nafasning fiziologik zaiflashishini kukrak kafasi kalinlashganda, semiz odamlarda kuzatiladi (gipersteniklarda).
  - vezikulyar nafasning fiziologik kuchayishi – ozgin odamlarda (asteniklarda) kuzatiladi. Zaiflashishi.
  - Upka emfizemasida, bronxial astmada, kekirdakda tovush boylami torayishi, traxeya oraligi torayishida, yirik bronxlarda usma bulsa, yot jism tushganda.
  - Vezikulyar nafasning patalogik kuchayishi bronxospazmda.
  - Kuchaygan bronxial nafas – Krupoz zotiljamning 2-boskichida.
  - Amforik nafas – upka abstsessi yorilib bronxga utganda (abstsessning yiringdan bushagan soxada).
  - Metallsimon nafas – ochik pnevmotoraksda.
  - Stenotik nafas – traxeya, yirik bronxlar torayishi.
  - Kuruk xirillashlar – utkir, surunkali bronxitda, zotiljamda, upka emfizemasida, bronxial astmada.
  - Nam xirillashlar – upka tukimasi yalliglanishi, bronxitda.
  - Krepatatsiyasi – zotiljam, sil, upka infarktida.
  - Plevra ishkalanish shovkini – Kuruk plevritda.

YUrak auskul'tatsiyasi

Bajarish tartibi:

1. Dastlab pal'pator usul bilan chukki turtkisini topamiz.
2. CHukki turtkisida mitral klapan (normada bu erda I ton) eshtiladi, distolik (mitral klapan etishmovchiligida) va diastolik (mitral stenozda) shovkinlar eshtiladi. I ton xususiyatlari kuyidagicha bulishi mumkin:
  - Karsaksimon I ton – mitral stenozda.
  - Zaif I ton – mitral klapan etishmovchiligida.
  - Galop ritmi (bedana ritmi) – I ton bulinishi yurak korinchalari kengayganda, mnokardial etishmovchiligida, miokard gipertrofiyasida, miokard infarktida, kardiomiopatiyada, dekompensatsiyalangan porokda.
3. Sungra ung tomondan 2-kovurga oraligi tush suyagi chekkasida – aorta proektsiyasi – eshtiladi. Bunda II ton anik. Sistolik (aorta stenoz), dagal diastolik shovkin (aortal klapan etishmovchiligi) II ton aktsenti (gipertonik kasalligida) eshtiladi.
4. Tush suyagidan chap tomonda II kovurga oraligida upka arteriyasi proektsiyasi (2 nukta) eshtiladi. Bu erda II ton, diastolik shovkin yaxshi eshtiladi. II ton bulinib eshtilsa 3 kismli ritm (bedana sayrashi) – mitral teshik stenozida eshtiladi.
5. Tush suyagining xanjarsimon usigida 3 tavakali klapan (4 nukta) eshtiladi, sistolik shovkin (3 tavakali klapan etishmovchiligida) diastolik (ung atrioventrikulyar teshik torayishi – stenozida).
6. Botkin-Erba nuktasi (5 nukta)  
Tush suyagidan chap tomonda 3-kovurga oraligida 3 aortal klapan proektsiyasi. II ton, diastolik shovkin – aortal etishmovchiligida. A/B – xar xil bulib uzgaradi, pul's xam xar xil aniklanadi.

Mahalliy ogriqsizlantirish uchun kursatma.

YUz sohasidagi barcha muolajalar ogriq bilan kechsa, bu usul qo'llaniladi. YUz-jag sohasida yumshoq to`qimalarda, jaglarda, tishlarda, ogiz bo`shlig`idagi barcha organlar operasijasida, kari odamlarga, nafas va yurak tomir etishmovchiligida, narkoz mumkin bulmagan xollarda, suqlashgan organizmda utkaziladi.

Qarshi korsatma: uzoq va travmatik operatsiyalarda mahalliy anestetiklarni ko'tara olmaslik, yoki sezishning yukori bulishi, psixik kasalliklarda qo'llanilmaydi. Plastik operatsiyalarda ogriqsizlantiruvchi eritmalar yuborganda to'qimalar xajmini uzgartiradi.

Mahalliy ogriqsizlantirish ishlatiladigan anestetiklar.

Kokain – zamonaviy anestetik, toksik xususiyati xam bor.

Dikain – ok kristall kukun, suv va spirtida yaxshi eriydi, kaynatish yo'li bilan sterilizatsiya qilinadi.

Bu kuchli anestetik vositalar, yuza anesteziyasida qo'llaniladi (to'qimalarga surtish uchun 0,25 – 2% li eritmalar). Kattalar uchun xar xil yukori dozali dikoin 0,09 g (3 ml 3% li eritmasi) ishlatiladi.

Piromekain - yuza anesteziya uchun ishlatiladi, tasir doirasi dikaindan kam emas. Bu preparat 1-2% li eritma, 5% li piromekainli malxam sifatida, 5% li piromekainli malxam bilan metil-urasil va 3% li piromekainli malxam bilan metil-urasil va kollagenlar (pirometokol) to'qima yuzasiga surtiladi. Bir martalik yukori dozasi – 1g.

Novokain – ok kristall kukun bulib, suvda va spirtida yaxshi eriydi. Suvli eritma 30 minut kaynatiladi. Anestetik kam toksinli, keng qo'llaniladi. U infiltratsion va utkazuvchi anesteziyada qo'llaniladi. Infiltratsion anesteziyada novokainning 0,25% - 0,5% li eritmalar qo'llaniladi. Alveolyar o'siq to'qimasining utkazuvchi va infiltratsion anesteziyasi uchun esa 1-2% li eritmasi qo'llaniladi. Infiltratsion anesteziya yumshoq juda tez kechadi. Mushaklar uchun yukori dozasi – 1 g.

Infiltratsion anesteziya uchun quyidagi yukori dozalar belgilangan: 0,25% li novokain eritmasi bilan operatsiya boshida 500 ml (1,25g) dan ko'p qilinmaydi, keyingi har bir soatda 1000 ml (2,5g) dan ko'p emas, 0,5% li eritmasi - 150 ml (0,75g) va 400 ml (2g) gacha qo'llaniladi. Amaliyot utkazuvchi anesteziya 100 ml 1% li va 30ml 2% li eritmalaridan qo'llaniladi. Novokainning konga surilishni kamaytirish maksadida (zaxarlanishning oldini olish uchun) va tasirini uzoq saklash uchun novokainga 0,15 li adrenal gidroxlorid eritmasi 1:100000 nisbatda qo'shiladi (adrenalina 100 ml novokain). Novokainning ta'sir muddati 30 minutchaga davom etadi. YAlliglanish uchogida novokainning qollaniishi ogriqsizlantirishni yaqqolroq namoyon kilmaydi.

Intoksikasiya holatlarida bosh aylanilishi ko'zgaluvchanlik, kusish, teri okarishi, ko'p terlash, taxikardiya bosimning tushishi, nafas tuxtashi va sudorogo ko'zatilishi mumkin. Bazan upka shishi ko'zatiladi.

Allergik reaksiyalar rivojlanganda terida toshmalar toshishi, kichish, dermatit, kvinke shishi, bronxospazm ko'zatiladi.

Trimekain (mezokain) – ok kristall kukun bulib, suv va spirtida yaxshi eriydi. erimalar 1000 S da 30 minut kaynatilib, sterillanadi. Trimekain yalliglanish uchogida kleoid chandik, granulyasion to'qima sohasida ogriqsizlantirish samarasi yaxshi utkazilayotganda, anesteziya tezligi 2-marta, ogriqsizlantirish darajasi – 2-2,5 arta, anesteziyaning davomiyligi 3 martagacha yukori buladi. Zaxarliligi ko'p emas. Allergik reaksiyalarni kam chakiradi. Infiltratsion anesteziya uchun - 25-2% li, utkazuvchi anesteziya uchun esa 1-2% li eritmalar ishlatiladi.

Trimekainning 0,25% li eritmasidan foydalanish uchun 800 ml suyuklikda, 0,5% uchun uchun 400 ml, 1% uchun 100 ml, 2% uchun – 20 ml suyuklikda eritilishi kerak.

Lidokain (ksikain, ksilokain) – ok kristall kukun, suvda va spirtida yaxshi eriydi. Anesteziya uchun lidokainning vodorod xloridli tuzi ishlatiladi, kuchli anestetik xisoblanadi, anesteziya chuqur va uzoq davom eruvchi buladi, novokainga nisbatan (3-5 soatchaga) uning orgiksizlantirish kuchi 2-3 marta kuchli. YAlliglangan to'qimalarga uning ogriqsizlantirish effekti kuchlirok. Allergik reaksiyalarga kam chakiradi. Lidokainning zaxarliligi eritmaning konsentrasiyasiga boglik: 0,5% li eritmasining zaxarliligi novokaından fark kilmaydi, 1-2% li eritmasining zaxarliligi novokaından 1,4 – 1,5 marotaba kuchli.

Bupivakain (marqalin, karbostezin) - novokaından 6 marta kuchli, zaxarlilig 7 marotaba lidokainga nisbatan effektlirik. Anesteziya 4-10 minutdan sung boshlanadi, YUkori taxsir darajasi 15-35 minutdan sung boshlanadi. Ogriqsizlantirish vaqti 12-13 soat jagroxlik amaliyotda 0,25% li eritmasi qo'llaniladi, 0,5 - . 75% li eritmalarining maksimal dozasi 175 mg.

Artikain (ultrakain D-S, ultrakain D-S forte) – amid guruxli mahalliyaneqetik bulib, silindrik ampulalarda 1,7 ml, flakonlarda 20 ml li 4% eritmalar shaklida chikariladi. Lidokainga nisbatan kam zaxarli va 1 q marta novokaından zaxarliligi ortik.

Bu anestetik YUkori darajali oksil bilan boglangan va yoglarni kam eritadi.

Bu preparatlarning ogriqsizlantiruvchi effekti novokainga nisbatan 5 marotaba kuchli. SHuning uchun artikiainning bu xususiyati xomiladorlarga tanlab berishga asoslangan (xomilaga toksik ta'siri jixatdan).

Ultrakain D-S tarkibida 1:200000 adrenal saklaydi, ultrakain D-S forte esa 1:100000 nisbatan saklaydi. Adrenalin juda kam konsentrasiyada bulishi xomiladorlik va yurak-tomir kasalliklari bor bemorlarda salbiy ta'sirni kamaytirishga asoslangan. Ogriqsizlantirish ta'siri 1-3 minutdan keyin boshlanadi, davomiyligi 45-75 minut. qarshi kursatmalar: paroksizmal taxikardiya, taxiaritmiya, glaukoma. Salbiy tasirlari juda kam.

## MAHALLIYA ANESTEZIYALOVCHI PREPARATLARNING TA`SIR MEXANIZMI.

Tomirni kiskartiruvchi vositalar mahalliyaneqetiklar surilishini sekinlashtirib, toksik tasirni kamaytiradi. Bundan tashkari (ogriq sezmaslik) ogriqsizlantirishni uzaytiradi, anestetik miqdorini kamaytiradi.

Adrenalin – buyrak usti bezi garmoni, adrenalin gidroxlorid 0,1% li eritma shaklida chikadi. eritmani isitish mumkin emas. Adrenalin va q adrenoretseptorlariga tasir kursatadi. Korin bo`shlig`idagi organ tomirlarini, terini, shilliq qavatni toraytiradi, vagus markazini reflektor ravishda ko`zgatadi, arterial bosim yukori bulganligi sababli yurak faoliyatini sekinlashtiradi va aritmiyani keltirib chikaradi. Adrenalin bronx muskullarini kengaytiradi, yurak toj-tomirini kengaytiradi, konda kand miqdorini oshiradi. Adrenalin tomirni toraytirishi sababli mahalliya anestetiklar bilan birga qo`llaniladi. Bunga sabab anestetiklar tasir muddatini uzoq saklash va surilishni kamaytiradi. Adrenalinni eritmaga tuberkulin shprisi orqali qo`shiladi, 1 ml adrenalinni 100 ml anestetik eritmaga kuyiladi. 1: 100000 nisbatda adrenalindan tashkari mahalliyaneqetiklardan noradrenalin xam qo`llaniladi, 0,02% li eritmasi 1: 50000 nisbatda, felepresin xam ishlatish mumkin (gipofiz orqa bulganligining analog garmoni).

### OGRIQSIZLANTIRUVCHI ERITMALARNI SAQLASH

Novokain va trimikain eritmalarini 3 kunga saklashga ruxsat beriladi, 3 kundan ko`p saklansa ularni zararlantirish kerak. Ogriqsizlantirish uchun eritma kabul qilish paytida ampulalar spirt bilan ishlov beriladi. Flakonga kiritilgan igna steril salftetka bilan ushlanadi. eritmani ampuladan boshka igna bilan tortib, anestetiklar urnini almashtirish zarur bulsa, spirt bilan ishlov beriladi . Flakonga kiritilgan igna steril salftetka bilan boglanadi. Inektorga fiksasiya qilish paytida silindrik rezinalik qo`llaniladi.

Instrumentlarning sterilizatsiyasi. SHpris, igna, ogriqsizlantirish eritmalar idishi yaxshilab yuviladi, idishlarda kon tomchilari kolmaslik kerak, keyin ularni «Biolot» eritmasida saklanadi. (5g «Biolot» 1 mg suvda) yoki 3 % perikis vodorod eritmasi 0,5 sintetik eritmalar bilan («Progress», «Aqra», «Lotos», «TriasA»). Suv bilan yaxshilab yuvib, 45 minut davomida kaytatiladi (dis.suv). SHprislarni sovuk suvga solinadi, shishali qismini doka bilan urab olinadi. Ignani mandren bilan kaynatiladi. SHpris va igna sterilizatsiya kuruk issik sterilizatorida bajaradi.

Noineksion ogriqsizlantirish

Sovutish yo`li bilan ogriqsizlantirish – sovutish vaqtda to`qimalar nerv reseptorlarning ko`zgalishi pasayadi, muzlatilganda ogriq nerv impulslari utkazishi tuxtatiladi. Sovutish yo`li bilan ogriqsizlantirishda xloretil qo`llaniladi.

Xloretil – shisha ampulada 30 ml chikariladi. Xlor etil buglanganda temperaturasi pasayadi – 35S. To`qima muzlashiga olib keladi va ogriq sezgisi yo`koladi – 3 minut. Xloretil ampulasini operasion maydonidan 30 sm uzoqlikdan sepiladi, (suyuklik buglashini ulgurish uchun). Terida ok dog ko`planguncha yuboriladi aks xolda nekroz buladi. Xloretil narkotik maxsulot xisoblanadi bemorga xloretil buglari nafas yo`llariga kirmasligi tavsiya beriladi. yuzada joylashgan yiringlarda qo`llaniladi.

Applikasion anesteziya – ogiz shilliq qavatlarda qo`llaniladi. Bu anesteziyada 0,5 – 2 % dikain ishlatiladi. Katta tampon anestetikka shimdiriladi va shilliq qavatga surtiladi yoki 3 – 5 sekund to`qimalarda saklanadi. Dikain tasiri 1 – 3 minut. Keyin ruyobga chikadi, muddati 20 – 40 minut.

Aplikasion anesteziya 1-2 %. Piromekain eritmasi, 1-2 % lidokain yoki 5 % va uning 10 % aerezoli ishlatiladi. Aplikasion anesteziya qo`llaniladi – igna sukish joyini ogriqsizlantirish, ineksion anesteziya ogiz bushlikda kilganda, YUkori jag bushliklarni punksiya qilishda yoki operasiyasida ishlatiladi.

Ineksion ogriqsizlantirish

Infiltratsion anesteziya.

YUz va ogiz bo`shlig`ini yumshoq to`qimalari operasiyasi yoki jag tanasi 1-2% novokain, trimekain va lidokain utkazuvchi anesteziyada 1-2% shu eritmalar ishlatiladi. Anestetik temperaturasi odam temperaturasiga mos kelishi kerak. Anestetikning yuborish tezligi unchalik katta emas. Ineksiya bemor uchun tusatdan bulmasligi kerak. Infiltratsion anesteziya igna yumshoq to`qimalarida 1-2 mm. CHuqurliligiga kirgiziladi va 0,3-05 ml YUboriladi depo hosil qilinadi. Asta - sekin anestetik yuboriladi va operasion maydon kattalashtiriladi. Kerak bulgan vaqtda nafakat YUza, chuqur joylashgan to`qimalar ogriqsizlantiriladi. Igna asta – sekinlik bilan kirgizib anestetik yuboriladi. To`qimaning chuqur qavati ayrim paytda infiltrlanadi yuzada joylashgan hosilani ochgandan keyin utkazuvchan ogriqsizlantirganda anestetik operasion maydondagi to`qimaga emas undan oz masofada – nerv oldiga yuboriladi. Ogriqsizlantiruvchi eritma endonevral va perinevral yuboriladi. endonevral – anestetik nerv stvoliga yuboriladi.

Perinevral vaqtda - anestetik nerv oldiga yuboriladi bu vaqtda anestetikni sekinlik bilan nerv tolalar shimib oladi.

## Interligamentar anesteziya

Mahalliy anestetik tish periodontiga yuboriladi. Anestetik eritmasi katta bosim bilan yuborilganda suyakni govak va suyak iligi sohasiga, tish pulpasiga tarkaladi, bosim kamrok vaqtda – milk va suyak ustiga tarkaladi.

Inektorni kullaganda reduktor yordami bilan kuchli bosim paydo buladi va anestetik kancha kirishni nazorat kilsa buladi. Standart shprislardan «Rekord» tipidagi shprisni ishlatish xam mumkin va ignaning diametri 0,4 ml. Anestetik yuborishdan oldin milk va tish toshlardan tozalanadi. Igna milk chuntagiga 30q gradusli burchak ostida kirgiziladi. Ignaning ochik tomoni ildiz yuzasiga qaratiladi. Ignani 1-3 ml chuqurlikka kirgiziladi. Bir ildizli tishlarda 0,2 ml anestetik etarli, ko`p ildizli tishlarda 0,4-0,6 ml trimekain, lidokain, ksilokain, ultrakain va boshkalar. Anesteziya 15-45 sekunddan keyin boshlanadi 1-3 minut davom etadi. (agar adrenalin bolmasa, adrenalin bilan 30-45 minut davom etadi).

## Infiltratsion ogriqsizlantirish

Bevosita infiltratsion ogriqsizlantirish, - bevosita operasion maydon to`qimasiga anestetik kiritiladi va bevosita infiltratsion ogriqsizlantirish - anestetik yuza qavatga yuboriladi va chuqur diffuziyalanadi.

yuzning yumshoq to`qimalari, alveolyar o`siqlar va boshqa sohalarda operasion muolajalar otkazishda bevosita usuldan, tishlarni tortish va alveolyar o`siqda suyak operasiyalarida bilvosita usuldan foydalaniladi. Anestetik shilliq qavatt ostida depo hosil qiladi va shu erdan suyakning chuqur qavatlari, tish chigallarigacha boradi. Bir qancha olimlar mahalliy ogriqsizlantirishni bunday turini tish chigallarini ogriqsizlantirish deb ataydilar.

Bilvosita infiltratsion ogriqsizlantirishning samarasi yukori va pastki jag alveolyar o`siqlarida bir xil emas. Bu anatomik tuzilishiga boglik. YUkori jagning vestibulyar va tanglay tomondan kompakt plaqinkasi yupqa va kichik yoriklardan iborat. Bu yoriklardan limfa, qon tomirlar, nervlar utadi. Bu o`siqni hamma joylarni yoriqlar tashkil kilib, suyakning ilik qismida anestetik eritmalar yaxshi diffuzlanadi. O`sha uchun yukori jagni infiltratsion anesteziya qilishimizda tasiri yukori bo`ladi. Alveolyar o`siqning kompakt qismi qalin va qattiq bolgani uchun yoriqlarning miqdori kam. Kesuv, qoziq va kam xollarda kichik molyarlarda uchraydi. Kichik va katta ildizli tishlarda alveolyar qismi qalin buladi. SHuning uchun infiltratsion anesteziyavaqti effekt darajasi pastdir. Amaliyotda uni kesuv tishlarni tortishda, patologik kimirlaganida yoki karpulli anestetiklarda ishlatiladi.

Alveolyar o`siqning shilliq qavatning shilliq osti qavati yaxshi rivojlanmaganligi uchun suyak ustiga birikkan. Shuning uchun anestetikni shilliq osti qavatiga YUborish qiyin vastavatlanishi ogriqni paydo qiladi, chunki suyak ustidan kutariladi. Undan tashqari anestetikning kerakli mikdorini utkazib bulmaydi. Infiltratsion anesteziyada ogriqsizlantirish utuv burmasiga qilinadi.

Igna sustiladigan joyni 1 % yod eritmasi bilan ishlov beriladi. SHprisni ung kulimizdagi uchta barmoq yordami bilan ushlaymiz. 1 – barmoq porshenni orqa diqal qismiga etsin. Barmoqlar kanyuladan orqaroqda turishi kerak. Ignani shilliq qavat ostidagi utuv burmasiga 40q – 45q burchak ostiga yuboriladi. Ignaning uchki qismi suyakka karatilgan bulishi kerak. Keyin 1 – barmoq porshenga kuyiladi. SHpris shu vaqtda 2 – barmoq bilan ushlanadi. (II, III). 2 – 3 ml anestetik sekinlik bilan yuboriladi, chunki tez yuborganda to`qimalarning qavatlanishi, kichik kon tomirlar va nerv stvolchalarning zararlanishiga olib keladi. Buning natijasida ogriqlar paydo bulishi mumkin. Agar ignani chuqurrok kirgizish kerak bulsa yo`l – yo`lakay depo hosil qilinadi. Buning natijasida ogriq va kon – tomir travmalari kuzatilmaydi. Tanglay tomondan ignaning sukish joyi yukori jagning alveolyar va tanglay o`siqlarning hosil kilgan burchagiga qilinadi. 0,5 ml anestetik tanglay tomoniga yuboriladi.

Tish tomondagi esa anestetikni alveolyar usigining shilliq qavatidan til osti sohasigacha utkaziladi. Bunda til nervining periferik shoxlarning sezgirligi yo`kotiladi. Til tomondan alveolyar o`siqning shilliq qavati ogriqsizlanadi.

Infiltratsion ogriqsizlantirish tish va suyak xirurgik muolajalarga kullash uchun qilinadi, lekin eritmani suyak usti pardasi ostiga yuborish mumkin emas. Suyak usti pardasi kutarilganda ogriq nafakat anesteziya vaqtda balki, uning tasiri utgandan keyin xam ogriqlar buladi. Ogriqsizlantirish 7—10 mindan keyin boshlanadi. Muolajalar tish pulpasida bulsa anestetik suyak usti pardaosti anesteziyani kichik va yupka igna bilan qilinadi. Igna shilliq ostidagi uguv burmasi, tish uchki qismiga karab 0,5 ml anestetik yuboriladi. 1—2 min. dan keyin suyak uqi qavatini teshib 45 ° ostiga, ildizning chukki qismigacha depo hosil kilib 2 ml eritma yuboriladi. Anestetikni sekin uztganda ogriq seziladi.

Infiltratsion ogriqsizlantirish efekt bermaganda, alveolyar o`siqning shilliq qavatini va suyak ostini ogriqsizlantirish eritmasi bilan depo kilgan bulsak, bu qavatda tish ildizlari orasidan alveolyar o`siqning magiz qismiga suyak ichi anesteziyasi bajariladi.

SHuning uchun aplikasion yoki infiltratsion ogriqsizlantirishda tish orasidagi surgichlarning yumshoq to`qimalarni trepan yoki ingichka aylana bor bilan suyakchaga teshiladi. 40 — 60 ° gorizental holatda trepan

joylashadi. Kichik oborod bilan kompakt plaqinkasi trepanasiya qilinadi. 1—2 ml 2 % anestetikni tish ildizi orqali alveolyar o`siqning magiz qismigacha yuboriladi.

Tish pulpasiga va periodontga borayotgan nervlarning sezgisini yo`kotish chuqur ogriqsizlanishga olib keladi. Ogriqsizlantirishning davomiyligi 1 soatgacha. Bu operatsion muolajalarni utkazish, karioz bushlikni ishlov berishda trepanasiya va charxlashda, tish pulpasini olganda yaxshi effekt beradi. Suyak ichi ogriqsizlantirishlar poliklinika sharoitida bajariladi. Xozirgi zamonda bu usul kam ishlatiladi.

**Igna sanchib og`riqsizlantirish.** Igna sanchib og`riqsizlantirish (akupunktal analgeziya elektroanalgeziya) ma`lum nuqtaga mexanik qo`zg`aluvchanlik va elektr toki bilan ta`sir etib anesteziyaga erishiladi. Og`riqsizlantirishning bu usuli orperatsiyadan keyingi davrda og`riqni oldini olish va aralash anesteziya analgetik komponent sifatida qo`llaniladi. Ma`lumki, 693 ta nuqtadan 116 tasi stomatologik kasalliklarni davolash uchun qo`llaniladi.

1. Igna va terini 70% li spirt bilan ishlov berilganidan keyingina teri sathiga perpendikulyar sanchiladi. Ba`zida qo`shni nuqta tomonga yo`naladi (teri ostiga burchak ostida).

Terapevtik effektini oshirish uchun igna sanchilgandan keyin aylantirish lozim. Ta`sir etish usuli qimullash va tormozlanishga asoslangan. Odatda muolaja 20 daqiqadan oshmaydi. Igna sanchilgandan keyin har 5-10 daqiqida uni 1 marta aylantiriladi va zararlangan sohani uqalanadi.

### **Mahalliy og`riqsizlantirish.**

Mahalliy og`riqsizlantirishda bemor hushini saqlagan holda operatsion maydon to`qimalarini og`riqsizlantirish tushuniladi. Bunda nerv sistemasi periferik bo`limiga ta`sir etib, og`riq o`tkazishi xususiyati tormozlanadi. mahalliy og`riqsizlantirish bo`linadi: in`eksion (infiltratsion, o`tkazuvchi) va noin`eksion (kimyoviy, fizik, fizik-kimyoviy) turlarga bo`linadi. Noin`eksion mahalliy og`riqsizlantirish to`qimalarni yuzaki og`riqsizlantiradi. Buning uchun dorilardan (kimyoviy yoki aplikatsion metod), past temperaturada muzlatish, lazer nurlari, elektromagnit to`lqinlari (fizik metod) anestetikni to`qimaga elektroforez yordamida kiritish (fizik-kimyoviy usul) kiradi. In`eksion og`riqsizlantirishda anestetik eritmasini to`qimaga nina yoki yukori bosimga ega maxsus in`ektor (ignasiz usul) Bi-8 yordamida o`tkaziladi. Og`riqsizlantirish nfiltratsion va o`tkazuvchi usulda o`tkaziladi. Infiltratsion, aplikatsion va muzlatib og`riqsizlantirilganda, og`riq qabul qiluvchi periferik retseptorlarni o`tkazuvchi og`riqsizlantirganda operatsion maydondagi og`riq impul`slarni o`tkazuvchi asosiy o`zagini (asosiy yoki ko`pincha uning periferik tarmog`ini) tormozlaydi. Umumiy og`riqsizlantirishga ko`rsatmalar va qarshi ko`rsatmalar. Mahalliy og`riqsizlantirishda quyidagi ko`rsatmalar va qarshi ko`rsatmalarni ko`zda tutish kerak:

➤ Bemorlarda anestetiklarga sezuvchanligini ortishi

➤ Bemorning o`zining orperatsiyasida qatnashishidan bosh tortishi

2. Oson qo`zg`aluvchanlik, bemor psixoemostional turg`un emasligi.

3. Mahalliy anesteziya noeffektivligi yoki uning qo`llash qiyinligi.

4. Bemor psixik holati buzilganligi.

5. Bolalarda jarroxlik aralashuvi.

6. Stomatologik aralashuvni travmativligi.

Qolgan barcha holatlarda unga qarshi ko`rsatmalar yo`q. Bundan tashqari, mahalliy anesteziya travmatik va uzoq davom etuvchi orperatsiyalarda ham qo`llanilmaydi.

### **Mahalliy noin`eksion og`riqsizlantirish.**

Noin`eksion usullarga shilliq qavatni turli kimyoviy moddalar bilan applikaqiya va surtmalar quyish, xloretil bilan muzlatish usullari kiradi. Birinchi bo`lib aplikatsion usul 1879 y. V.K.Anrep qo`llagan. U og`iz bo`shlig`i shilliq qavatda kokain og`riqsizlantiruvchi ta`sir ko`rsatishini isbotlagan. Hozirgi kunda anesteziya uchun bir necha moddalar birgalikda qo`llaniladi, chunki bunda doimiyrost va chuqurroq effektga erishiladi. Bo`lar quyidagilar:

1. Dikain 1 gr q anestezin 1 gr q etil spirti 85% 10 gr q narkoz uchun efir 10 ml.

2. I.A.Borman birikmasi (1950) – dikain 0,5 gr; 30% etil spirti 10 g.

3. P.K.Guzenko birikmasi anestezin 2 gr q shaftoli moyi 8 gr.

4. Piromikain mazi.

5. 10% lidokain aerezoli.

Kattalarda dikain eritmasini qo'llash 3% bo'lishi, bolalarda 2% dan oshmasligi kerak. Kokain eritmasi 3-5% konsentratsiyada yukori bo'lishi kerak. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati aplikatsion anesteziya uchun zamonaviy anestetiklar qo'llash mumkin: aneqitebs, aneqogel (Voco, Germaniya), topigel (Triger, AQSH), ksilogel', ksilonorgel', ksilonorsprey va b. Ularning ko'pchiligi bakteriozid va xushbo'y ta'm xususiyatiga ega. Jarohatlanmagan teri orqali o'zida lidokain va prilokain aralashmasini tutgan krem va nakleyka ko'rinishida ishlab chiqarilgan EMLA yuza anestetikdan bolalarda va kattalarda o'tkaziladigan orperatsiya yoki in'ektsiyadan oldin foydalanilsa, effektiv og'riqsizlantirishni ta'minlaydi.

Applikatsion og'riqsizlantirishni qo'llashga ko'rsatmalar:

1. Nevrostenik odamlarda va bolalarda burun bo'shlig'i yoki og'iz shilliq pardasi og'riqsizlantiruvchi vositalarni qo'llashni o'ziga xosligi
2. SHilliq qavat yuza joylashgan yangi hosilani olib tashlash
3. Qimirlab turgan tishlarni (parodontoz) olishda
4. Bolalarda sut tishlarni olish
5. Jag' sinishida shinirlashdan oldin
6. SHilliq qavatdan biopsiya olishda
7. Aql tishi chiqishi qiyinlashganda kapyushonni olishda.
8. SHilliq qavat ta'sirchanligini kamaytirish uchun

Xloretil bilan muzlatishga ko'rsatma bo'lib, yuza joylashgan abstsesslarni ochish hisoblanadi. Bunda xirurg xloretil bilan muzlatishni davomiyligi juda qisqa (20-40 sek) davom etishini nazarda tutishi lozim.

#### **Mahalliy in'ektsion og'riqsizlantirish. Og'riqsizlantiruvchi moddalar.**

Jarroxlik stomatologiyasida novokainning 0,25-0,5-1-2% konsentratsiyali eritmalari qo'llaniladi. Ambulator sharoitda 1-2% li, statsionar sharoitda 0,25-0,5% eritmadan foydalaniladi. Novokain ta'sirini kuchaytirish uchun adrenal gidroxlorid eritmasi qo'shiladi (1-1000. 5-10 ml novokainga 1 tomchi adrenalin).

G'arbiy Evropada stomatologik amaliyotda novokain kam effektivligi va ko'p allergik holatlar keltirib chiqarganligi uchun ambo'lator sharoitda qo'llash ta'qiqlangan. O'rniga lidokain, merivokain, artikain va boshqalar qo'llaniladi. Germaniyada 65%-90% stomatologik bemorlarda ul'trakain, artikain qo'llaniladi. (R.Rahn, 1996; A.I.SHuchaylov 1996 y.) Sobiq SSSR mamlakatlarida trimekain (mezokain) preparati qo'llaniladi. Trimekain bilan anesteziya qilinganda novokainga nisbatan 2-3 baravar tez ta'sir qiladi va uzoq davom etadi.

Stomatologiyada novokain, trimekain bilan bir qatorda lidokain, kartikain va boshqa yangi anestetik vositalar (ul'trakain-forde, septoneq va boshqalar) qo'llaniladi. T.YU. Qalyarenko (1997) ta'kidlagandek bir yoki bir necha tishlarni olishda ul'trakain (artikain), lidokain bilan solishtirganda uning toksik xususiyati past hamda uning 4% eritmasi bolalarda, xomilador va qariyalarda ham qo'llash mumkin. Allergik anamnezga ega bo'lgan bemorlarga rezerv anestetik bo'lib ul'trakain hisoblanadi. Allergiya 0,00000012% xollarda yuzaga keladi. Birost shuni yodda tutish kerakki, ul'trakainni (paroksizmal taxikardiya, taxiaritmiyada) qo'llash xavfli hisoblanadi.

**Mahalliy nfiltratsion og'riqsizlantirish.** Reclus (1889) tomonidan mahalliy nfiltratsion og'riqsizlantirishni birinchi marotaba qo'llagan va Scheleich (1891) kokain eritmasini konsentratsiyasi 0,5-0,1% ishlatishni tavsiya qilgan. V.A.Orlov 2 yil oldin (1887) bu anesteziya qo'llashni isbot qilgan. YU.J.S.da nfiltratsion og'riqsizlantirishni o'tkazish boshqa soxalarda o'tkazish bilan farq qilmaydi. YUJS da juda ko'p mayda va yirik qon tomirlar borligini yodda tutish kerak va usullarini inobatga olgan xolda ignani xarakatlantirayotganda bir vaqtni o'zida novokain eritmasini ham yuborish kerak. infiltratsion anesteziyaga ko'rsatmalar bo'lib, og'iz bo'shlig'idagi yumshoq to'qimasini til, so'lak bezi, lab, lunj, engak osti, bo'yin soxasidagi orperatsiyalar hisoblanadi.

Infil'ratsion anesteziya kamchiliklari:

1. To'qimalarni eritma bilan infil'ratsiyasida to'qima shakli o'zgaradi. Bu esa nozik orperatsiya o'tkazishga halal beradi.
2. YAllig'langan to'qimani nfiltratsion anesteziyasi yaxshi natija bermaydi.
3. YUborilgan infil'trat atrof to'qimalarni bir-biridan ajratishi hisobiga jarroxga preparovka qilishga qulaylik tug'diradi



A.V.Vishnevskiy tomonidan taklif etilgan to`qimalarni 0,25% li novokain eritmasi bilan zich infil'tratsiya usulini taklif etgan. U o`z ichiga nfiltratsion va o`tkazuvchi anesteziyaning afzalligi birlashtiradi.

1. Bu usul mahalliy nerv oxirlari va nerv ustunlariga tez ta`sir etadi.

2. Qavatma-qavat anesteziya hech qanday aniq anatomik mo`ljallarni hisobga olishni talab etmaydi.

Ignasiz usulda nfiltratsion anesteziya: bu usul mamlakatda 1977 y. Maxsus in`ektor (BI-8) keng qo`llanilgan. Ayniqsa, bolalar stomatologiyasida keng qo`llanilgan. O.F. Konobevqev (1979) mahalliy anestetik, qaysiki ignasiz in`ektor orqali yuborilganda u shilliq qavat orqali suyak usti pardasigacha infil'trlanib, kinetik energiya suyak kanalchasi orqali kirib boradi – nerv va tomirlar kiradigan joyida

Ko`rsatmalar:

1. Pastki jag' tishlarini olish
2. TSistotomiya, tsistoektomiya, ildiz uchi rezektsiyasi, yaralarni birlamchi xirurgik ishlov berish.
3. Alveolitlarni davolash.

Asoratlari (B.A. Azrelyan):

1. Gematomalar hosil bo`lishi (0,7%)
2. SHilliq qavat yirtilib jarohatlanishi (0,4%)

### Savollar:

Mahalliy noin`eksion og`riqsizlantirish.

Infil`ratsion anesteziya kamchiliklari

Applikatsion og`riqsizlantirishni qo`llashga ko`rsatmalar

Infiltratsion anesteziyaga ko`rsatmalar

### Interaktiv metod: «Kor parchasi» printsipi asosida taxsil berish uslubi

Bu uslubda talabalar 2,4, 8 kishidan iborat guruxga bulinib, muloxaza yuritishadi. Bu uslubning yaxshi tomoni shundaki ,kam kuch sarflab, gurux orasidagi tavofutni tekislash.Ukituvchi talabalarga muammoni muqakil xal kilishni taklif kiladi. Mayda guruxlar uzaro muxokamadan keyin, ya`ni 4 guruxga bulingan bulsa, muxokamadan sung guruxlar 2 guruxga birlashib, yana muxokama kilib bir butun guruxga kushilib boradi. Natijada yaxshi aloxida muxokama kilingan umumiy fikr xosil kilinadi. Bu uslubda xar bir talaba ishlash davomida uz fikrini berishga xarakat kiladi.

Uslubning moxiyati jixatidan uqunlik tomonlari:

- Xar bir talaba uzi masalani xal kiladi
- Muloxaza davrida xar bir kichik gurux uz javobini asoslashga xarakat kiladi
- Masala bir necha guruxda xal kilinayotganidan bir necha marta takrorlanadi, xamda eslash va bilimini muqaxkamlashga olib keladi.

### Akvarium uslubi

Bunda guruxdan 3 kishi tanlanib urtaga kuyiladi, ular «balik» bulsa kolgan talabalar kuzatuvchilar buladi. Bu xolat «nima, kaerda, kachonq» teleuyiniga uxshab ketadi. Urtadagi talabalar bir bir minut ichida javob topolmasa, ularning urniga boshka uchlik utiradi.

- Mavzu urtada muxokama kilinadi
- Mavzuni ochib beradi
- Talabalar bilimini ochib beradi
- Diskussiya kilish bilimini oshiradi
- Uyin usulida utkaziladi
- Xar bir talaba ishtirok etadi

Ball	Baxo	Talabaning bilim darajasini aniklash.
**Klinik ko'rinishi.** Granulematoz periodontitning kechishi turli xil bo'ladi. Kam hollarda granulema uzoq vaqt kattalashmaydi yoki juda sekin o'sadi. Bunda bemorlar ko'pincha shikoyat qilishmaydi. Faqat tasodifan rentgen tekshiruvda granulematoz o'choq borligi aniqlanadi. Granulemalar va surunkali granulyatsiyalovchi periodontit o'choqlari ildiz uchi sohasida emas balki biroz yonroqda joylashadi. Ildiz uchi chegarasidagi alveolyar o'sikda suyak to'qimasining qaytadan ko'rilishi va ossifitsirolovchi periostit belgilari natijasida uncha katta bo'lmagan noaniq chegarali og'riqsiz shish ko'rishimiz mumkin. Ayrim bemorlarda granulema asta-sekinlik bilan kattalashib boradi. Bu odatda yiringli jarayonni kuchayishi va granulemdagi o'zgarishlar bilan ya'ni: giperemiya, shish, abstsesslashish neytrofil leykotsitlar soning oshishi bilan bog'liq. Surunkali jarayonni o'tkirlashish paytida granulema kapsulasining butunligi buziladi, o'rab turuvchi to'qimalarda reaktiv yallig'lanish va distrofik jarayonlar yuzaga kelib, tish alveolasi devorini emirishi bilan kechadi. Klinik tomondan bu o'zgarishlar turli xil kechadi. Ayrim xollarda o'ta sezgirlik ba'zan esa perkussiya va tishlaganda og'riq yuzaga keladi, ba'zida esa o'tkir periodontit belgilari yuzaga keladi. Keyinchalik yallig'lanish jarayoning kamayishi natijasida kattalashgan ildiz uchi yallig'lanish o'chog'ida yana qaytadan kapsula hosil bo'ladi.

**Tashxislash.** Ko'pincha tashxisni rentgen ma'lumotlarga asoslanib qo'yiladi. Granulematoz periodontitning rentgen suratida ildiz uchi atrofida yumaloq shakldagi chegaralari tekis aniq bo'lgan suyak to'qimasi emirilgan o'choq ko'rinadi. Sust kechuvchi granulematoz periodontitda ildiz uchidagi zararlangan o'choq sklerozlangan suyak zonasi bilan o'ralgan. Agar davvo to'g'ri o'tkazilsa, granulematoz o'choq destruktiviyasi kuzatiladi va o'rnida fibroz periodontit yoki sklerozlangan suyak to'qimali sohaga o'xshash bo'lgan belgilar yuzaga keladi.

**Fibroz periodonotit. Klinik ko'rinishi.** Odatda fibroz periodontitda bemorlar shikoyat qilishmaydi. Chaynashda yoki perkussiyada tish sezgisi va og'rik sezgisi bilinmaydi. Og'iz bo'shlig'ida pulpasi nekrozga uchragan tishni ko'rish mumkin. Faqat ayrim hollarda jarayonni qaytalanishida chaynash paytida og'rik paydo bo'lishi mumkin. Tishni tekshirishda va vertikal o'ki perkussiya qilinganda ozgina og'riqli bo'lishi mumkin.

**Surunkali periodontit** – bu periodontidagi surunkali yallig'lanish bo'lib, o'tkir jarayonni surunkali jarayonga o'tishidan keyin yoki qisman o'tkir faza fonida shakllangan jarayon hisoblanadi.

Surunkali periodontit o'tkir periodontitga nisbatan ko'prok uchraydi. Uning granulyatsiyalovchi, granulematoz va fibroz shakllari farqlanadi.

Granulematoz periodontitda to'g'ri davvo o'tkazilganda o'choqda fibroz periodontitga xos bo'lgan o'zgarishlar kuzatiladi yoki suyak to'qimasida sklerozga uchragan o'choqlar hosil bo'ladi. Fibroz periodontit davolovchi muolajalar ta'sirida ba'zida o'z-o'zidan granulyatsion chandiqli to'qimaga aylanishi mumkin.

Surunkali periodontitni davolash tish olish, tish replantatsisi va ildiz uchi rezektiviyasi bilan olib boriladi. Granulyatsiyalovchi va granulematoz periodontitlarda tish olingandan keyin lunkani yaxshilab granulyatsion to'qima va granulemalardan tozalab tashlash kerak. Milkda oqma yo'l bo'lsa uni reviziya qilib atrofni granulyatsion to'qimadan tozalash kerak. Alohida hollarda butunlay oqma yo'l olib tashlanib 2-3 ta ketgutdan chok ko'yib tikib qo'yiladi. Surunkali shilliq osti, suyak usti pardasi osti, teri osti granulemasi bilan kechadigan granulyatsiyalovchi periodontitda tish olingandan keyin shilliq osti qavat, suyak usti pardasi ostidagi, teri osti kletchatkasidagi va teridagi granulematoz o'smalar yaxshilab kirib tashlanadi. Tish gemisektsiyasi tish tojini bo'lagini olish bilan o'tkaziladi. Operatsiyani yuqori yoki pastki jag' 1, 2, molyarlarida ildizlarining birida patologik destruktiv o'choq bo'lsa o'tkaziladi. Agar ildizlararo to'siq rezorbtsiyaga uchragan, ildizlardan birida perforatsiya, suyak osti chuqur cho'ntaklari va ildiz uchida gipertsementoz bo'lsa gemisektsiya o'tkazilmaydi. [Shargorodskiy A. G., 1985]. Gemisektsiyada konservativ davvo va ildizi saqlangan tishlarni kanallari, tish bo'shligi bor va disklar yordamida plombalanadi. Bu albatta muzlatish ostida bo'ladi. Tish toj qismi bifurkatsiya sohasigacha ehtiyotkorlik bilan ajratiladi va o'sha bo'lak ildizi bilan olib tashlanadi. Lyuksatsion harakatlar engil bo'lishi kerak; rotatsion harakatlar samaraliroq hisoblanadi. Agar tish ildizi elevatorida olinadigan bo'lsa tayanch nuqtani to'g'ri tanlash lozim. Elevatorni saqlab qolinuvchi tishlararo to'siqqa tayantirmaslik kerak. Tish bo'lagini ildiz qismi bilan olib tashlangach shilliq qavat mobilizatsiya qilinadi va jarohat ustki tomondan tikib qo'yiladi. (rasm. 8.7, a). Olib tashlangan ildiz katagini gidrosilapatit va kollagen asosli biomaterial bilan to'ldirish yaxshi natija beradi. Alohida hollarda davolashga loyiq bo'lmagan tish ildizlari qiyinchilik tug'diradi bunda shilliq-suyak usti pardasi laxtagi olinadi va ginivotomiya operatsiyasi o'tkazish lozim bo'ladi. Agar patologik o'choq ildizlar ikkiga ajralgan sohada, ayniqsa perforatsiya sohasida

joylashgan bo'lsa tish toj qismi va ildiz separatsiyasi shu soha chegarasida qilinishi kerak (ko'pincha yuqori molyarlarning luj ildizlari yoki pastki molyarlarning medial va distal ildizlari orasida). Olingan tish katagiga va tish bo'yni suyagi yuzasiga biomaterial qo'yiladi va ustidan tikib ko'yiladi. Ildiz amputatsiyasi ham gemisektsiya kabi ko'rsatmalarga asoslanib o'tkaziladi. Qoidasi bo'yicha molyarlarning bir ildizi olib tashlanadi ko'pincha yuqori jag'da. Yuqori jag' alveolyar o'sig'i ikkala yoki vestibulyar tomonidan bulajak osteotomiya soxasini yopishi uchun burchaksimon yoki trapetsiyasimon laxtak ajratiladi. Fissur bor yordamida ildiz ajratiladi va ombur yordamida faqat rotatsion harakat bilan uni olib tashlanadi. Ildiz ajratishda va boshqa manipulyatsiyalarda muzlatishdan foydalaniladi. Alohida hollarda ildiz bo'lagi olinayotganda alveola oldingi devorini pastki bo'lagidan bir qismini olishga to'g'ri keladi. Bo'sh alveolani iloji boricha biomateriallar-gidroksiapatit, gidroksiapol, kolapol, kolapan va boshqalar bilan to'ldirish kerak. Shilliq-suyak usti pardali laxtak ustiga yopilib, ketgutli yoki poliamidli chok bilan tikib qo'yiladi.(rasm. 8.7, b). Gemisektsiya va amputatsiyadan keyin kolgan tish ildizi (ildizlar) yana ko'p yillar o'z funksiyasini bajarishi mumkin [Poltavskiy V.P., 1984]. A.G. Shargorodskiy (1985) va E.V. Borovskiy (1996) olimlar bu usullarni tasdiqlanmagan kam qo'llaniladigan operatsiyalar deb hisoblashadi.

**Tish replantatsiyasi** – olingan tishni katagiga qaytib o'rnatish hisoblanadi. Operatsiya davolash samarasi bo'lmaganda, konservativ terapiya yordam bermaganda tishni saqlash kerak bo'lganda o'tkaziladi. Bu usul tishni olish, patologik to'qimalarni alveola devori va tish ildiz yuzasidan kirib olib tashlash bilan olib boriladi. Kanal plombalangandan va ildiz uchi rezektsiyasi o'tkazilgandan keyin tish lunkasiga qo'yiladi va fiksatsiyalanadi. Replantatsiya asosan ko'p ildizli tishlarda o'tkaziladi. Tish alveola to'qimasi va atrof yumshoq to'qimalarga zarar etkazmagan holda olinadi. Asta-sekinlik bilan alveola yon devoridagi periodont tolalarini va aylana bog'lamni saqlagan holda granulyatsiyalar va granulemalardan kyuretaj usuli bilan tozalanadi. Jarohatni antibiotik, furatsilin qo'shilgan natriy xloridning ilik izotonik eritmasi bilan yuviladi va toza steril doka bilan zich qilib tamponada qilinadi. Olingan tishni vaqtincha 1 tb antibiotik yoki nitrofurantoin preparatlari qo'shilgan iliq (36,6° S) natriy xloridning izotonik eritmasiga solib qo'yiladi. Tish bo'shlig'i va kanallari tsement yoki tez qotuvchi plastmassa bilan to'ldiriladi va ildiz uchlari charxlab tashlanadi. Suyak xam tozalab bo'lingach tishni alveolasiga joylashtiriladi va simli shina, tez qotuvchi plastmassadan yasalgan ximoyalovchi plastinka, kappa apparati yordamida 2-3 haftaga fiksatsiya qilinadi. E'tiborni tish tinch holda turgandagina jonlanishi mumkinligiga qaratish kerak. Tish prikusdan ajralgan bo'lishi kerak shuning uchun replantatsiya qilingan tishni yoki ontogonistining do'mboqlari charxlab tashlanadi. Operatsiyadan keyingi davrda analgin, amidopirin, metindol va boshqa preparatlar, dieta va og'iz bo'shlig'ini gigienasiga ayniqsa ushlab turuvchi shinalar qo'yilgan paytda katta e'tibor berish tavsiya etiladi.

**Autotransplantatsiyani** xuddi tish replantatsiya kabi o'tkaziladi. Biroq autotransplantatsiya stomatologiya amaliyotida qo'llanishga ega bo'la olmadi.

**Tish allotransplantatsiyasi** bir kishidan ikkinchi kishiga tishni ko'chirib o'tkazish operatsiyasini o'zida aks ettiradi. G. E. Dranovskiy (1978) va M.M. Maksudov (1980), bolalarda tish murtaklarini allotransplantatsiyasini o'tkazib eksperimental va klinik kuzatuvlar asosida bu tishlarning jonlanishi, rivojlanishi va o'sib chiqishini aniqladilar. H.I. Xamitova, (1991), ma'lumoti bo'yicha vital transplantatsiya 90 % hollarda [Xasanov P.A., 1996] musbat natija berdi. Muallif tishni murdadan ya'ni o'lgandan keyin dastlabki 4 soat ichida va sog'lom donorlardan esa «Bukom» aralashmasida konservatsiya qilingandan keyin qo'llashni tavsiya qiladi. Tishni tanlash muhim rol o'ynaydi. O'tkazilgandan keyin uning to'g'ri konservatsiyasi va tushib ketishini oldini olish muhim ahamiyatga ega. Operatsiya metodikasi replantatsiya va autotransplantatsiya bilan bir xil o'tkaziladi. Tish implantatsiyasi allotransplantatsiya yoki eksplantatsiyaga kiradi. Tish olish paytida tish tezkor implantatsiya nomini oladi. Operatsiya jadal tusda va hozirgi vaqtda keng qo'llanilmoqda, vaholanki umum tan olingan implantatsiya tish olingandan 4-6 oy o'tgach qo'llaniladi. [Surov O.H., 1993; Mirgazizov M.Z., 1994; Misch K., 1993; Block M., 1993]. Eksperimental [Parr G. et al., 1994] va morfologik [Barzilay J. et al., 1990; Nail G. et al., 1990] tekshirishlar va klinik kuzatishlar [Nisnik G., 1982; Virna K., 1991, 1992, va bosh.] tish olingandan keyin bajarilgan tezkor implantatsiya samaradorligi yuqoriligidan dalolat beradi. Tezkor implantatsiya ma'lum bir xususiyatga ega bo'lib, tish olingandan keyin yuzaga keladigan alveolani qisqarishiga va suyak rezorbtsiyasiga sabab buladi. [Robustova T.G., Fedorov I.A., 1997; Block M., Kent J., 1991]. Tezkor implantatsiya tish travmasida – tish chiqishlarida va uni to'g'rilash imkoni bo'lmaganda, ildizning o'rta va yuqori qismlari singanda, surunkali periodontitda toj qismi sezilarli darajada emirilganda va ildiz yumshaganda, tishni konservativ davolash effekti bulmaganda, parodontitni II-III darajasida vertikal yunalishda suyak rezorbtsiyasi kuzatilganda kursatma buladi. Implantatsiyani suyak o'sishi to'xtagandan keyin o'tkazish kerak ayniqsa 18—20 yoshli patsientlarda [Oesterl L. et al., 1993].

Tezkor implantatsiyani o'tkir va surunkali periodontit xurujlarida, parodont o'tkir yallig'lanishlarida, suyakning sezilarli destruktiv o'zgarishlarida, shuningdek og'iz bo'shlig'i sonatsiya qilinmaganda o'tkazish uchun ko'rsatma bo'lib hisoblanmaydi.

**Ildiz uchi rezektsiyasi.** Bu operatsiyani o'tkazish periodontdagi surunkali yallig'lanish jarayonini konservativ yo'l bilan davolash samara bermaganda shuningdek keyinchalik periodontitni davolashda to'sqinlik qiluvchi tish kanalida yo'qolib qolgan yot modda bilan yopilib qolganda (bor boshchasi, pulpaekstraktor bo'lagi va boshq.) ko'rsatma bo'lib xisoblanadi. Bu yana qotuvchi plomba xom ashyolari (tsement) bilan ildiz oxirigacha plombalanmaganda, qo'shni tishning uchiga tarqalayotgan surunkali osteomieliit natijasida operativ aralashuvda ildiz uchini perforatsiyasida ko'rsatma bo'ladi. Ildiz uchi rezektsiyasi asosan kurak va qoziq tishlarda hamda pastki jag` kichik oziq tishlarida kam hollarda yuqori jag` tishlarida o'tkaziladi.

Bu operatsiyani o'tkir va surunkali periodontit xuruji paytida, parodont kasalliklarida tish ma'lum qimirlash darajasida bo'lganda, shuningdek tish toji emirilganda o'tkazish ko'rsatma bo'lib xisoblanmaydi.

**Tish gemisektsiyasi** tish toji qismini rezektsiya qilish bilan ta'riflanadi. Operatsiyani yuqori va pastki jag` birinchi, ikkinchi katta oziq tishlari ildizlarining birida patologik destruktiv uchoq bo'lganda o'tkaziladi. Gemisektsiyani o'tkazish ko'rsatma bo'lib xisoblanmaydi agarda ildizlararo to'siqda rezorbtsiya kuzatilsa, ildizlarning birida perforatsiya hamda, chuqur suyak ichi cho'ntagi bo'lsa, shuningdek ildiz uchida gipertsementoz kuzatilsa. [Shargorodskiy A.G., 1985]. Gemisektsiyada qolgan ildizlarda konservativ davo ishlari va ildiz kanali hamda tish bo'shlig'ini plombalash aynan muzlatgan holda va bor, disklar yordamida o'tkaziladi. Ehtiyotkorlik bilan tish toji bifurkatsiyasigacha ajratiladi, so'ng tish qismi ildizi bilan olib tashlanadi. Lyuksatsion xarakterli engil bulishi kerak; yaxshisi rotatsion xarakterli qilish kerak. Agarda ildizni olishda elevator ishlatilsa, unda tayanch nuqtani to'g'ri aniqlash kerak. Elevatorni saqlanib qolishi lozim bulgan tishlararo tusiqa tayantirmaslik kerak. Tish qismi ildizi bilan olingach jaroxat tozalash o'tkaziladi, shiliq qavat mobilizatsiya qilinadi va jaroxat qirg'oqlarini birlashtirib tikiladi (rasm. 8.7, a). Olingan tish ildizi alveolasini gidroksiapatit va kollagen asosidagi biomaterial bilan to'ldirish yaxshi samara beradi. Agarda ayrim hollarda davolashga loyiq bo'lmagan tish ildizini olish qiyinchilik tug'dirsa, shilliq-suyak usti pardasi laxtagi olinadi va gingivotomiya o'tkaziladi. Agar patologik o'chok ildizlar ajralgan joyda joylashsa, ayniqsa shu soxada perforatsiya bo'lsa, tish toji va ildizi separatsiyasi shu soha chegarasida o'tkazish lozim (ko'pincha yuqori molyarlar lunj ildizlari yoki pastki molyarlarning medial va distal ildizlari soxasida). Olingan tish alveolasiga va suyak yuzasi, tish buyin soxasiga biomaterial qo'yiladi va jarohat qirg'oqlarini birlashtirib tikiladi.

**Ildiz amputatsiyasi** xuddi gemisektsiyaga bo'lgan ko'rsatmalar asosida bajariladi. Qoidasi bo'yicha ko'pincha yuqori jag`da molyarlarning ildizlaridan biri olinadi. Operatsiya quyidagicha o'tkaziladi: yuqori jag` alveolyar o'sig'ining bir tarafidan yoki pastki jag` alveolyar o'sig'ining faqat vestibulyar sohasidan shunday hisobda laxtak olinadiki, bo'lajak osteotomiya sohasini butunlay berkitib turuvchi burchaksimon yoki trapetsiyasimon shaklli shilliq-suyakusti laxtagi olinadi. Fissur bor yordamida ildiz ajratiladi va ombur bilan faqat rotatsion xarakterli orqali uni olinadi. Ildiz ajratilayotganda va suyakda bajariladigan muolajalarda muzlatishdan foydalaniladi. Ayrim hollarda ildizning bir qismi olinayotgan paytda alveola oldingi devorining pastki qismini olib tashlashga tug'ri keladi. Bo'sh alveolani iloji boricha gidroksiapatit, gidroksiapolom, kolapolom, kolapanom va boshq. biomateriallar bilan to'ldirish kerak. Shilliq-suyak usti pardasi laxtagi joyiga qo'yiladi va ketgutli yoki poliamidli choklar bilan fiksatsiya qilinadi. (rasm. 8.7, b). Gemisektsiya va amputatsiyadan keyin qolgan ildiz (yoki ildizlar) ko'p yillar davomida o'z vazifasini bajarishi mumkin. [Poltavskiy V.P., 1984]. A.G. Shargorodskiy (1985) va E.V. Borovskiy (1996) shunday hisoblashadiki

**Tashxisni rentgen natijalariga qarab qo'yiladi. Rentgenogrammada periodont chizig'i kengayganligi aniqlanadi, ayniqsa tish ildizi uchi atrofida.**

**Mashg'ulotda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar:**

**«Qora quticha», «o'rgimchak ini»**

**«QORA QUTICHA» USULINI QO'LLASH**

Ushbu usul mashg'ulot davomida hamkorlikda ishlash va har bir talabning faol qatnashishini ko'zda tutadi, o'qituvchi butun guruh bilan ishlaydi.

Har bir talaba qora qutichadan nomalum preparatning qisqa annotatsiyasi yozilgan kartochkani oladi. Talabalar o'z javoblarini asoslagan xolda ushbu preparatni aniqlashi kerak.

Talabaga javob berish uchun 3 daqiqa beriladi. So'ngra javoblar muhokama qilinadi, preparatning farmakodinamika va farmakokinetikasi to'ldiriladi. Usulning ohirida o'qituvchi berilgan javoblarni muhokama qiladi va talabalarning faolligini aniqlaydi.

Ushbu usul talaba nutqi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va talabada mustaqil fikrlash, muloxaza yuritishni shakllantiradi.

**«O'RGIMCHAK INI» USULINI QO'LLASH**

**Qadamlar:**

1. Talabalarga o'tgan darslardan savollar tayyorlash uchun vaqt beriladi.
2. Ishtirokchilar doira bo'lib o'tirishadi.
3. Ishtirokchilarning biriga ip bilan bog'langan ko'ptokcha beriladi, u xoxlagan talabaga o'zi oldindan tayyorlagan savolni ( javobni o'zi bilishi shart) berib, ko'ptokchani topshiradi.
4. Ko'ptokchani olgan talaba savolga javob beradi (savol bergan ishtirokchi javobni sharxlab turadi) va savolni boshqa ishtirokchiga beradi. Bu musobaka hamma ishtirokchilar "o'rgimchak ini"ga o'ralguncha davom etadi.
5. Hamma talabalar savol berib bo'lgach, ohirga talaba qo'lidagi ko'ptokchani birinchi savol bergan ishtirokchiga qaytaradi va unga savol beradi va x.k., bu xol chigal echilgunga qadar davom etadi.

Eslatma: talabalardan xar bir javobga e'tiborli bo'lish talab qilinadi, chunki oldindan qaysi talabaga ko'ptokcha berilishi noma'lum

#### **Nazorat savollari.**

1. Surunkali periodontit turlari.
2. Surunkali fibroz periodontit klinikasi.
3. Surunkali granulyatsiyalovchi periodontit klinikasi.
4. Surunkali granulematoz periodontit klinikasi.
5. Periodontitlarni xirurgik davolash usullari.
6. Replantatsiyasi operatsiyasini o'tkazish usuli.
7. Autotransplantatsiyasi operatsiyasini o'tkazish usuli.
8. Implpntatsiya operatsiyasini o'tkazish usuli.
9. Ildiz gemisektsiyasi operatsiyasini o'tkazish usuli.
10. Ildiz amputatsiyasi operatsiyasini o'tkazish usuli.
11. Ildiz uchi rezektsiyasi operatsiyasini o'tkazish usuli.

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

-asosiy

1. Robustova T.G. «Xirurgicheskaya stomatologiya» Moskva , 2003.
2. Azimov M.I. Jarroxlik stomatologiya propedevtikasi / «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent – 2009. 247 b.

-qo'shimcha

1. Bernadskiy Yu.Yu. "Osnovi xirurgicheskoy stomatologii" Kiev, 1984.
2. Dunaevskiy V.A. xirurgicheskaya stomatologiya " Leningrad, 1981
3. Evdokimov A.I. , Vasilev G.A. "Xirurgicheskaya stomatologiya ".,Moskva, 1964.
4. Zausaev V.I. «xirurgicheskaya stomatologiya» Moskva, 1980.
5. Shargorodskiy A.G. "Vospalitelnie zabolevaniya chelyustno-litsevoy oblasti i shei".

### **12. Og'iz bo'shlig'ini protezlashga tayyorlash.**

#### **DARS XRONOKARTASI**

#### **Amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi.**

<b>Ish bosqichlari va vaqti.</b> 2soat:80daqqa	Ta`lim beruvchi	Ta`lim oluvchilar
<b>Tayyorlov bosqichi</b> (5 daqiqa)	1.Auditoriya tozaligini nazorat kiladi. 2.Talabalarni mashg'ulotga tayyorgarligini tekshiradi. 3.Davomatni nazorat Qiladi. 4. Adabiyotlar bilan tanishtirih	Tinglashadi
<b>O`quv mashg'ulotiga kirish bosqichi</b> (5 daqiqa)	1.Mavzuga oid bo'lgan boshlangich bilimla darajasini aniqlash 2.Interfaol usulni moxiyatini tushintirish 3.Interfaol usulda mavzu taxlili.	Qatnashadi, tinglashadi va javob berishadi

<b>Asosiy qism</b> 30 daqiqa	1. Taqdimotdan foydalanib mavzuni talabalarga yoritib berish. <b>-10 - daqiqa</b> 2. Mavzuning rejasi <b>-10 - daqiqa</b> 3. Mavzuning maqsadini belgilash <b>-10 - daqiqa</b>	Qatnashadi, ko'rishadi, tinglashadi va yozib olishadi.
1 juftlik 5 daqiqa, 2 juftlik 10 daqiqa, 3 juftlik 20 daqiqa.	tanaffus	
<b>Nazariy bosqich</b> (10 daqiqa)	1. Talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, mavzu bo'yicha savollarni beradi. 2. Ko'rgazmali plakatlardan foydalanadi 3. Slaydalar, mul'timedialardan foydalanadi 4. Davolash ishlarini olib boradi 5. Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umimlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi	Kichik guruhlariga bo'linadilar Qatnashadilar Tinglaydilar va savollarga javob beradilar
<b>Klinik bosqich</b> (25 daqiqa)	BZKTTM "Yuz -jag' jarrohligi" bo'limida bemorlar bilan ishlash, klinik mashg'ulotlarni mulyajlarda va bo'limda bemorlarda bajarish. <b>-5 – daqiqa</b> Bemorlarning bog'lovlarida ishtirok etib, kasallik tarixlarini o'rganish. Davolash ishlarini olib boradi <b>-10 - daqiqa</b> Mavzular asosida berilgan ma'lumotlarni umimlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirokchi talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi. <b>-10 - daqiqa</b>	Qatnashadilar, bajaradi, yozadi, tahlil qiladi,
<b>Yakuniy bosqich</b> (5 daqiqa)		1. Yakunlovchi xulosa qiladi. 2. Talabalarni baholaydi 3. Mustaqil ish beradi 4. Uyga vazifa beradi

### Amaliy mashg'ulotning texnologik modeli.

Mashg'ulot vaqti-3 soat	Talabalar soni 9 Nafar
Mashg'ulot shakli	Amaliy mashg'ulot
Mashg'ulot rejasi	1. Kasalliklar klassifikatsiyasi 2. Kasallik etiologiyasi 3. Kasallik klinikasi 4. Kasallikni tashxislash usullari 5. Kasalliklarni davolash choralari
O'quv mashg'ulotning maqsadi	Talabalarga 4 kurs taqvimiy reja asosida mavzularni tushuntirish.
Ta'lim berish usullari	Mul'timediya Interfaol usullar "Akvarium", "Qor parchasi"
Ta'lim berish shakllari	Jamoaviy

Ta`lim berish vositalari	O`quv uslubiy ishlanma , elektron darsliklar, kompyuter
Ta`lim berish sharoiti	Metodik jixatdan jixozlangan auditoriya
Monitoring va jixozlash.	

Protezoldi jarrohligining faol rivojlanishi 50-chi yillarning oxirida boshlangan bo`lsa ham, u ancha ilgari ham ma`lum bo`lgan. Protezlash bilan shug`ullangan shifokorlar kam ishtiyoq bilan jarrohlikga murojaat etar edilar, lekin ko`pchilik holatlarda protezlarni mustahkamlash uchun yomon sharoitlar mavjudligini ta`kidlar edilar. R. Hopkins (1985) tish protezlari bo`lgan 80 % bemorlarda ularni mustahkamlash uchun yaxshi tayanchning yo`qligi va og`iz bo`shlig`ida diskomfort keltirib chiqaruvchi patologik jarayonlar kuzatilishini aniqladi.

Og`iz bo`shlig`i protezoldi jarrohligining rivojlanishida E. Lexer (1909), P. Moure (1923), W. Razanjian (1924), M. Wassmund (1938), P. Lvov (1923), A. A. Limberg (1935), A. E. Rauer (1938), N. M. Mixelson (1943), A. I. Evdokimov (1943), G. A. Vasilev (1947) kabi klinitsist-jarrohlarning ishlari asos bo`lib xizmat qildi. Protezoldi jarrohligining alohida usullari A. I. Evdokimov (1950), G. A. Vasilev (1950, 1972), M. V. Muxin (1972, 1998) larning kitoblarida aks ettirilgan. Hozirgi vaqtda protezoldi jarrohligi og`iz bo`shlig`i kasalliklarini davolashda keng tarqalgan davolash usuliga aylandi. Unga monografiyalar, kitoblar va qo`llanmalarda boblar bag`ishlangan [Guernsey L., 1973; Toma K., 1980; Laskii D., 1980; Bell W. et ab, 1988; Stoelinga P., 1984; Hopkins R., 1985; Fonseca R., 1993; Krger E., 1993; Tucker M., 1994].

Protezoldi jarrohligining zarurligi qator omillarga bog`liq bo`lib, xususan, tabiiy tishlar yo`qotilgandan so`ng yuqori jag` alveolyar o`simtasi va pastki jag` alveolyar qismining atrofiyasi ro`y beradi. Ba`zi bemorlarda suyak atrofiyasi hamroh kasalliklar va organlarning o`zgarishi – sistemali kasalliklar, suyak osteporosi (shu jumladan, klimakterik va postklimakterik davrlarda) tufayli zo`rayishi mumkin. Suyak atrofiyasiga, shuningdek mahalliy omillar ham ta`sir etadi. Avvalambor — bu tishni olib tashlagandagi jarohat va alveolalar devorlaridan birining tez-tez yo`qotilib turishi. Protezlardan foydalanish, ayniqsa, ular yomon mustahkamlangan bo`lsa ham, suyakning yo`qotilishiga sabab bo`lishi mumkin.

Protezlash vaqtida suyak atrofiyasini keltirib chiqaruvchi umumiy organik va mahalliy omillardan tashqari, jag`larning o`ziga xosligi ham qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ular atrofik jarayonlarning natijasida hamda skelet yuz suyaklarining o`ziga xosligi, turi va rivojlanishi bilan bog`liq ravishda namoyon bo`lishi mumkin. Protezlash vaqtida suyak to`qimasining o`zi ham qator kamchiliklarga ega bo`ladi. Tishlar olib tashlagandan so`ng, alveolyar do`ngchalar haddan tashqari chiqib turishi mumkin. Bundan tashqari, tishlar olinayotgan vaqtda tish alveolarining devorlari (ko`pincha vestibulyar) siljib, suyakda notekisliklar hosil qiladi. Protezlash uchun yomon sharoitlar ham ko`pincha vertikal va oldingi orqa tomonda ro`y beruvchi suyakdagi atrofik jarayonlarni, jag`larning disproportsiyasini, alveolyar yoylar orasidagi masofaning kattalashuvi va ularning kengligini kamayishiga olib keladi. Ko`pincha protezlash jarayoni jag`lardagi atrofik jarayonlarni chuqurlashtiruvchi parodontit, parodontoz tufayli qiyinlashadi. o`sib chiqmay, suyak ichida qolib ketgan, ayniqsa, suyak deformatsiyasiga sabab bo`luvchi tishlar ham ma`lum muammolarni keltirib chiqaradi.

YUqori jag`da ikkita plastinkaning qo`shilib, qattiq tanglayni hosil qilish joyida tanglay bolishchasi sezilarli ravishda namoyon bo`lishi mumkin. Markaziy tishlarning yo`qotilishi yuqori jag` alveolyar o`simtasi va pastki jag` alveolyar qismi o`rtasida noto`g`ri okklyuziv aloqaning paydo bo`lishiga va ortishiga olib kelishi mumkin. YUqori jag` molyarlari yo`qotilganda tish-antagonistlar o`rtasida ham balandligi, ham okklyuziya bo`yicha noto`g`ri aloqalar paydo bo`lib, shu munosabat bilan alveolyar o`simta shaklini kattalashtirish yoki korrektsiya qilishga to`g`ri keladi.

Pastki jag`da protezlash uchun alveolyar qismning torayishi, uning atrofiyasi qiyinchiliklarni keltirib chiqarib, natijada iyak osti do`ngchasi, qiyshiq chiziq, jag`-til osti chiziqlari o`tkir qirralarga ega bo`lgan holda, chiqib turadi. Suyak atrofiyasi jarayonlaridan tashqari, R. Popkins (1985) fikricha, tishlarning surunkali kasalliklari hisobiga paydo bo`luvchi mikrostromiya ham protezlashga to`squinlik qilishi mumkin.

Ortoped-vrach protezlashga bo`lgan shartlarni o`rganib, patologik o`zgarishlari bor bemorlarni faqatgina tish protezlari yordamida to`g`irlab bo`lmaydigan bemorlarni yuborishlari kerak. Ruhiyo faktorlar ham muhim ahamiyatga ega, ayniqsa: operativ aralashuvlarni bemorlar to`g`ri tushunishlari; shikoyatlarni adekvatligi; funksional va estetik jihatdan u jarrohlik va ortopedik davolashdan nimani kutadi. Alohida e`tiborni bemorni tish proteziga bo`lgan ruhiy motivatsiyasiga qaratish kerak. Jarroh-stomatolog jarrohlik davolashni rejalashtirayotganida xavf darajasini, ayniqsa bemorda sistem kasalliklar borligida xavf darajasini hisobga olishi zarur. Klinik tekshirishlar rentgenologik, shu qatorda panoram tasvir va jag` modellari bilan birga olib borilishi lozim.

Keyingi protezlashga bo`lgan tadbirda birinchi tayyorgarlik bo`lib, tish olishda va operatsiyalarda yuqori jag` alveolyar o`sig`i, pastki jag` alveolyar sohalarda ishlash vaqtida barcha qoidalarga asoslangan holda

ishlash kerak. Alveolyar yoy konturiga va tishlarni olishda iloji boricha suyak va yumshoq to'qimalarni saqlab qolishga e'tibor berish kerak.

Tishni protezlash uchun suyak-plastik operatsiyalarida quyidagi qoidalar bajarilishi lozim:

- Suyak jarohatini yopish uchun etarli darajadagi yumshoq to'qimalar;
- Plastikadan oldin suyak quyidagicha tayyorlanishi kerak – uning yuzasi ayab dekortikatsiya qilinadi, chunki u qon bilan yaxshilab yuvilishi uchun.
- Okklyuziya bilan mos ravishda taxlangan biomateriallarni, kelajakdagi rekonstruktsiya va remodelirlangan suyakning real hajmini hisoblash kerak;
- Rekonstruktsiya qilingan suyakka tayangan kelajakdagi protezlashda yuz garmoniyasi va tish qatorlarni estetikasini hisobga olish zarur.

**Jag'larning yumshoq to'qimalaridagi operatsiyalar (alveolotomiya i alveolektomiya).**

**Alveolalar plastikasi.** Agar tishlar olib tashlangandan so'ng, jarohatga qayta ishlov berilgan vaqtda alveolyar o'simtaning deformatsiyasi aniqlansa, u holda alveolalar plastikasi amalga oshiriladi. Buning uchun faqatgina suyakning shikastlangan sohasini ochish uchun shilliq-suyak usti lahtagi chetga surib qo'yiladi. Alveolyar yoyning tashqi va ichki yuzalaridagi deformatsiya suyak qisqichlari, suyak arrachalari, bor yoki frezlar yordamida bartaraf etiladi [Vasilev G. A., 1972]. Bor mashinasi bilan ishlaganda operatsiya maydonchasi natriy xlorning izotonik eritmasi bilan irrigatsiya qilish yo'li bilan albatta sovuq qilish kerak. O'tkir qirralar olib tashlanib, ular tekislangandan so'ng, shilliq-suyak usti lahtagi joyiga qo'yiladi. Jarohat qirralarining mosligiga e'tibor berilib, zarurat bo'lganda qirralari tekislanadi va ortiqcha to'qimalar olib tashlanadi.

**To'siq ichi alveoplastikasi.** Bitta yoki bir necha tishlar olib tashlangandan so'ng, keyinchalik alveolalararo to'siqlarning rezektsiyasida zarurat tug'ilishi mumkin [Dean O., 1941]. CHiqib turgan yoki noadekvat alveolalararo to'siqni olib tashlash va barmoq bilan kuchli bosib turish yo'li bilan yuqori jag' alveolyar o'simtasi yoki pastki jag' alveolyar qismi lateral plastinkalarining repozitsiyasini amalga oshirish tavsiya etiladi (shilliq qavatning shikastlanishi mumkinligini nazarda tutmoq kerak).

Protez oldi jarrohligining faol rivojlanishi 50-yilar ohiridan rivojlana boshladi, ammo undan oldin ham qo'llanilardi. Tish protezlash bilan shug'ullanuvchi shifokorlar protez fiksatsiya qilish uchun sharoiti bo'lmagan holatlarda ham, jarrohlik usulini qo'llashni istamasdilar. R. Hopkins (1985) ma'lumoti bo'yicha, tish protezlari mavjud bo'lgan 80% bemorda protez fiksatsiyasi uchun yaxshi tayanchning yo'qligini, hamda og'iz bo'shlig'ida diskomfortni keltirib chiqaruvchi patologik jarayonlar mavjud bo'lgan. YUz-jag' xirurglari bu masalaga e'tibor berishmagan.

**YUqori jag' alveolyar o'siq va pastki jag' alveolyar qismining suyagi yuzasidagi notekisliklarni kamaytirish va korrektsiya qilish.** Suyakda protezlashga xalaqit beruvchi notekisliklar mavjud bo'lganda o'tkaziladi. Bu chiqib turuvchi suyak, yoki gipertrofiyalangan, ortiqcha to'qimalar ko'rinishida bo'ladi. **Xuddi** to'siq ichi alveoplastikasi usuli kabi normal alveolyar yoyni hosil qilish uchun shilliq-suyak usti laxtagi ochilib, jag'larning alveolyar o'sig'ini ikki tomonidan ham yalang'ochlanadi. Suyakning bo'rtgan, tekis bo'lmagan va boshqa deformatsiyalar suyak kusachkalari, borlar, frezlar bilan tekislanadi. Ortiqcha yumshoq to'qimalar bo'lganda ularni olib tashlab, jarohatni tugunli ketgutli choklar yoki poliamid iplar bilan tikiladi. YUqori jag' operatsiyasida yuqori jag' bo'shlig'ini chegarasini aniqlab, uning tubini jarohatlanishini oldini olish mumkin; pastki jag'da – dahan teshigini joylashishiga va undan asab-qon tomir tutamini chiqishiga e'tiborni qaratish kerak.

**YUqori va pastki jag' alveolyar o'siqlarini rezektsiya qilish** quyidagi hollarda ko'rsatilgan: protezda tishlar, antagonist tishlar uchun joy bo'lmaganda ortiqcha to'qimalar, suyaklarning deformatsiyasida qo'llaniladi. Modelda protez joyini ko'rib, rezektsiyaning kerakli hajmi olib tashlanadi. Burun va yuqori jag' bo'shlig'ini joylashishi operatsiya vaqtida ularni jarohatlanishini oldini olish uchun rentgenologik tasvirdan o'rganiladi. Alveolyar yoydan chiziqsimon kesma o'tkaziladi va shilliq-suyak usti laxtagi separatsiya qilinadi. Ba'zida bitta yoki bir necha qo'shimcha og'iz bo'shlig'i dahlizi asosiga vertikal kesmalar o'tkazilib, burchaksimon, trapetsiyasimon shaklli laxtaklar separatsiya qilinadi. Alveolyar sohaning ortiqcha qismlari suyak kusachkalari, dolota, shuningdek, sovuq borlar, frezlar bilan olinadi, bu esa suyak yuzasini silliqlab, uni termik jarohatlanishidan oldini oladi. Ortiqcha yumshoq to'qimalar shunday hisobda olinishi kerakki, jarohat chetlari tortilmasdan bir-biriga yaqin kelishi kerak. Eng yaxshisi sintetik ipdan uzluksiz chok qo'yiladi [Daniel R., 1978; O'Ryan F., 1992]. Adentiya holatida alveolektomiya yuqori jag'ning oldingi sohasi disproportsiyasida o'tkaziladi. O. Dean (1941), K. Kallenberger (1953), H. Obwegeser (1968) tomonidan tavsif etilgan suyak korrektsiyalari asosli hisoblanib, garchan alohida mualliflar ularning modifikatsiyalarini ishlab chiqqanlar [Keller E. et al., 1987; Sailer H., 1989; Richardson D., Cawood., 1990].

**SHoshilinch protezlashga tayyorlash.** YUqori va pastki jag' alveolyar o'siqlarning tayyorlanishi jarrohlik aralashuvlar ko'p sonli tish olingandan keyingi kelib chiqadigan vaziyatlarga bog'liq bo'ladi. Tishlar olingandan so'ng o'tkir alveolyar va ildizlararo to'siqlar, ayniqsa parodontit va parodontozdan keyin kelib



chiqadi. Og'riqsizlantirilgandan so'ng shilliq-suyak usti laxtagi ochilib, tishlar olinadi va suyakda kerakli xirurgik manipulyatsiyalar olib boriladi. To'siq kusachkalar yordamida olinadi va alveolaning oddiy plastikasi, to'siq ichi plastikasi o'tkaziladi. Suyakning bo'rtgan va g'adir-budur joylari bor yoki frezlar bilan tekkislanadi. Qaychi yoki skalpel yordamida tishlararo so'rg'ichlar kesilib, shilliq qavat shunday hisobda olinadiki, suyakni yopishga kerakli yumshoq to'qima bo'lishi va shilliq qavatni ortiqchasi bo'lmasligi va jarohat chetlari yaxshi yopilishi kerak. Jarohat tikiladi.

**YUqori va pastki jag'larda ekzostozlarni olish** ular katta bo'lganda va yaqqol ko'ringan hollarda qo'llaniladi. Alveolyar yoy bo'yicha kesma o'tkaziladi yoki uni vertikal kesmalar bilan to'ldiriladi. Burchaksimon yoki trapetsiyasimon shaklli laxtak ochilib, deformatsiyalangan suyakning har bir sohasi yalang'ochlanadi. Ekzostozlar suyak kusachkalarida yoki ba'zida bolg'acha bilan doloto yordamida olinadi, sovutiish yordamida suyakning usti borlar, frezlar bilan silliqiladi. Suyak usti g'adir-budurini korreksiyasini biomaterialni qo'yish bilan to'g'irlash mumkin. Albatta suyakka osteoplastik materialni qo'yish uchun suyakni tayyorlash kerak, chunki uning yuzasi qon bilan yaxshi yuvilib turishi kerak. Joylangan biomaterial suyak yuzasi bo'ylab kondensatsiya qilinadi va yumshoq to'qimalar bilan yopiladi. SHilliq-suyak usti laxtakni joyiga qo'yib, tugunsimon, matratsli yoki uzluksiz choklar bilan fiksatsiya qilinadi. Alveolyar o'siqning tanglay tarafidagi ekzostozni olish vaqtida alveolyar yoy bo'yicha chiziqsimon kesma o'tkazib, suyak yalang'ochlanadi. Pastki jag' alveolyar o'siqning til tarafidagi ekzostozni olish vaqtida ham xuddi shunday alveolyar yoy bo'yicha chiziqsimon kesma o'tkazilib, astalik bilan suyak yuzasidan shilliq-suyak usti pardasi osti laxtagi ajratiladi. Ekzostozlar bor, frez, tish rashpili yordamida olinadi. Suyak yaxshi ko'rinishi uchun o'tmas ilgak bilan yumshoq to'qimalar chetga suriladi, shuningdek, til nervi, arteriyalar va jag'osti so'lak bezlarining yo'llari yaqin joylashganini ham hisobga olish kerak. Uncha katta bo'lmagan ekzostozlar va alveolyar o'siq kengligi etarli darajada bo'lmaganda ekzostozlar olinmaydi. SHunga mos keluvchi suyak yuzasida ko'ndalang kesma o'tkazilib yoki shilliq qavat, suyak usti pardasidan kesma o'tkaziladi va suyak usti pardasi osti tonelli hosil qilinib, gidroksilapatit yoki boshqa biomateriallar qo'yiladi, tekis va kerakli kenglikdagi alveolyar o'siq shakllantiriladi. SHilliq qavatdagi jarohat tikiladi. Iloji boricha jarohat ustidan shakllantiruvchi plastinka yoki parodontal qoplamalar qo'yilishi kerak.

**Qattiq tanglaydagi tanglay valigi sohasidagi ekzostozlarni olish.** Olib qo'yiluvchi tish protezlarini konstruktsiya qilish va ishlatish vaqtida ko'pincha tanglay valigidagi ekzostozlar muammo keltiradi. Ular har xil shakl va konfiguratsiyaga ega bo'ladi, ba'zida etarli darajadagi kattalikka ega bo'ladi va tanglay gumbazini deformatsiyalaydi. Ekzostozlarni olishda tanglay o'rta chizig'i bo'ylab engil kesma o'tkaziladi va kesmaning oldingi va distal oxirlari 30-45<sup>o</sup> burchak ostida kesiladi. SHilliq-suyak usti pardasi laxtagi ko'chirilib, chetga suriladi va uni qirg'oqlaridan ligaturalar o'tkazilib, suyak do'mbog'i asosi yalang'ochlanadi. Do'mboq iskana (doloto) va bolg'acha, bor yoki frezlar yordamida olinadi. Ko'p hollarda do'mboqni bir necha fragmentlarga bo'lib, kusachka, iskanalar bilan qismlarga bo'lib olinadi. Lekin bu ishni astalik bilan qilish lozim, chunki burun bo'shlig'i tubini perforatsiya qilib qo'yish mumkin. Suyak yuzasi silliqiladi va shilliq-suyak usti pardasi laxtagi joyiga qo'yilib, suyak yuzasiga yumshoq to'qimalar barmoq bilan bosiladi. Ortiqcha to'qimalar olib tashlanadi va jarohat qirg'oqlarini tortmagan holda unga tugunsimon choklar qo'yiladi. Gematoma bo'lishini oldini olish uchun tanglay sohasiga uncha katta bo'lmagan bosim kuch bilan yodofom suyuqligi yoki yodli aralashma, shipovnik, oblepixa moyi va b.qalarga shimdirilgan dokali bog'lam qo'yiladi. Bunday boylamni iloji bo'lsa ipakli choklar bilan mahkam qilib qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tayyorlangan himoya plastinkasi yaxshi fiksatsiyalanishi kerak, lekin ortiqcha bosim ko'rsatmasligi lozim, chunki yuqori bosimda yumshoq to'qimalarning nekrozi yuzaga keladi. Opreatsiyadan keyingi davrda bog'lamlar almashtirilib turiladi va yallig'lanishni oldini olish uchun og'iz bo'shlig'ida gigienik muolajalar olib boriladi.

**Jag'-tilosti chizig'ini kichraytirish va olib tashlash.** Jag'-tilosti chizig'ida ko'pincha protez mahkamlanishida qiyinchiliklar tug'iladi: birinchidan, qirra o'tkir bo'lib, protezni qo'llash vaqtida og'riqni yuzaga keltiradi, ikkinchidan, uni qoplab turuvchi yupqa shilliq qavatda yara paydo bo'ladi, uchinchidan, shu sohaga birikuvchi mushak tolalari ortopedik moslamalarni qo'llashga qarshilik ko'rsatadi. Jag'-tilosti chizig'ini kichraytirish maqsadida, premolyarlar sohasida alveolyar qirra cho'qqisidan ikki tomonlama chiziqsimon kesma o'tkaziladi, shilliq qavat va suyak usti pardasi ajratiladi. YUmshoq to'qimalar shunday separatsiya qilinadiki, til nervini jarohatlanishini oldini olish kerak. Birikib turuvchi mushaklar oldinga surish bilan birgalikda yoki chiziqning o'tkir yuzasidan o'rta sohasida qisman mushak, fastsiyani qoldirib ajratiladi. Suyak kusachkalari, bor va tish rashpili yordamida bo'rtib turuvchi do'mboqning bir qismi olinib, suyak tekislanadi. Protez yoki shinani iloji boricha jarohatga tugunsimon choklar qo'yilishi bilan taqish kerak. Og'iz bo'shlig'i tubini kerakli darajadagi pasaytirishga mos ravishda protezning oral qirg'oqlarini kattalashtirish kerak [Krüger E., 1993].

**Dahan do'mbog'i va dahan bo'rtiqligini kichraytirish.** Pastki jag` atrofiyasida tish protezini adekvat mahkamlanishiga dahan do'mbog'i yoki bo'rtiqligi qarshilik ko'rsatishi mumkin. Agar boshqa echim bo'lmasa, do'mboq yoki bo'rtiqni kichraytirish kesuv tishlar sohasida alveolyar yoy bo'yicha kesma bilan o'tkaziladi. Til tarafdan shilliq-suyak usti pardasi laxtagi ajratilib, dahan-til mushagi tutamining bir qismi ajratiladi va yalang'ochlangan dahan do'mbog'i yoki bo'rtiqligini astalik bilan iskana yoki suyak kusachkalari yordamida olinib, keyin esa suyak yuzasi bor bilan tekislanadi. Mushak shunday tikiladiki (yoki tutamning bir qismi mahkamlanishsiz qoldiriladi) og'iz bo'shlig'i tubi pasayishi kerak [Hopkins R., 1985; Tucker M., 1994].

**Pastki jag` valigini olib tashlash.** Pastki jag`da pastki jag` do'mbog'i odatda kichik jag` tishlari sohasida suyakning ichki yuzasida joylashadi. Tishlar bo'lganda ular muammo tug'dirmaydi, ammo tishlar bo'lmaganda, ayniqsa, suyak atrofiyasida protezni konstruksiyalashda qiyinchilik tug'diradi va nutqning ovqat chaynash vaqtida tilning funksiyasini buzilishiga olib keladi. Ko'pincha do'mboqlar ikki tomonlama kattalashgan bo'ladi. Kerak bo'lsa, ularni jag`ning ikki tomonidan olib tashlashda kesma premolyarlar sohasida, alveolyar qismning do'mbog'i bo'ylab, uzunligi 1-1,5 sm bo'lgan kesma o'tkaziladi. Katta ehtiyotkorlik bilan suyak usti pardadan shilliq qavat ajratiladi, ko'pincha ular juda yupqa bo'ladi. Jag` osti valigi sohasiga suyak usti pardasi ostiga, o'tmas ilmoq bilan yumshoq to'qimalarni ushlagan holda anestetik eritmasini yuborish mumkin. Pastki jag` valigining yuqori qismiga bor bilan tarnov hosil qilinib, keyin uni iskana va bolg'acha bilan olib tashlanadi. Suyak tekkislanib, periost va shilliq qavat joyiga qo'yilib, barmoq bilan natija baholanadi. Jarohat tugunsimon yoki uzluksiz choklar yordamida tikiladi. Operatsiya bo'lgan maydonga til osti sohasiga 12-24 soatga yodofom suyuqligi, oblepixa, shipovnik moyiga shimdirilgan dokali tampon qo'yiladi. Bu muolaja gematoma hosil bo'lishini oldini oladi va yallig'lanishga, shishga qarshi ta'sir qiladi.

**Tish ildizlari alveolada qolganda operativ aralashuvlar.** Jag`lar atrofiyasi profilaktikasi va protezlash uchun optimal sharoitlarni yaratish maqsadida alveolada tish ildizlari qoldiriladi. CHuqur klinik-rentgenologik tekshirishlardan so'ng plombalangan tishlar va ildizlarni shunday charxlash kerakki, milk qirg'og'idagi cho'ntak chuqurligi 3 mmdan katta bo'lmasligi kerak. CHuqur cho'ntak va milk gipertrofiyasi bo'lganda gingivektomiya o'tkaziladi. To'qimalar mobilizatsiya qilingach, ildizlar shilliq qavat va periostli laxtak bilan yopilib, tikiladi. To'qimalar etishmaganda va alveolyar yoyni qayta tiklashda shilliq qavatdan iborat erkin laxtakni ko'chirib o'tkazish mumkin.

Ba'zi bir qiyin holatlarda (suyak atrofiyasi va tishlar yo'qotilishi natijasida bazal suyakka yopishgan, alveolyar yoyning butunlay atrofiyasida, tish protezlari taqilgandan so'ng, umumiy kasalliklar va b.qalar) chuqur kuchayib boruvchi operativ aralashuvlar o'tkaziladi.

**Baland va keng alveolyar yoyni shakllantiruvchi operatsiya.** Alveolyar yoyning etarli darajadagi balandligi va kam miqdordagi kengligi bo'lganda, shuningdek, uning chuqur buzilishlarida (o'tkir qirralarning bo'lishi, atrofiya natijasida jag` tanasining asosigacha yoyning yo'qligi) qiyin suyak-plastik operatsiyalari o'tkaziladi. Ko'pincha jag`lar fragmentlaridan, yonbosh suyak va qovurg'alardan iborat autosuyakli plastika o'tkaziladi. Bu operatsiyalar 50-60 yillarda ishlab chiqilgan. Keyinchalik bu operatsiya usullari takomillashtirilgan. Allogenli suyak keng qo'llanilishga ega bo'ldi, bunga sababchi bo'lib N. N. Bajonov va hammualliflar (1972) tomonidan tekshirishlar o'tkazilib, uning natijalarini klinik amaliyotda tadbiiq etishgan. So'nggi yillarda baland va keng alveolyar yoyni biomateriallarni qo'llash bilan shakllantiradilar. Pastki jag`ni o'stirish. Autotransplantat sifatida qovurg'a yoki yonbosh suyak do'mbog'i ishlatiladi. 15sml autoqovurg'aning ikkita fragmentidan bittasini suyak yuzasiga joylashtirib, unga tish yoyini shakli beriladi, ikkinchi fragmentni esa maydalab, birinchi fragment qismlarining ustiga sepiladi. Transplantatni pastki jag`ning ortiqcha suyagiga biriktirilib, uning alveolyar qismi to'ldiriladi va transplantat qamrab oluvchi choklar bilan mahkamlaniladi. Bu usul qiyin hisoblanadi. Suyakning qayta tiklanishi va protezlashgacha bo'lgan davr ko'p vaqtdan iborat. Pastki jag`ni sinishi uning sezilarli darajadagi atrofiyasida uchrab, jag` asosida uning suyak plastikasini olib borishga imkon bermaydi. Yonbosh suyak do'mbog'i autotransplantatini simli suyak choki yoki mini-plastina va shtiftlar bilan biriktiriladi. SHu bilan birga bu usul pastki jag` sinishini oldini olishiga qaramay, protezlashga bo'lgan sharoitlarni yaxshilamaydi [Forneca R., Pavis W., 1993]. Pastki jag` plastikasining turli usullari tasvirlangan. Bu usullardan birida pastki jag`ni shunday arralash kerakki, uning oral qismi unga birikkan tilosti sohasidagi to'qimalar bilan birga qoldirilib, vestibulyar sohasi esa pastga tushishi kerak. Qolgan shilliq-suyak osti bo'shliqni maydalangan yonbosh suyagi do'mboqli autosuyakli gidroksilapatit bilan to'ldiriladi. Pastki jag`ni kattalashtirish uchun gorizontall arralash, yuqori fragmentni yuqoriga ko'tarib, o'rta bo'shliqni maydalangan autosuyak, allosuyak va gidroksilapatit bilan to'ldirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Suyakni o'stirishni eng oddiy usuli bo'lib gidroksilapatitni qo'llanilishi hisoblanadi. Pastki jag` alveolyar qismini sezilarli atrofiyasida qoziq tish yoki premolyarlar sohasidan yoy bo'yicha shilliq qavatda suyakka bo'lgan simmetrik kesmalar o'tkaziladi. Jag`

shoxigacha periost osti tunelli hosil qilinib, uni kerakli balandlik, kenglik va alveolyar qismning va yoyning kerakli konfiguratsiyasi hosil bo'lguncha gidroksilapatit bilan to'ldiriladi. Jarohat tugunsimon choklar bilan tikiladi. Alveolyar qismning shaklini va og'iz bo'shlig'i dahlizini shakllantirish uchun operatsiyadan keyin 8-10 kun ichida shinani taqib yurish tavsiya etiladi.

YUqori jag'ni gidroksilapatit qo'llash bilan oson va effektiv operatsiya yordamida o'stirish. Bu usul pastki jag'da gidroksilapatit bilan plastikasidagi kabi o'tkaziladi. Bunda alveolyar yoy o'rta chizig'i bo'ylab faqat bitta kesma o'tkaziladi. Periost osti tunnelini yuqori jag' oldingi yuzasida hosil qilinadi. Unga kerakli miqdorda material joylanib, alveolyar o'siqni etarli balandlik va kenglikda shakllantiriladi va 7-8 kunga shina taqilib, uni simli yoki tanglay shurupi yordamida osib qo'yiladi. Bu uchun eski protez qo'llanilib, yangi shakllantirilgan alveolyar o'siqqa mahkamlanadi [Block M., Goles T., 1992; Block M., Kent J., 1993]. YUqori jag' alveolyar o'sig'ini kattalashtirishni bir vaqtning o'zida yuqori jag' bo'shlig'ini gidroksilapatit yordamida ko'tarish bilan o'tkazish mumkin. YUqori jag'ni o'stirish pastki jag'nikiga qaraganda kamroq talab qilinadi. Biroq suyakning katta atrofiyasida va tanglay gumbazining adekvat shakli bo'lmaganda uning alveolyar o'sig'ini kattalashtirish operatsiyasi o'tkaziladi. Qovurg'adan autotransplantat sifatida qo'llash mumkin. Bu operatsiya pastki jag'ni o'stirish operatsiyasiga analog hisoblanadi. Le For III bo'yicha alveolyar o'siqni ajratish (osteotomiya) o'tkaziladi va bu maydonning interpozitsiyasi pastga shilliq-periostosti bo'shliqni esa maydalangan autogen suyak (yonbosh suyak do'mbog'i yoki qovurg'a) bilan to'ldiriladi. Transplantat jag' tanasiga va yonoq suyagiga metall sim, vintlar, vintli mini-plastina bilan birlashtiriladi. Biroq bu operatsiyalardan keyin suyak rezorbsiyasi kuzatiladi va qayta operatsiyaga muhtoj bo'lib qolinadi. Bunday hollarda bemor uzoq vaqt protezni qo'llay olmaydi. YUqori jag' alveolyar o'sig'ining atrofiyasidan so'ng, ayniqsa, distal sohada tish proteziga tayanch maydoni etarli bo'lmaganda yuqori jag' do'mbog'i plastinkasi o'tkaziladi. SHilliq-periost osti laxtagi alveolyar yoy bo'yicha qanot-tanglay burmasining yuqori nuqtasigacha ajratilib, yuqori jag' do'mbog'i yalag' ochlanadi va qanotsimon o'siqning lateral plastinkasining ortiqcha qismini osteotom bilan ajratilib, uni qanotsimon ilmoq bilan birga orqaga siljiriladi. Hosil bo'lgan chuqurchaga laxtag oxiri qo'yiladi. Jarohat yuzasi yodofom suyuqligiga shimdirilgan bog'lam bilan berkitiladi. Jarohat ikkilamchi tortilish bilan bitadi. Buning natijasida tish protezining fiksatsiyasiga juda yaxshi sharoit yaratiladi [Ticker M., 1994].

### **Og'iz bo'shlig'i yumshoq to'qimalari operatsiyasi**

Tishlar olingandan so'ng ko'pincha yumshoq to'qimalarda o'zgarish kuzatiladi. SHuningdek, alohida anatomik hosilalarning tug'ma buzilishlari ham uchraydi. Buning hammasi protezlashga qiyinchilik tug'diradi va jarrohlik davolashni talab qiladi. Ortiqcha yumshoq to'qimaning bo'lishi suyakni kattalashtirish mumkinligi uchun kerak bo'lish nuqtai nazaridan baholanishi kerak. Til yuganchalari kaltaligidagi operatsiyalar. Protezlashda ba'zida til yuganchasini uzaytirish talab qilinadi. Buning uchun yugancha bo'ylab uzun kesma o'tkaziladi va ikkita uchburchakli laxtak shakllantirilib, ular o'zaro kelishtiriladi va yupqa ketgut yoki sintetik ip yordamida mahkamlanadi [Muxin M., V., 1973; Aleksandrov N. M., Balin V. V., 1998; Obwegeser H., 1969; Forseca R., Davis N., 1993]. Operatsiya vaqtida tilosti so'rg'ichlarning joylashishini hisobga olish zarur, chunki ularni jarohatlab qo'yish mumkin. Til yuganchasining sezilarli darajada kaltaligida uni gorizontol kesish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tilni to'liq erkinlashtirganda jarohat romb shaklini oladi va jarohat chetlarini vertikal yaqinlashtirganda bunday shakl to'qimalar elastikligini qo'llashga, chok qo'yilishiga imkon yaratadi [Muxin M. V., 1973; Ticker M., 1984; Hopkins K., 1985]. Pastki jag' alveolyar sohasining atrofiyasida yugancha to'g'ridan to'g'ri yoyga birikadi. Bunday holatlarda uni burchaksimon kesma hollida kesiladi, uning cho'qqisi pastki jag' alveolyar sohasiga qaragan bo'lib, tilning pastki yuzasidagi laxtakni uni to'liq ozod bo'lgunicha ko'chiriladi. Hosil bo'lgan jarohat mahkamlab tikiladi.

**Lab yuganchasi kaltaligidagi operatsiya.** YUqori va pastki lab yuganchalari kaltaligi bor bemorlarda protezning fiksatsiyasi qiyinchilikni tug'diradi. Xirurgik taktika turli xil bo'lishi mumkin. Keng asosli til yuganchasi alveolyar o'siqqa birikkan bo'lgan hollarda uni periostga nisbatan ellips shaklda qilib kesiladi. SHilliq qavat periostga tikiladi, iloji boricha milk egatining butun chuqurligiga tikilishi kerak. Hosil bo'lgan jarohat butun uzunligi bo'yicha periost bilan birga qo'shib tikiladi. Lab yuganchasini uzaytirish uchun uchrashuvchi uchburchakli laxtakli plastika o'tkaziladi, xuddi til yuganchasi operatsiyasiga o'xshaydi, analogi hisoblanadi. Alveolyar o'siqqa birikkan keng asosli yuganchani uzaytirishda, protez qirrasini natijasida paydo bo'lgan yallig'lanish o'zgarishlarida maqsadga muvofiq bo'lib, milk egatidan boshlanuvchi, pastki jag' alveolyar qismiga yo'nalgan burchaksimon ko'tariluvchi kesmalar hisoblanadi. Alveolyar yuzasi bo'ylab uchburchakli laxtak ajratiladi va milk egati darajasida uning oxirlarini suyak usti pardasiga tikiladi. Hosil bo'lgan jarohat yuzasi ikkilamchi tortiluvchi bo'lib bitadi.

**Og'iz bo'shlig'i dahlizidagi shilliq va mushakli chandiqlarni yo'qotish.** Bittalik chandiqli tortilishlar, og'iz bo'shlig'i dahlizi shilliq qavati burmalarini yuqorida ko'rsatib o'tilgan usul bo'yicha uzunlashtiriladi: tortilish va burmalar kesiladi, uchrashuvchi uchburchakli laxtaklar hosil qilinib, ular

mobilizatsiyalanadi va siljtiladi. Og'iz bo'shlig'i dahlizida katta chandiqli tortilishlar bo'lganda etarli darajadagi gumbazni hosil qiluvchi operativ aralashuvda ularni kesish yoki kesib olib tashlashdan iborat. Hosil bo'lgan jarohat yuzasiga qorin sohasidan olingan 1,5-2 sm ga ega bo'lgan bo'lakli laxtaklar joylashtiriladi va uni vkladishga fiksatsiya qilib qo'yiladi. **Vkladishni** esa ipak bilan shilliq qavat qirg'oqlariga fiksatsiya qilinadi. Qo'shimcha qilib, vkladish ustidan va pastki jag` tanasi bo'ylab sintetik ip yordamida matratsli choklar qo'yish mumkin. Vkladish 7-11 kuni olib tashlanadi, shakllantiruvchi protezni esa ba'zi hollarda darrov taqiladi, boshqa hollarda esa 4-5 sutkadan keyin. So'nggi yillarda tanglay shilliq qavatidan olingan erkin laxtakni ko'chirib o'tkazish qo'llanilyapti.

**YAllig'langan-o'zgarigan ortiqcha to'qimalarni olib tashlash.** YOmon fiksatsiyalangan tish protezlarini taqib yurganda, ularning noadekvatligi natijasida ko'pincha alveolyar yoy, milk egatchasi shilliq qavatida fibroz o'simtali o'zgarishlar yuzaga keladi. Tish protezini korreksiya qilish bilan bunday o'zgarishlarni yo'qotish mumkin. Boshqa hollarda esa patologik to'qimani operativ yo'li bilan olib tashlash zarur. Eng oddiy usul bo'lib, elektrokoagulyatsiya yoki lazer yordamida olib tashlash hisoblanadi, bunda jarohat tampon ostida ikkilamchi tortilish bilan bitadi. Sezilarli miqdorda ortiqcha yallig'langan to'qimalar bo'lganda, periostgacha bo'lgan oddiy kesib olib tashlash usuli o'tkaziladi, so'ng jarohat tugunsimon yoki uzluksiz choklar bilan tikiladi. Jarohatni tikish uchun to'qimalar etishmaganda uning qirg'oqlarini tortmasdan suyak usti pardasiga tikib qo'yiladi; hosil bo'lgan nuqson ikkilamchi tortilish bilan bitadi. Barcha jarrohlik aralashuvda kelajakda protezlash uchun sharoitlarni hisobga olish shart, shu o'rinda etarli chuqurlikdagi milk egatini hosil bo'lishi ham. SHakllantiruvchi shina, perevyazka yoki gigienik aralashuvlarda echiluvchi yumshoq taglik asosli protezlarning fiksatsiyasi bunga olib kelishi mumkin.

Eng qiyin bo'lib, qattiq tanglay shilliq qavatidagi papillamatoz o'simtalarni olish hisoblanadi. Bunday o'zgarishlar asosan tish protezlari shikastlanishida, og'iz bo'shlig'ining etarli bo'lmagan gigienasida, zamburug'li infeksiyalarda yuzaga keladi. Konservativ davolash va protez korreksiyalari effektiv bo'lmagan holatlarda operativ aralashuvlar talab qilinadi. Bu koagulyatsiya, lazer yordamida olib tashlash, suyuq azot bilan obrabotka, bor yordamida, shuning skalpel bilan patologik to'qimalarni suyak usti pardasigacha olishdan iborat bo'ladi. Albatta, to'qimalarni patologoanatomik tekshirish zarur. Bog'lam va himoya plastinkasi (iloji bo'lsa yumshoq tagliklisi ma`qul) bilan jarohat yuzast yopilganda, 4 hafta ichida ikkilamchi tortilish bilan jarohatni bitishiga yaxshi sharoit yaratiladi. YUqori jag` alveolyar o'sig'i va pastki jag` alveolyar qismini qoplab turuvchi shilliq qavat va suyak usti pardasidagi g`adir-budurlikni kamayishida patologik maydonini qamrab oluvchi ellipsimon ulanib ketuvchi kesmalar o'tkaziladi. Bir-biriga teguvchi tortilmasdan vestibulyar va oral tomondan shilliq-suyak usti pardasi laxtagi mobilizatsiya qilinib, so'ng jarohat tugunsimon yoki uzluksiz choklar yordamida tikiladi. Agar jarohat chetlarini bir-biriga yaqinlashtirgandan so'ng yalag`ochlangan suyak maydonchasi qolsa uni doka tamponi bilan yopiladi. Jarohat ikkilamchi tortilish bilan bitadi. Retromolyar sohadagi to'qimalar hajmini kamayishi. Bu sohada gipertrofiya natijasida ko'pincha ortiqcha to'qimalar kuzatiladi. Ortiqcha to'qimalar ellipssimon shaklda kesiladi, nuqson qirralari yupqalashtirilib, jarohat tugunsimon yoki uzluksiz choklar yordamida tikiladi. Tanglay distal sohasidagi ortiqcha yumshoq to'qimalarni olib tashlash. Tanglay gumbazining distal qismida ko'pincha ortiqcha yumshoq to'qimalar aniqlaniladi, bu esa uning torayishiga va protezlashda qiyinchiliklarga olib keladi. Operatsiya vaqtida oldingi tanglay arteriyasi, qanotsimon venoz tutamining jarohatlanishi kuzatiladi, shuning uchun to'qimalar yuzaki olib tashlanadi. Ortiqcha yumshoq to'qimalar o'tkir yupqa skalpel bilan shilliq qavat va shilliq osti qavat chuqurligiga teguvchi yuzagacha olinadi. Jarohat chetlari yaqinlashtirilib, choklar qo'yiladi va jarohat yuzasiga himoya plastinkasi taqiladi.

**Og'iz bo'shlig'i dahlizi plastikasi.** Pastki jag` alveolyar yoyini balandligini oshirish uchun yumshoq to'qimalarda operativ muolajalar samarali hisoblanadi. Ulardan biri bo'lib, tilning pastki yuzasi shilliq qavatidan olingan laxtak bilan og'iz bo'shlig'i dahlizini chuqurlashtirish plastikasi o'tkaziladi. Bu operatsiya pastki jag` alveolyar qismining markaziy sohasini etarli darajadagi balandligi 15mmdan kam bo'lmagan)da, til sohasining etarli chuqurligida, lekin og'iz bo'shlig'i dahlizining kam bo'lgan chuqurligida, shuningdek, mushaklarning va shilliq qavat tortilishlarining qo'shilishi natijasida qo'llaniladi. Alveolyar yoyga parallel bo'lgan shilliq qavatda 3-4 sm uzunlikdagi ikkita laxtak shakllantiriladi: bittasi pastki lab sohasida, boshqasi alveolyar o'siqning yuzasida. Alveolyar o'siqdan yaxshi ajratilgan laxtak (oyoqchadagi) labdagi nuqson sohasiga ko'chiriladi, og'iz dahlizi gumbazini chuqurlashtirib, labdagi laxtak milk osti egatiga tikiladi, alveolyar o'siqning ochiq bo'lgan oldingi yuzasiga tilning pastki yuzasiga bichilgan laxtak ko'chiriladi va choklar qo'yiladi. To'qimalar maxsus tayyorlangan shinaga fiksatsiyalanadi yoki eski protez qo'llaniladi, uni esa shunday korreksiya qilinadiki, u og'iz bo'shlig'i dahlizini maksimal chuqurlashtirish kerak. Protez yumshoq taglikka ega bo'lishi lozim. 3-4 haftadan keyin ortopedik davolashni boshlash kerak. Pastki jag` alveolyar qismining sezilarli atrofiyasida, og'iz bo'shlig'i dahlizi, alveolyar yoy va til tarafdagi to'qimalar bitta yuzada joylashganda va protez fiksatsiyasi uchun sharoitlar bo'lmaganda Obvegezer usuli turli

modifikatsiyalarda qo'llaniladi. Operatsiyalar og'iz bo'shlig'i dahlizini kattalashtirishdan iborat. Pastki jag' alveolyar qismining kengligi 15 mmdan kam bo'lmazligi kerak. Boshida 4 mmdan kam bo'lmagan soch tolalari bo'lmagan sohadan olingan terili laxtak tayrlanadi. Alveolyar yoy bo'yicha kesma o'tkazilib, shilliq-suyak usti pardasi yumshoq to'qimalar va mushak bilan birgalikda bichiladi (odatda butun yuz-tilosti va dahan-til mushagining yuqori qismi ajratiladi). Uni jag'ning vestibulyar va til yuzasidan ko'chirilib, uning asosida tikiladi. Jag'ning yalang'ochlanib qolgan maydoniga teri transplantati qo'yilib, jag'ni atrofdagi to'qimalar bilan tikiladi va shina yordamida ushlab turiladi. Quyidagiga e'tibor berish kerakki, shinning qirg'oqlari pastki jag' dahlizi gumbazining barcha sohalariga tegib turishi kerak. Etti kundan so'ng o'rab turgan choklar olinadi. Qayta bog'lam bir kundan so'ng, gigienik muolajalar esa har kuni o'tkaziladi. Protezlashni 3-4 haftadan keyin o'tkazish mumkin. Og'iz bo'shlig'i dahlizining shilliq osti plastikasi. Alveolyar o'siqlarning sezilarli darajasidagi atrofiyasida va yuqori jag'da tananing mavjudligida protez fiksatsiyasiga kerakli sharoitlarni yaratish uchun og'iz bo'shlig'i dahlizida shilliq osti to'qimalarning plastikasi o'tkaziladi [Obwegeser H., 1969]. Bunday operatsiyaga majburiy shart bo'lib, yuqori lab va og'iz bo'shlig'i dahlizida shilliq qavatining etarli miqdori bo'lishi kerak. Dahliz markazida shilliq qavatning vertikal kesmasi o'tkaziladi va uni shilliq osti qavatdan ajratiladi. Keyin markazdan suyak usti pardasi kesiladi va uning tashqi yuzasidan suyak usti pardasi osti tunneli shakllantiriladi (og'iz bo'shlig'i dahlizining ikkala tonneliga mos ravishda). SHilliq osti to'qimasi kesiladi yoki uni oyoqchada yuqoriga ko'chiriladi. Jag'ga shina yoki korrektsiya qilingan eski protez taqiladi va uni tanglay shurupi yoki simli choklar bilan osib qo'yiladi. Og'iz bo'shlig'i dahlizi chuqurligi yaxshi mahkamlangan bo'lishiga juda e'tibor berish kerak. Jarohat bitgandan uch haftadan so'ng protezlashga o'tiladi. YUqori jag' dahlizini shilliq yoki terili transplantatlar bilan plastikasi. Tish protezining adekvat fiksatsiyasi uchun og'iz bo'shlig'i dahlizi etarli bo'lmaganda, yuqori lab shilliq qavati etishmaganda, shilliq osti to'qimalar plastikasi esa lab yuganchasining kaltalanishiga olib kelishida maydalangan teri transplantatini erkin ko'chirib o'tkazish plastikasi ko'rsatma bo'lib hisoblanadi. Og'iz bo'shlig'i dahlizi gumbazi bo'yicha shakllangan bu transplantat jarohatga ko'chirib o'tkaziladi. SHakllantirilgan chuqurlikda og'iz bo'shlig'i dahlizini kattalashtirish uchun tanglaydan olingan taqa shaklidagi erkin laxtak ko'chirib o'tkaziladi. Xuddi shunday yuqori labdan olingan oyoqchali laxtakni ham ishlatish mumkin. Bunday hollarda periostning yopishmagan maydonchalari qolib, ikkilamchi tortilish bilan bitadi. Barcha hollarda shina yoki protez taqilib, u osish yo'li yoki tanglay vinti bilan fiksatsiya qilinadi. 4 haftadan so'ng protezlashga o'tish mumkin. Plastikaning uchinchi usulida operatsiyadan keyingi davr ko'proq bo'ladi, shuning uchun protezlash kechki muddatda o'tkaziladi. Dahan nervini siljitish. Pastki jag'ni sezilarli atrofiyasida dahan teshigidan chiquvchi qon tomir-asab tutami tish yoyi sohasida joylashgan bo'lishi mumkin. Bunday hollarda tish protezlarini taqish og'riqli bo'ladi. Agar konservativ chora-tadbirlar, protez korrektsiyasi yaxshi natijas bermasa, unda dahan nervini siljitish ko'rsatma bo'ladi. Uzunligi 4 sm bo'lgan kesma alveolyar yoy bo'yicha, ba'zida esa oldingi sohada (vertikal) o'tkaziladi. Burchaksimon shakldagi shilliq-suyak usti pardasi laxtagi ajratiladi. Qon tomir-nerv tutami ajratiladi. Suyak vertikal yo'nalishda olinganda nerv pastga suriladi va hosil qilingan egatga joylanadi. Nerv suyakdan olib tashlangan kortikal plastinka bilan yopiladi. Nervni yopish uchun biomateriallardan ham foydalanish mumkin [Rosenquist B., 1992].

### **Mashg'ulotda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar:**

#### **“Galereya bo'yicha sayr”**

#### **“GALEREYA BO'YICHA SAYR” USULINI QO'LLASH**

##### **Mashg'ulot uchun zarur:**

1. alohida varaqalarda aks ettirilgan savollar va vaziyatli masalalar to'plami.
2. toza varaqalar.
3. rangli sterjenli ruchkalar (ko'k, qizil, qora).
4. guruhdagi talabalar soni bo'yicha qur'a o'tkazish uchun raqamlar.

##### **Mashg'ulotni olib borish:**

1. guruh qur'a tashlash yo'li bilan 3-4 kishilik 3 ta kichik guruhga bo'linadi.
2. har bir kichik guruh alohida stolga o'tirib, toza varaqani tayyorlaydi va rangli ruchkalardan birini oladi.
3. varaqaga sana, guruh raqami, ishchi o'yinning nomi, ushbu guruhdagi talabalarni F.I. yoziladi.
4. ishtirokchilardan biri o'kituvchining tanlashiga binoan konvertdan savol yoki masalani oladi.
5. har bir guruh uchun o'zining alohida savoli yoki masalasi bo'lib, ularning murakkablik darajasi deyarli bir xil bo'ladi.
6. vaqt belgilanadi – 10 minut.

7. kichik guruhlar har biri 10 minut davomida topshiriqni muhokama etadilar, o'z mulohazalarini yozib boradilar va vaqt tugagandan so'ng aylana bo'yicha boshqa kichik guruhlar bilan varaqa almashadilar.
8. keyingi kichik guruh avvalgi kichik guruhning javobini baholaydi va agarda javob to'liq bo'lmasa, uni to'ldiradi, agar noto'g'ri bo'lsa, o'zining variantini taklif etadi. Ushbu bosqichga ham 10 minut beriladi.
9. ish tugagandan so'ng (30 minut), varaqada turli rangdagi ruchkalar bilan yozilgan 3 xil javoblar bo'ladi.
10. ushbu ishlar o'qituvchiga topshiriladi.
11. barcha ishtirokchilar natijalarni muhokama etib, eng to'g'ri javobni tanlaydilar va unga yuqori ball qo'yiladi.
12. muhokamaga 15 minut ajratiladi.
13. eng to'g'ri javob bergan kichik guruh maksimal ball – mashg'ulot nazariy qismi reytingidan 100 %, 2 o'rini egallagan kichik guruh reytingning 85,9 %, 3 o'rindagi kichik guruh reytingning 70,9 % oladi.
14. talabalar olgan ball joriy baholashda hisobga olinadi.
15. talabalar ishlari o'qituvchi tomonidan saqlanadi.

#### MURAKKABLIGI 1-DARAJALI TESTLAR:

1. Bo'g'im o'sig'i sohasidagi ekzostozlarga asosan bo'ladigan shikoyat?
  - A. og'riq \*
  - B. noaniq nutq
  - V. qiyinlashgan yutunish
  - G. gipersalivatsiya
  - D. xamma javoblar to'g'ri
2. Olingan ekzostoz sohasiga qo'yiladigan chok:
  - A. tugunsimon\*
  - B. matrasli
  - V. plastinkali
  - G. yo'naltirilgan
  - D. hamma javob to'g'ri
3. YUqori jag'ni protezlashdan oldin o'tkaziladigan xirurgik davolash o'tkaziladi:
  - A. aniq aks etgan torusda\*
  - B. rivojlanmagan torusda
  - V. adentiyada
  - G. torusning yo'qligida
  - D. hamma javob to'g'ri
4. Ekzostoz nima?
  - A. suyakning chiqib turishi\*
  - B. shilliq qavatnig o'sib ketishi
  - V. to'g'riburchakli
  - G. rombsimon
  - D. hamma javob to'g'ri
5. Ekzostozlarni olishda o'tkaziladigan kesim:
  - A. trapetsiyasimon\*
  - B. uchburchakli
  - V. to'g'riburchakli
  - G. rombsimon
  - D. yumaloq
6. Aniq aks etgan osilib turuvchi qirrani olishda qanday kesma o'tkaziladi?
  - A. taqasimon\*
  - B. chiziqsimon
  - V. trapetsiyasimon
  - G. Uchburchakli

- D. Barcha javoblar to'g'ri
7. YUqori lab qisqa yuganchasida frenulotomiyaga ko'rsatma:
- A. SH daraja\*
  - B. II daraja
  - V. I daraja
  - G. I - II darajalar
  - D. hamma javob to'g'ri
8. Vestibuloplastika o'tkaziladi:
- A. alveolyar o'siq atrofiyasi IV daraja\*
  - B. alveolyar o'siq atrofiyasi SH daraja
  - V. alveolyar o'siq atrofiyasi II daraja
  - G. alveolyar o'siq atrofiyasi I daraja
9. Alveolyar o'siq atrofiyasida o'tkaziladigan operatsiya?
- A. vestibuloplastika\*
  - B. suyak plastikasi
  - V. mushakli gipertrofiyada
  - G. shilliq qavat gipertrofiyasida
  - D. shilliq qavat atrofiyasida

### MURAKKABLIGI 2-DARAJALI TESTLAR:

1. Ekzostozlar ko'pincha joylashadi:
- A. yuqori jag` alveolyar o'sig`ining vestibulyar yuzasida
  - B. pastki jag` alveolyar o'sig`ining vestibulyar yuzasida
  - V. pastki jag` shoxlarida
  - G. pastki jag` bo'g'im o'sig`ida
  - D. pastki jag` burchagida
- 1.A,B\* 2.B,V 3.G,D 4.A,D
2. Bo'g'im o'sig`idagi ekzostozlarda kuzatiladigan asosiy shikoyatlar:
- A. og`riq
  - B. noaniq nutq
  - V. yutunishning qiyinligi
  - G. gipersalivatsiya
  - D. og`iz ochilishinig chegaralanishi
- 1.A,D\* 2.B,V 3.G,D 4.A,V
3. SHilliq qavatning chandiqlari va yuganchalari qaysi yo'l bilan bartaraf etiladi?
- A. mahaliy to'qimalar bilan plastika
  - B. terini erkin ko'chiriyu o'tkazish
  - V. chandiq yoki qisqa yuganchalarni kesish
  - G. oyoqchadagi lahtak bilan plastika
  - D. to'g'ri javob yo'q
- 1.A,V\* 2.A,B 3.G,D 4.V,G
4. Echiladigan protezning yomon fiksatsiya bo'lishiga sabab?
- A. yuqori lab yuganchasining past joylashgani
  - B. aniq ifodalangan torus
  - V. alveolyar o'siqning yo'qligi
  - G. tilning kalta yuganchasi
  - D. aniq ifodalangan alveolyar o'siq
- 1.A,B,V\*G 2.B,V,G,D 3.A,V,G,D 4.A,B,G,D
5. CHandiqli qayishmalarni xosil bo'lishiga sabab bo'lmaydi:
- A. kuyishlar
  - B. operatsiyalar
  - V. nekroz
  - G. parodontit

D. periodontit

1.G,D\* 2.A,B 3.V,G 4.A,G

6. Ekzostoz sabablari

A. suyak qirralari mavjud, ular ustidagi shilliq qavat rangi o'zganmagan

B. palpatsiyada og'riqsiz

V. palpatsiyada og'riqli

G. ularning yuzasida shilliq qavat gipertrofiyasi

D. alveolyar o'siq suyagining muftasimon qalinlashuvi

1. A,V,G\* 2.B,G,D 3.V,GD A,G,D

7. Tanglay bolishchasini olishda qanday kesim o'tkaziladi?

A. tanglay o'rtasidan

B. bolishchani ikki tarafidan

V. bolishcha oldidan

G. bolishcha orqasidan

D. tilsimon lahtak ajratiladi

1. A,D\* 2) AV; 3) BD; 4) VG; 5) GD

### Vaziyatli masalalar:

1. Bemor 45 yoshda. Pastki jag` uchun echiladigan protez tayyorlangan. Ovqatlanish vaqtida kuchayadigan 6 tish sohasidagi og'riqlarga va yara mavjudligiga shikoyat qiladi. Ko'rikda: 6-7 tishlar sohasida vestibulyar yuzada g`adir-budurlik mavjud, shilliq qavat giperemiyalangan. Palpatsiya og'riqli.

1) Tashhis qo'ying

2) Qo'shimcha tekshirish usullari

3) Davolash rejasini tuzing

Javob: 1. 67 tish sohasida pastki jag` ekzostozi

2. Rentgenografiya

3. 67 tish sohasida pastki jag` ekzostozini olish

2. Bemor 36 yoshda. 20 yil davomida yuqori jag`da protez taqadi. Protez fiksatsiyasi yomon. Ko'rikda: o'tish burmasi sohasida og'iz bo'shlig`ining kichik dahlizi, toj ustida "osilgan" shilliq qavat, palpatsiyada alveolyar o'siqning vestibulyar yuzasida o'tkir suyak qirralari aniqlandi. Natijada protezning yomon fiksatsiyasi va og'riqlarning paydo bo'lishi.

1) Tashhis qo'ying

2) Qo'shimcha tekshirish usullari

3) Davolash rejasini tuzing

Javob: 1. Og'iz bo'shlig`i dahlizining kichikligi, "osilib turuvchi" qirra, ekzostoz.

2. Rentgenografiya

3. Alveolyar o'siq qirrasining ortiqcha to'qimasini olish

3. Xirurgik stomatologiya klinikasiga 67 yoshli bemor murojat qildi. Pastki jag`da 5678 tishlar yo'q. Yo'q bo'lgan tishlar sohasidagi alveolyar o'siqning til yuzasida suyak qirralari aniqlanyapti, palpatsiyada yupqa, og'riqsiz, gipertrofiyalangan. Bemor 1 hafta davomida qisman olinadigan protezdan foydalanyapti. Protezlashga qadar shikoyatlari yo'q edi.

1) Tashhis qo'ying

2) Davolash rejasini tuzing

Javob: 1. 5678 sohasidagi ekzostoz

2. Ekzostozni olish operatsiyasi

4. Bemor 61 yosh. Pastki jag` echiladigan protezi yomon fiksatsiyalangan va destabildir. Og'izgi ochganda va tilni harakatlaganda protez tushib ketyapti. Mahalliy ko'rikda: alveolyar o'siqning III darajali atrofiyasi.

1) Tashhis qo'ying

2) Davolash rejasini tuzing

Javob: 1. Alveolyar o'siqning III darajali atrofiyasi

2. Alveolyar o'siq plastikasi



### 6.3. Amaliy qism

Mulyaj, model va volyonderda o'tkaziladi. Bemorlarni tekshirish pedagog ishtirokida olib boriladi. Talaba amaliyotda parodont kasalliklari, kalta lab va til yuganchalari, ekzostozlar, shilliq qavat tyajlari mavjud bo'lgan bemorlardan to'g'ri anamnez yig'ishni bilishi lozim. Bunda asosiy va ikkilamchi ma'lumotlarni farqlay olishi kerak. Jag` suyaklari palratsiyalashni va qalinligini aniqlay olishi lozim. Jag` suyaklari va shilliq qavat qalinligini aniqlash maqsadida ignali shtangentsirkulni qo'llashni bilishi lozim. Bemor ko'rigi xam vizual, xam palpatsiya orqali amalga oshiriladi. Bunda talaba bilimi baxolanadi – qanchalik mavzuga oid kasalni to'g'ri va aniq tekshirishi, bemor bilan muloqot vaqtida bemor ruhiyatiga e'tibor berish kerak. Bemorlarni tekshirishda talabani instrumentlar bilan ishlashi, palpatsiya qilishni va rentgen tasvirda suyaklar strukturasi to'g'ri baxolay olishni o'rganishi lozim, nuqson sohasini va implantat sohasini aniqlay olishi lozim. Bundan tashqari talaba bemorni ambulator va kasallik tarixini to'g'ri to'ldira olishni bilishi lozim.

Agar mavzuga oid bemorlar topilmasa interaktiv uyin «vrach» va «bemor» o'yini o'tkaziladi. Bunda xar ikki talaba xam baholanadi, ya'ni bemor talaba qanday qilib o'z

#### **Mashg'ulotda qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar: «Qora quticha», «o'rgimchak ini»**

##### **«QORA QUTICHA» USULINI QO'LLASH**

Ushbu usul mashg'ulot davomida hamkorlikda ishlash va har bir talabaning faol qatnashishini ko'zda tutadi, o'qituvchi butun guruh bilan ishlaydi.

Har bir talaba qora qutichadan nomalum preparatning qisqa annotatsiyasi yozilgan kartochkani oladi. Talabalar o'z javoblarini asoslagan xolda ushbu preparatni aniqlashi kerak.

Talabaga javob berish uchun 3 daqiqa beriladi. So'ngra javoblar muhokama qilinadi, preparatning farmakodinamika va farmakokinetikasi to'ldiriladi. Usulning ohirida o'qituvchi berilgan javoblarni muhokama qiladi va talabalarining faolligini aniqlaydi.

Ushbu usul talaba nutqi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va talabada mustaqil fikrlash, muloxaza yuritishni shakllantiradi.

##### **«O'RGIMCHAK INI» USULINI QO'LLASH**

#### **Qadamlar:**

1. Talabalarga o'tgan darslardan savollar tayyorlash uchun vaqt beriladi.
2. Ishtirokchilar doira bo'lib o'tirishadi.
3. Ishtirokchilarning biriga ip bilan bog'langan ko'ptokcha beriladi, u xoxlagan talabaga o'zi oldindan tayyorlagan savolni ( javobni o'zi bilishi shart) berib, ko'ptokchani topshiradi.
4. Ko'ptokchani olgan talaba savolga javob beradi (savol bergan ishtirokchi javobni sharxlab turadi) va savolni boshqa ishtirokchiga beradi. Bu musobaka hamma ishtirokchilar “o'rgimchak ini”ga o'ralguncha davom etadi.
5. Hamma talabalar savol berib bo'lgach, ohirga talaba qo'lidagi ko'ptokchani birinchi savol bergan ishtirokchiga qaytaradi va unga savol beradi va x.k., bu xol chigal echilgunga qadar davom etadi.

Eslatma: talabalardan xar bir javobga e'tiborli bo'lish talab qilinadi, chunki oldindan qaysi talabaga ko'ptokcha berilishi noma'lum

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

-asosiy

2. Robustova T.G. «Xirurgicheskaya stomatologiya» Moskva , 2003.
2. Azimov M.I. Jarroxlik stomatologiya propedevtikasi / «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent – 2009. 247 b.

-qo'shimcha

6. Bernadskiy Yu.Yu. “Osnovi xirurgicheskoy stomatologii” Kiev, 1984.
7. Dunaevskiy V.A. xirurgicheskaya stomatologiya “ Leningrad, 1981
8. Evdokimov A.I. , Vasilev G.A. “Xirurgicheskaya stomatologiya “.,Moskva, 1964.
9. Zausaev V.I. «xirurgicheskaya stomatologiya» Moskva, 1980.
10. Shargorodskiy A.G. “Vospalitelnie zabolevaniya chelyustno-litsevoy oblasti i shei”.
11. Ma'ruza materiallari №2 6-semestr.

**Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar**  
**Mustaqil ta`lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1.	"O`zbekistonda stomatologiyani rivojlantirishga xissa qo`shgan olimlar.	2
2.	"Uch shoxli nerv birinchi shoxini tuzilishini va uning innervatsiya zonalari.	2
3.	"Zamonaviy og`riqsizlantiruvchi dori vositalar va ularni xarakteristikasi.	2
4.	"Xirurgik stomatologiya poliklinikasida qo`llaniladigan og`riqsizlantirish usullari.	2
5.	"Mahalliy anestetiklarni ta`sirini uzaytiruvchi vositalarni ta'siri va o`ziga xos xususiyatlari. "Mahalliy anesteziyada uchraydigan mahalliy asorotlar va ularni davolash printsiplari.	2
6.	"Yuqori va paski jag`da markaziy og`riqsizlantirish usullari.	2
7.	"Yondosh kasalliklari bor bemorlarda og`riqsizlantirish usulini tanlash.	2
8.	"Mahalliy o`riqsizlantirishda sodir bo`ladigan mahalliy asorotlar.	2
9.	"Xushdan ketish.Uning belgilari. hushdan ketishda 1-yordam ko`rsatish.	2
10.	"Kollaps. Uning belgilari. Kollaps holatida 1-yordam ko`rsatish. "Anafilaktik shok. Klinikasi. Birinchi yordam.	2
11.	"Endotraxeal narkoz. Poliklinika sharoitida endotraxeal narkoz o`tkazish. "Endotraxeal narkoz o`tkazishga ko`rsatmalar (prezentatsiya). "Umumiy narkoz uchun ishlatiladigan zamonaviy dori vositalari.	2
12.	"Zamonaviy qon to`xtatuvchi umumiy medikamentoz dori vositalari.	2
13.	"Tishlarni bor mashina, doloto va elevatorlar bilan olish.	2
14.	"Tish saqlovchi operatsiyalarga ko`rsatma va qarshi ko`rsatmalar. "Replantatsiya, transplantatsiya. Ko`rsatma va qarshi ko`rsatmalar. "Tish chiqish kasalliklarini zamonaviy rentgenologik tekshirish usullari. "Tish chiqishi kasalliklarida davolash tako`tikasini tanlash. "Tish olishdan so`nggi tish katagini bitishi etaplari va uni optimallashtirish.	2
15.	"Noodontogen yallig`lanish kasalliklarini zamonaviy tekshirish usullari.	2
16.	"Limfadenitlar va qiyosiy tashxislash.	1
		31c

### 5.Glossariy

**Abssess (abscessus).** YUz yumshoq to`qimalari (teri, burun, lab, ogiz bushligi shilliq qavati)ning butunligi buzilishi yoki yallig`lanishi bilan kechadigan yiringli xirurgik kasallik.

**Ageneziya (agenesia).** Ma`lum bir a`zo yoki tana qismining tug`ma shakllanmaganligi yoki umuman yo`qligi. Masalan 2 kesuvchi va 3 katta oziq tishlarning yu`qligi

**Agnatiya (agnathia).** Juda kam uchraydigan anomaliya bo`lib, yuqori yoki pastki jag`ning tug`ma yo`qligi.

**Adenoflegmona** - Limfatik tugundan uning yo`nalishi bo`ylab tarqaluvchi atrof kletchatkalarining yallig`lanishi bilan kechuvchi yiringli infeksiyon kasallik.

**Adentiya** - Tishlar umumiy sonining kamayishi.

**Aktinomikoz** – To`lqinsimon kechuvchi, turli tuqima va a`zolar butunligining buzilishi bilan davom etadigan surunkali spesefik kasallik.

**Allotransplantasiya** - Olingandan so`ng kerakli ishlov berish bosqichlaridan o`tgan xolda konservant xolida saqlangan inson tishi yoki a`zosining boshqa odamga o`rnatish.

**Al`veolatomiya** - Tish alveolasi devorini kesib ochish.

**Al`veola** - jagning alveolyar usigidagi o`zida tish saqlovchi katak.

**Al`veolit** - olingan tish katagining yallig`lanishi. Tish olingandan keyingi asorat xisoblanadi. Ko`pincha tishni murakkab olingandan so`ng yuzaga keladi. Sababi tish olingandan so`ng usha katakta qon laxtagining shakllanmasligi .

**Al`veolyar usik** - jag suyagining bir kismi bulib unda tish katori shakllanadi

**Al`veoektomiya** - tish al`veolasi devorlari va al`veolalar oro devorning olib tashlanishi.

**Ankiloz** – jag`larning jipslashib qolishi va CHPJBda harakatning qisman yoki butunlay yo`qolishi bilan xarakterlanadigan kasallik bo`lib, bo`g`im boshchasi va bo`g`im chuqurchasining, ba`zida esa atrof to`qimalarning qattiq fibroz yoki suyak moddasi bilan birikishi kuzatiladi.

**Asfiksiya** - YUz soxasidagi turli yiringli yalliglanish kasalliklari (abscess, flegmona, glossit, Lyudvig anginasi), travmatik jaroxatlar, narkoz va turli jarroxlik aralashuvlar asorati sifatida kelib chikadi.

**Ateroma** - yog bezining chikaruv yullari yaxshi ishlamasligi natijasida kelib chikuvchi kistalar.

**Aftoz stomatit** - ogiz bushligi shillik kavatining surunkali yalliglanish kasalligi bulib, aftalar kurinishida boshlanadi.

**Autotransplantasiya.** Bunday jarrohlik usuli bir tishni boshqa alveola katagiga ko'chirib o'tqazish orqali amalga oshiriladi.

**Allotransplantasiya.** Tish allotransplantasiyasi – bir bemordan ikkinchi bemorga tishni ko'chirib o'tqazish demakdir.

**Ameloblastoma.** Ameloblastoma – xavfsiz epitelial o'sma hisoblanib, invaziv o'sish xususiyatiga ega.

**Adenoma** epitelial o'smalarning xavfsiz turi, xavfli turlari esa – *karsinomalar* deyiladi.

**Bandaj.** SHina, apparat, turli boglamalar kiradi.

**BEXCHEG sindromi.** Virus etiologiyali surunkali kasallik bo'lib, ogiz shilliq qavati, jinsiy aʼzolar, ko'rish azolarining shikastlanishi bilan xarakterlanadi.

**Biopsiya (biopsia).** Mikroskopik tekshiruvlar uchun tirik tuqimalardan qisman olish.

**Bifurkasiya (bifurcatio).** Tish ildizlarining akki yoki uch qismga ajralishi.

**Bouen kasalligi.** Bu shilliq qavat va terining kam uchraydigan hamda sekin rivojlanuvchi, o'choqli kasalligi bo'lib, xavfli diskaratotik o'zgarishlar va chin rakka aylanishi bilan xarakterlanadi.

**Birlamchi kista [keratokista].** Keratokistalar asosan pastki jag'larda rivojlanib, kam uchraydi, uzoq vaqt sezilmaydi va sekin o'sadi. Tekshirilganda katta oziq tishlardan birida yoki o'sha sohada sezilar-sezilmas shish kuzatiladi, og'riq bezovta qilmaydi.

**Veliss sindromi.** Uzunchoq miyani jaroxatlanishi natijasida patologik soxadagi ovoz mushaklari va yumshoq tanglay paralichi bilan birga MAT ning usha tarafida patologik uchoq xamda karama karshi tarafda markaziy gemiparez (gemiplegiya) ning kuzatilishi.

**Vandervud sindromi.** Pastki labdagi simmetrik joylashgan kistalar, tanglay baʼzi xolatlarda yuqori lab yumshoq tuqimalarining parchalanishi.

**Vensan simptomi.** Pastki jag tukimalarining patologik uzgarishi: pastki al'veolyar nerv tolalarining ezilishi yoki uzilishi, yalliglanish natijasida pastki lab va daxan soxalarining yarim tomonida anesteziya yoki paresteziya kuzatilishi bilan xarakterlanadi.

**Vestibuloplastika.** Milkning birikish soxasi va ogiz daxliz qismini kattalashtirish maqsadida usha soxadagi yumshok to'qimalarda o'tkaziladigan operatsiya

**Gingivit** – milkning yallig'lanishi bo'lib, bu jarayon umumiy va mahalliy salbiy taʼsirotlar bilan ifodalanadi hamda tish-milk birikmasi yaxlitligining buzilmasligi bilan xarakterlanadi. Uning kataral, gipertrofik va yarali ko'rinishlari farqlanadi. Gingivit turlari kechishiga qarab: engil, o'rta va og'ir darajada bo'lishi mumkin. Davrlari: o'tkir va surunkali, remissiya va o'tkirlashuv. Tarqalishiga ko'ra, lokal (o'choqli chegaralangan) va generallashgan (tarqoq) turlari kuzatiladi.

**Gingival xirurgiya** – parodont to'qimasining erkin va milkka birikkan qismlarida o'tkaziladigan operatsiyalar.

**Gingivotomiya** – parodontal cho'ntakni kesish va uni kyuretajlash

**Gingivoektomiya** chuqur parodontal cho'ntaklarning devorlarini tubigacha kesib olish va kyuretajlashdan iborat.

**Gemangioma** bu – xavfsiz, chegaralanmagan, qon tomirlarining proliferatsiyasidan hosil bo'luvchi o'sma.

**Gaymorit (highmoritis).** YUKori jag bushligining yalliglanishi ( yukori jag bushligiga tassif bergan anatom Highmore ning familiyasidan olingan).

**Gemangioma (haemangioma). Kon tomirdan shakllanuvchi yaxshi sifatli usma.** Gemangioma og'iz bo'shligida joylashgan xolatlarda protezlash qat'iy tanqiziladi.

**Gemartroz (haemarthrosis).** Bo'g'im bo'shlig'iga kon qo'yilishi (masalan travma natijasida CHPJB ga qon quyilishi).

**Gemorragiya (haemorrhagia).** Qon ketishi. Masalan milkdan qon ketishi - gemorragik gingivit.

**Geren simptomi.** YUQori jag singanda: og'izni katta ochgan xolda Ko'rsatkich barmoqlar bilan asosiy suyakning qanotsimon usiq ilgaklarini bosganda butun jag' buylab og'riq paydo bo'lishi.

**Glossalgiya (glossalgia).** Nevrologik simptomlar bilan kechuvchi til kasalligi (paresteziya, achishish xissi va boshk.). SHuningdek, okklyuzion balandlikning pasayishi.

**Granulyoma (granuloma).** Tuqimalarning yallig'lanish asoratida usishi (masalan, tish apikal soxasida).

**Daxanosti lab - egati** – bu daxan osti do'mbogidan ajratib turuvchi pastki labning pastki chegarasidir. YAssi daxanli yuzlarda birmuncha shilliqlangan ko'rinishi mumkin (noto'gri protezlash natijasida alveolalararo balandlikning suniy uzaytirilishi xisobiga) yoki aksincha chukur prikusli yuzlarda chukurlashishi mumkin.

**Diffuzli lipomatoz.** Bu o'smasimon hosila bo'lib, etuk yog' to'qimasining proliferatsiyasi hisobiga rivojlanadi.

**Ildiz uchi rezeksiyasi.** Ildiz uchi rezeksiyasi, periodont to'qimasidagi surunkali destruktiv yallig'lanish jarayonlarini bartaraf etish imkoni bo'lmaganda hamda shu tishlarni konservativ usulda davolab bo'lmaydigan hollarda (ildiz kanallari qiyshiq yoki unda yot tananing bo'lishi) o'tkaziladi.

**Ildiz amputatsiyasi** gemiseksiyaga bo'lgani kabi ko'rsatmalar mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Odatda, ko'pincha katta oziq tishlarning ma'lum bir ildizi olib tashlanadi.

**Ildizlararo granuloektomiya** usuli – bu tish bo'shlig'i yoki uning kanallarida perforasion yoriqlar mavjud bo'lganda shu sohadagi granulyasion to'qimalarni olib tashlashni ko'zda tutuvchi jarrohlik harakatidir.

**Implantat.** Turli materiallardan tayyorlangan, tanaga jarroxlik yo'li bilan o'rnatiladigan va vaqtincha yoki doimiy ma'lum bir vazifani bajarish uchun xizmat qiladigan moslama. Tish implanti bir necha kislardan: milkosti suyak bilan birikib ketuvchi qism, milk usti xamda suprakonstruksiyadan (sun'iy tish, olib quyiluvchi protez) iborat.

**Koronoradikulyar separasiya.** Bunday jarrohlik harakati katta oziq tishlarning qaysidir ildizida patologik o'choq shakllanganida, ildizlarning birikish qismida (trifurkasiya sohasi) amalga oshiriladi.

**Keratoakantoma.** Bu tez rivojlanuvchi va tashqi ta'sirsiz, o'z-o'zidan yo'qolib ketuvchi epidermal xavfsiz o'sma bo'lib, ko'p hollarda rakka o'tadi.

**Kistogranulyoma** (lot. granulum - donacha) – bo'shlik ichki qavati epiteliy bilan qoplangan granulematoz periodontit kurinishida buladi. Kistogranulyoma diametri 0,5 - 0,8 sm.ni tashkil etadi.

**Kontraktura** (lot. contractura - torayish, qiskarish) - YUmshok tukimalar(teri, mushak, fassiya, bog'lamlar)dagi xamda bugimni innervasiyalovchi nerv tolalaridagi patologik o'zgarishlar natijasida bo'g'im xarakatlanishining chegaralanishi.

**Karbunkul** - teri va teri osti yog kletchatkasining o'tkir yiringli – yallig'lanish jarayoni bo'lib, bir nechta soch folikulasi va yog bezlarigacha tarqaluvchi kasallik.

**Kvinke shishi. Etiologiyasi:** vazomotor innervasiyaning konstitusional buzilishi. Kvinke shishi asosida parasimpatik asab tizimi tonusi oshishi (maxalliy arteriolalar va kapilyar tomirlarining kengayishi va ularning utkazuvchanligining oshishi) yotadi. Spesefik allergenlar ta'birida sensibillashgan organizmda yuzaga keladi (ozik - ovkat maxsulotlari: tuxum, kulupnay va boshq. Gullar, xayvonlar) va nospesefik ta'birlovchilar(muzlash, infeksiya, intoksikasiya, psixik xamda travmalar).

**Kista** (gr. kiste- pufak) – o'smasimon xosila bo'lib, ichki yuzasi epiteliy bilan qoplangan , tashqi qavati esa fibroz to'qimadan tashkil topgan bo'ladi. Bo'shlik ichida kupincha tinik, ba'zan yaltirok tusdagi suyuqlik buladi. SHuningdek, uzida shakllanmagan tish surgichini saklashi mumkin (follikulyar kista).

**Lipoma:** etilgan yog' to'qimasidan hosil bo'luvchi xavfsiz o'sma hisoblanadi.

**Limfangioma** limfa qon tomirlarida o'sadigan o'smalar. Qon tomir o'smalariga qaraganda kam uchraydi.

**Leykoplakiya (leucoplakia).** Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining surunkali kasalligi bo'lib, kasallik epiteliy qavatining shoxlanishi va shilliq qavatning yallig'lanishi bilan kechadi. Kupincha lab kizil xoshiyasida va ogiz bushligi shillik kavatida uchraydi. Ba'zi xollarda qizilo'ngach, jinsiy a'zolar va tug'ri ichak shilliq qavatida kuzatiladi. Bu kasallik bolalar yoshida juda kam uchraydi. Asosan o'rta va katta yoshlardagi insonlarda uchraydi. Kasallik asosan yomon odatlar ta'birida shakllanadi. Leykoplakiya fakultativ rakoldi kasalliklariga kiradi.

**Maxalliy anesteziya** - YUmshoq to'qimalarga dori vositalarini yuborish orqali bir yoki bir nechta tishni og'riqsizlantirish.

**Mikulich kasalligi.** So'lak bezi (katta- kulokoldi, jagosti, tilosti va kichik- lab, lunj, tanglay, til) va kuz yosh bezlarining xajm jixatdan kattalashishi xamda og'iz bo'shligining qurishi bilan xarakterlanuvchi kasalligi.

**Mramor kasalligi (osteopetrosis)** – Tug'ma oilaviy osteoskleroz. Bu kasallik juda kam uchrab, tana suyaklarning diffuz osteoskleroz ko'rinishida kechadi. Tishlar saqlab qolinishining bir yuli uz vaktida ortopedik muolajalarni utkazish.

**Murakkab odontomada** – tarkibida tish shaklini eslatuvchi hosilalar tutgan fibroz qavatida o'choqli emirilishlar kuzatiladigan odontogen o'sma.

**Monomorf adenoma** so'lak bezlari o'smalarining 6, 8 % ga yaqinini tashkil qiladi va u so'lak bezlarining surunkali yallig'lanish kasalliklari natijasida kelib chiqishi mumkin. Monomorf adenoma xavfsiz o'sma hisoblanadi.

**Milk (gingiva).** Al'veolyar usikni koplav turuvchi, tishlarni yarimoysimon boglam shaklida tishlarni urav turuvchi, tishlararo surgich xosil kiluvchi va ular orasida kontakt yuzalarni xosil kiluvchi shillik kavat. Milk epiteliy va xususiy shillik kavatidan tashkil topib, tomirlarga boy xamda shilliqosti qavatisiz to'g'ridan to'g'ri suyak usti pardasiga boglanadi. Milk tish bo'yin qismini urav turadi lekin u bilan bog'lanmagan xolda tish - milk cho'ntagini xosil qiladi.

**Milk egati** - Tishlar va milk xamda epiteliy birikmasigacha bo'lgan erkin milk orasidagi egat.milk egatining chuqurligi 0,5-3 mm ni tashkil etadi.

**Mukoepidermoid o'sma** so'lak bezlari chiqaruv yo'llarining epiteliysidan rivojlanuvchi xavfli o'sma.

**Noto'liq oddiy odontoma** – tish follikulasining bir qismidan o'sadi.

**Osteometriya** – bu esa ultratovushning o'tish vaqtiga asoslangan holda pastki jag' suyak to'qimasining zichligini aniqlash imkonini beruvchi tekshiruv usuli hisoblanadi.

**Odontoma.**Bu tish to'qimalarining anomaliasini hisoblanadi va tipik odontogen o'sma hisoblanadi.

**Osteoma** – etuk suyak to'qimasidan rivojlangan xavfsiz o'sma hisoblanadi.

**Osteoblastoklastoma** – osteogen xavfsiz o'sma

**Osteoartroz** – distrofik xarakterga ega bo'lgan chakka-pastki jag' bo'g'imining surunkali kasalligi bo'lib, modda almashinuvidagi va neyrodistrofik buzilishlar, surunkali artritlar, og'riq disfunktsiyasi sindromi, bo'g'imning surunkali travmasi, noto'g'ri protezlash, chaynov mushaklari holatining o'zgarishi va boshqalar bunga sababchi bo'lishi mumkin.

**Og'riqli disfunktsiya sindromi.** CHPJB funksiyasining buzilishi, bo'g'imning barcha harakatlarini boshqaradigan, murakkab nerv-mushak mexanizmidagi o'zgarishlari bilan kechuvchi kasallik.

**Og'riqli disfunktsiya sindromi.** CHakka-pastki jag' bo'g'imining og'riqli disfunktsiyasi (CHPJOD) – bu simptomokompleks bo'lib, chakka-pastki jag' bo'g'imi sohasida og'riq va uning disfunktsiyasi bilan xarakterlanadi.

**Parodont** – bu tish atrofini o'rab turuvchi va uning jag' suyaklaridagi fiksatsiyasini ta'minlab turuvchi to'qimalar yig'indisidir. Parodont tarkibiga milk, periodontning tolali apparati, al'veolyar o'siq suyaklari va tish ildizlari sementining yuza qavati kiradi.

**Parodontit** – parodont to'qimasining yallig'lanishi bo'lib, tish-milk birikmasining zararlanishi bilan boshlanadi va parodont to'qimasi, tishlararo suyaq to'qimali to'siqlarning destruksiyasi bilan xarakterlanadi. Engil, o'rta va og'ir darajalari farqlanadi. O'tkir va surunkali, o'tkirlashgan, remissiya davrlari kuzatilishi mumkin.

**Parodontoz** – bu parodontning distrofik zararlanishidir. Turlari: 1. Al'veolyar o'siq suyak to'qimasining destruksiyasiga qarab: engil, o'rta va og'ir. 2. Kasallikning kechishiga qarab: surunkali va remissiyalanuvchi. 3. Tarqalishiga ko'ra – generallasgan.

**Parodontomal** – parodont to'qimasidagi hosil bo'luvchi o'sma va o'smasimon jarayonlardir. Bu guruhga odatiy holatlarda uchraydigan epulis va milk fibromatozlari kiradi.

**Parodontal sindrom.** Bu sindromga parodont to'qimasining qandli diabet, eozinofil granulyoma, surunkali va davriy neytropeniya singari kasalliklarda, shuningdek, homiladorlik davrida yuzaga keluvchi zararlanishlar kiradi.

**Periodontal sementli displaziya.**Bu o'smasimon hosila bo'lib, bunda sement to'qimasi hosil bo'lishi buzilib, xuddi fibroz displaziyaga o'xshash kechadi va jag'larni diffuz zararlaydi.

**Polimorf adenoma** , so'lak bezining epiteliyal xavfsiz o'smasi. So'lak bezlarining adenoma bilan zararlanishi bo'yicha birinchi o'rinda turadi.

**Reoparodontografiya** – bu usul parodont to'qimasining qay darajada qon bilan ta'minlanishi haqida ma'lumot beradi.

**Retromolyar [paradental] kistalar.**Retromolyar kistalarga pastki jag' burchagi va pastki aql tishi orqasida joylashgan kistalar kiradi. Bu kistalarning kelib chiqishi tish atrofi to'qimalarining surunkali yallig'lanishi va pastki jag' aql tishlarining o'sib chiqishi bilan bog'liq. Bu holatda yallig'langan to'qima va aql tishining ustki kapyushoni kistaga aylanishi mumkin.

**Rinofima**– yog' bezining o'smasimon hosilasi bo'lib, burun terisining tog'ayli qismida, asosan, o'rta va katta yoshli erkaklarda uchraydi.

**Radikulyar kista.** YAllig'lanish jarayoni natijasida ildiz uchidan boshlab rivojlanadigan kistalar *radikulyar kistalar* deyiladi. Ular apikal yoki yon kistalar bo'lishi mumkin.

**Suyaklanuvchi fibroma (fibroosteoma).** Suyaklanuvchi fibroma – xavfsiz o'sma bo'lib, faqat jag' suyaklarida uchraydi.

**Sulak tosh kasalligi.** Sulak bezlarining eng kup uchraydigan kasalligi. Kupincha konkrementlar jag' osti bezi va uning chiqaruv yullarida xamda ba'zi xollarda kulok oldi sulak bezida kuzatiladi.

**Tish chikish kasalligi.** Ko'pincha 3 katta oziq tishlar(aynichsa pastki jag'dagi) chikish vaqtida uni ko'plab turgan atrof milk tukimasidagi infeksiya yallig'lanish jarayonlari ta'sirida yuzaga keladi.

**Tish kistasi.** Sinonimi - ildiz uchi jag' kistasi - bushligi al'veolyarusik kengigi buylab, ba'zan jag' tanasi buylab joylashadi va ichki kavati epiteliy bilan koplangan xamda kuyuk sarik yoki jigarrang tusli suyuqlik bilan tulgani bulib, suyuqlik tarkibida xolesterin kristallari, yiringlagan kistalarda- yiringli suyuqlik,shillik saklashi mumkin.

Radikular va follikulyar kistalar farqlanishi mumkin. Ildiz uchi kistalari granulyoma epiteliysidan surunkali periodontit asorati sifatida shaqllanadi.

**Tish retensiyasi (tish chiqishining kechikishi)** – turli sabablar tufayli tish chiqish jarayonining to'xtab qolishi.

**Tish yarim retensiyasi.** Tishning jag' suyagi to'qimasi yoki shilliq qavatdan noto'liq chiqishi

**Tish gemiseksiyasi** deganda, patologik o'choq shakllangan ildizni unga tegishli bo'lgan toj qismi bilan birga olib tashlash tushuniladi.

**Tish ildizi amputasiyasi** - Tish toj qismini saklagan xolda uning ildiz qismini olib tashlash.

**Tish vital replantasiyasi.** Tish vital replantasiyasi deyilganda, tish toj qismi hamda ildiz kanalidagi pul'paning tirikligini saqlab qolgan holda, o'z o'rniga joylashtirilishi tushuniladi.

**Tish replantasiyasi.** Tish replantasiyasi — bu tish olingandan keyin, uni yana o'z o'rniga joylashtirish operatsiyasi bo'lib, tishda konservativ davolash muolajalarini o'tkazish imkoni bo'lmagan holatlarda yoki tishning travmatik chiqish hollarida o'tkaziladi.

**Tish devital replantasiyasi.** Tish devital replantasiyasi – bu karies asoratlari natijasida olingan tishni og'iz bo'shlig'idan tashqarida davolangandan so'ng, yana o'z o'rniga qo'yish orqali amalga oshiriladi.

**Tish - milk patologik chuntagi.** I.G.Lukomskiy buyicha uning chukurligi 1,5 mm dan kup, milkning yalliglanishli infiltratsiyasidan (boshlangich)to milk cho'ntagining ichki yuzasidagi epiteliy butunligining buzilib milk asosidagi biriktiruvchi to'qimaning yalang'ochlanishigacha davom etishi mumkin (yara xolati).

**Tish - milk cho'ntagining yopik kyuretaji .**Tish soxasidagi yalliglangan tukima va chukur joylashgan milkosti toshlarini olishdan iborat.

**Tishning chikishi (dens luxatio)** - tish urab turuvchi boglov apparati butunligining buzilishi natijasida uning uz urnidan siljishi. To'lik va no'tulik bo'lishi mumkin. Etiologiyasi : jaroxat (lat eyish). Asosiy belgilar: noto'lik chikishda- rotasiyada xarakatsizlik, tulik - lat eyish taʼsirida tishning katagidan tashkariga chikishi(boglov apparatining butunligi buzilgan bo'ladi).

**Tish kimirlashi.** Fiziologik va patologik ko'rinishda bulishi mumkin. Tishning fiziologik kimirlashi vizual tekshiruvda aniklash juda kiyin va sezilmaydi. Buni fakatgina tishlarning kontakt yuzalaridagi ishqalangan maydonlarning xosil bo'lishi bilan asoslab berish mumkin.Patologik kimirlashni pal'pator va instrumental tekshiruvlar asosida aniqlab beriladi.

**Tish implantasiyasi (implantation)** - Turli meteriallardan tayyorlangan tish imlantatlari yordamida tish katorini butunligini tiklash, tish qatori oxirlarida qo'shimcha tayanch nuqtalarni xosil kilish operatsiyalari kiradi

Tish implantasiyasining quyidagi turlari mavjud:

1. submukoz;
2. subperiostal';
3. endodontoendoossal';
4. endoossal';
5. transossal'.

Ko'pincha endoossal implantasiyasi o'tkaziladi. Buning uchun xozirgi kunda plastinkali silindrik implantatlardan foydalaniladi. Bunda xar bir implatat turi uchun maxsus asboblardan foydalaniladi. Xar bir implantat uchun ko'rsatma va karshi ko'rsatmalar mavjud. Absolyut karshi kursatmalar- bruksizm, endokrin kasalliklari, ogiz bushligining onkologik kasalliklari, qon tizimi va won yaratuvchi abzolar kasalliklari, markaziy va pereferik asab tizimining kasalliklari xamda psixik kasalliklar.

**Tish so'rgichi.** Embrional xayotning 10- haftasida emal' oganiga usib kirib, mezinximadan shakllanadi. Tish so'rgichining shakli bulajak sut tishlari toj qismining shakli bilan bir xilda buladi.

**Tish xaltachasi.** Tish rivojlanishini embrional bosqichida rivojlanadi. Tish so'rgichini o'rab oluvchi zichlashgan mezenxima ko'rinishida bo'ladi. Tish xaltachasi to'qimasi tish surgichi asosida mezenxima bilan birikadi xamda boshqa soxalarda emal'organining tashki yuzasiga zich yo'pishib joylashadi.

**To'liq oddiy odontoma** – xuddi fil suyagi singari qattiq,hajmi dumaloq va oval shakldagi o'rmon yong'og'i kattaligida bo'lib, bir tishning hamma elementidan tashkil topadi.

**Tish saqlovchi [follikulyar] kista.**Tish saqlovchi kistalar hali chiqmagan tishlarning emal' organidan ko'pincha pastki jag'ning uchinchi molyarida, shuningdek, yuqori jag'ning katta oziq va qoziq tishlarida rivojlanadi.

**Til ildizi** - tilning orqa kismi bulib, pastki jag va tilosti suyagiga birikadi.

**Follikulyar kista.** Sinonimi - tish toji atrofi kistasi, yorib chikmagan tish toj kismida (follikulasidan) shakllanadi.Bunday kistalar jag'ning istalgan kismida rivojlanishi mumkin va sekin usishi bilan xarakterlanadi.

Kista ulchami kattalashgani sari usha soxadagi suyakni deformatsiyalanishiga olib keladi va shuning natijasida yuzning assimetriyalanishi kuzatiladi. "Pergament kisirlashi" simptomi aynan shu kasallikka xos buladi.

**Fibroma** – bu etuk fibroz biriktiruvchi to'qimadan rivojlanadigan xavfsiz o'sma hisoblanadi. Xavfli turi-*fibrosarkomalar* ko'rinishida tafovutlanadi. O'smasimon hosilalarga *fibrmatoz* va *epulis* kiradi.

**Frenulotomiya** til yuganchasining kaltaligida uni kesish orqali amalga oshiriladigan jarroxlilik muolajasi.

**Folikulyar kistalar** hali yorib chiqmagan tishning emalidan rivojlanadi. Kista ko'proq pastki uchinchi molyar, qoziq va yuqori jag'dagi uchinchi molyar tishlarda hosil bo'ladi.

**Haqiqiy sementoma** – bu xavfsiz o'sma bo'lib, sementga o'xshash to'qima mineralizasiyaning har xil vaqtda hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi.

**Xalka (urtica)**. YAlliglanish natijasida terida paydo bulgan chegaralangan aylanasimon shish (yuzasi kutarilgan). Xalka rangi okosh atrof tukima giperemiyalangan kurinishda. Odatga ko'ra ogiz bo'shligida bunday halka shakllanmaydi. Kvinke shishi bundan mustasno.

**"Xarakatchan" do'mbok. Al'veolyar usikdagi shillik kavatdan xosil bulgan xarakatchan dumbok** . Ko'pincha yukori alveolyar usiqda tishsiz kismining oldingi soxasida paydo buladi. Bunday "xarakatchan" dumbuqlar olinuvchi protezlar tayyorlashda qiyinchiliklar tugdiradi.

**CHandiqli kontraktura**. Pastki jag' atrofidagi yumshoq to'qimalarda chandiqli o'zgarishlar natijasida vujudga keladi. Bu og'iz bo'shlig'ining yarali – nekrotik jarayonlarida (noma, skarlatinadan keyingi asorat, tif, yurak-qon tomir kasalliklarining dekompensasiyalangan shakllarida), surunkali o'ziga xos jarayonlar (sifilis, tuberkulyoz, aktinomikoz)da, issiqlikdan va kimyoviy kuyishlarda, jarohatlanishlarda (shular qatorida xavfsiz va xavfli o'smalarni olib tashlash operasiyalari) kelib chiqishi mumkin.

**CHakka - pastki jag bugimi (CHPJB) (articulatio temporoman-dibularae)**. CHakka suyagida joylashgan bo'g'im chuqurchasi (fossa mandibularis) va pastki jagda joylashgan bo'gim boshchasidan tashkil topgan.

**CHPJB kontrakturasi** – bu pastki jag' harakatlarining chegaralanishi yoki umuman harakatlanmasligi

**CHPJB ning artriti** - bu bugimning distrofik yalliglanishli kasalligi.

**CHPJBning artrozi** - chakka - pastki jag bugimining degenerativ shikastlanishi.

**Sementoma** – odontogen biriktiruvchi to'qimadan o'sib, bir yoki bir necha tishning ildizi bilan tutashgan odontogen usma

### Vaziyatli masalalar.

1. Xirurgik stomatologik poliklinikani ko'rilganda u moslashtirilgan joydaligi aniqlandi. Xonalar devorlarining  $\frac{1}{2}$  qismi oboy bilan qoplangan, qolgan qismi va potolok oqlangan, pol taxtali, sterilizatsiya xonasi  $5m^2$ , bakteritsid lampa yo'q.

1. Poliklinikada qanday sanitar normalar buzilganligini aniqladingiz?

2. Siz xonani qanday tashkillashtirardingiz?

Javob.

1. Xonalar devorlarining  $\frac{1}{2}$  qismi oboy bilan qoplangan, qolgan qismi va shipi oqlangan, pol taxtali, sterilizatsiya xonasi  $5m^2$ , bakteritsid lampa yo'q.

2. Xonalar devori 1.8m kam bo'lmagan balandlikda, operatsion xona butun devorlari polixlorvinil, poliesterol yoki glazur plitkalar bilan qoplangan bo'lishi kerak. Xonaning poli o'ralgan polixlorvinil material (linoleumom) yoki chinni plitka bilan, operatsion xona esa polimertsement mastik yoki chinni plitkalar qoplanishi kerak. Operatsion, operatsiya oldi, sterilizatsiya xonalari shifti suvliemultsiya, yog'li yoki elimli buyoq bilan, eshik va derazalar gliftali emal va yog'li bo'yoq bilan bo'yalishi kerak. Eshik va derazalar yuvish uchun qulay silliq va nam bilan tozalash imkoni bo'lishi kerak. Bakterotsid va ultrafiolet lampalar bo'lishi lozim. Sterilizatsion xona  $8m^2$  kam bo'lmasligi shart.

2. Xamshira steril stol tayyorladi, bunda stolning ko'p qismini material uchun kam qismini esa instrumentlar uchun ajratdi.

1. Xamshira stolni to'g'ri tayyorladimi?

2. Stolni qanday tayyorlash to'g'ri?

Javob: 1 noto'g'ri.

2. Katta qismda asbob-uskunalar, kichik qismda material bo'lishi kerak.

3. Stomatologik poliklinikada 3ta xirurg – stomatolog shtati ajratilgan. Xirurgik kabinetda 2ta kreslo bor va ish 2ta smenada tashkillashtirilgan. Birinchi smenada bemorlar sonining ko'pligini xisobga olib 2ta oliy va birinchi kategoriyali vrachlar, bitta xamshira va kichik tibbiy xodim ishlaydi, ikkinchi smenada bemorlar soni kamroq shuning uchun 1yil oldin klinik ordinaturani tugatgan bitta vrach va kichik tibbiy xodim siz bitta xamshira ishlaydi.

1. Smenalar bo'yicha tibbiy xodimlar soni to'g'ri rejalashtirilganmi?

2. SHTatlar jadvali Sog'liqni saqlash vazirligi qarori bo'yicha tuzilganmi?

Javob: 1 noto'g'ri

2. Xamshiralalar shtati xar bir xirurg stomatologga bitta xamshira to'g'ri keladi. Kichik tibbiy xodimlar shtati bo'yicha bitta vrachga bitta kichik tibbiy xodim to'g'ri keladi.

4. Bemor poliklinikaga pastki jag` o'ng tomonida o'tkir og'riq borligiga shikoyat qilib keldi, og'riq kecha kechqurun paydo bo'lib kechasi keskin. Og'riq xurujsimon, o'z – o'zidan paydo bo'ladi, uchlik nervini shoxlari bo'ylab tarqaladi. Bemor og'riq paydo bo'lishini xech narsa bilan bog'lay olmaydi va aniq bir sababchi tishni ko'rsata olmaydi chunki og'riq tarqalgan xarakterga ega.

1. Tashxis qo'yish uchun ma'lumotlar etarli mi?

2. Qanday tekshiruv usullarini o'tkazish kerak?

Javob : 1 to'liq emas.

2. Tishlar xolatini ko'rish, perkussiya, zondlash. Qo'shimcha tekshiruv usuli-EOD va rentgenografiya.

5. Poliklinikaga 20 yoshli bemor, pastki jag` chap tomonda og'riqli shish borligiga, og'iz ochilishi qiyinlashuviga, chaynash funktsiyasini buzilishiga shikoyat qilib keldi. Anamnezidan bemor 2kun oldin yiqilib pastki jag` chap tomondan jaroxat olgan va tibbiy yordamga 1chi marta murojaat etdi. Travmadan so'ng pastki jag` chap tomonda og'riq va og'izdan qon ketishi paydo bo'lgan, bir qancha vaqtdan so'ng jaroxat olgan soxada shish paydo bo'lgan va u kattalashgan.

1. Ob`ektiv tekshiruv qanday o'tkaziladi?

2. Qaysi qo'shimcha tekshiruv usullarini o'tkazish kerak?

Javob: 1. Palpatsiya yordamida.

CHap pastki jag` fas va profil rentgenografiyasi.

3. Stomatologik poliklinikaga bemor pastki jag` o'ng tomonda og'riq borligiga, shish paydo bo'lishiga, tana xaroratini 39gacha ko'tarilishiga, og'iz ochilishi chegaralanishiga, yutinishda og'riq borligiga shikoyat qilib keldi.

1. Bemorni ko'rishni qanday ketma – ketlikda o'tkazish kerak?

Javob: 1 sialografiya.

6. Stomatologik poliklinikaga bemor chap tomon quloq oldi so'lak bezini sialodeniti yo'llanma tashxisi bilan murojaat qildi. Tashqi ko'rinishida quloq oldi – chaynov soxasida shish borligi aniqlanadi. Bez chiqaruv nayidan quyuq so'lak ajralmoqda, lunj shilliq qavati giperemiyalangan, shishgan.

1. Tashxisni aniqlashtirish uchun qanday qo'shimcha tekshiruv usullarini o'tkazish kerak.

7. Xirurg-stomatolog surunkali periodontit sababli yuqorigi chap tomon 7 tishni olgandan keyin tish katagidan ko'p miqdorda xavo pufaklari aralash qon ketishini aniqladi. Vrach katakcha chetlarini yaqinlashtirib salfetka tishlatib qo'ydi. Bir qancha vaqtdan keyin chap burun yo'lidan qon ketishi paydo bo'ldi va tez to'xtadi. Vrach bemorni jo'natib og'izni antiseptik eritmalar bilan chayishni tavsiya qildi. Bir haftadan so'ng bemor qaytib keldi va yuqori jag` chap tomonini og'rishiga, olingan tish katagidan va chap burun yo'lidan yiring oqishiga shikoyat qildi. Bemor bo'lim mudiri tomonidan ko'rili tashxis qo'yildi: “chap tomon o'tkir yiringli odontogen gaymoriti, olingan tish tomondan gaymor bo'shlig`ini perforatsiyasi”.

1. Birinchi qatnovda vrach qaysi asoratga ahamiyat bermadi?

2. SHu soxada qaysi tekshiruv usullarini qo'llashi kerak edi?

3. Ikkinchi qatnovda tashxis qo'yish uchun qaysi tekshiruv usullari qo'llanilishi kerak?

Javob: 1 Gaymor bo'shlig`i tubi perforatsiyasi.



2. Klinik ,rentgenologik.
3. Burun yondosh bo'shliqlari rentgenografiyasi.

8. Bemor stasionarda quyidagi tashxis bilan davolanmoqda: «Surunkali odontogen gaymorit. YUqori o'ng tomon 7 tish soxasida oqma yo'l». Bemorni bosh og'rihi va tish katakchasidan yiringli ajrilmalar chiqishi bezovtalaydi.

1. Radikal gaymorotomiya va oqma yo'l plastikasi operatsiyasida mahalliy og'riqsizlantirishni qanday usuli qo'llanilishi kerak?
2. Siz qaysi anestetiklarni qo'llar edingiz?  
Javob: Maxalliy infiltratsion, infraorbital, tuberal, palatinal, shuningdek burunga boradigan shoxcha xam.
2. lidokain, mepivikain, ultrakain va b.

9. Bemorga 432 | sohasida radikulyar kista sababli tsistoektomiya operatsiyasi o'tkazilishi kerak. Rentgen sur'atda 1.0 do 1.5 sm li aniq chegarali dumaloq shaklda hosila aniqlanadi. Pergament qirsillash simptomi musbat.

1. mahalliy og'riqsizlantirishni qaysi turini qo'llaysiz?
2. qaysi og'riqsizlantiruvchi preparatlarni qo'llaysiz?
3. og'riqsizlantiruvchi moddaga adrenalin eritmasini qo'shish shartmi, kerak bo'lsa qanday konsentratsiyada va nisbatda?  
Javob: 1. infraorbital, insizival.
2. lidokain, mepivikain, ultrakain va b.
3. Agarda anestetek tarkibida adrenalin bo'lmasa unda 100ml anestetika 1ml adrenalin qo'shiladi.

10. bemorni og'iz bo'shlig'ida 2 tish emirilgan. |1234 o'tuv burmasi silliqlashgan, giperemiyalangan, palpatsiyada kuchli og'riq va flyuktuatsiya belgisi aniqlanadi. Rentgenogrammada 2 tish ildiz uchida soxasida qattiq to'qimalar emirilishi kuzatiladi .

1. tashhis qo'ying?
2. qanday og'riqsizlantirishda ochish kerak?
3. qaysi anestetiklarni qo'llash samaraliroq?  
Javob: 1. O'tkir yiringli periostit 2 sababli
2. Maxalliy infiltratsion, insizival.
3. lidokain, ultrakain va b.

11. Og'iz bo'shlig'iga qaralganda 1 | tish o'tuv burmada yiringli oqma yul. Tishni rangi o'zgargan, perkussiya og'riqli. 1 darajali qimirlash kuzatiladi.

Tishni olish uchun qaysi nervni blokada qilish kerak :

- A. burun-tanglay,
- B. infraorbital
- B. pastki alveolyar
- Г. daxon osti
- Д. rami alveolaris superiores anteriores

Javob. A, D

Burun –tanglay nervining innervatsiya sohasi hisoblanadi.

- A. qattiq tanglay shilliq qavati qoziq tishlar orasi
- B. qattiq tanglay shilliq qavati birinchi premolyar sohasigacha
- V. qattiq tanglay shilliq qavati ikkinchi kurak tishlar orasi
- G. yumshoq tanglay shilliq qavati
- D. frontal sohaning vestibulyar tomon milkni

12. Bemor 22 yosh til osti soxasida kuchli og'riqga shikoyat etdi, og'iz ochilishi chegaralangan, ovkat yutinishi og'riqli. Sanab o'tilgan simptomlar ikki kun oldin

7 og`riganda paydo bo`lgan. CHap tomon til osti va jag` -til yostiqchasi shilliq qavati shishgan, gipermiyalangan. Diaqnoz: jag` - til yostiqchasi abstsessi.

Qaysi nervni og`riqsizlantirish kerak?

13. YUqori jag` chap tomon 2 tishni 2/3 ermirilgan. Bu soxadagi 1234 tishlarni o`tuv burmasi shishgan, palpatsiya og`riqli.

1. Bemor katda davolanadi?
2. Og`riqsizlantirishni qaysi usuli qo`llaniladi?
3. Qaysi nervni og`riqsizlantirish qo`llaniladi?

14. Bemor yuqori tishlarni, ko`z osti va o`ng tomon yuqori labni sezgirligi pasayganligiga shikoyat qiladi. O`ng tomon luj va ko`z osti soxa shishgan. 1234 tishlar qimirlash ko`zatiladi.

1. Qaysi nervni shikastlanishi ko`zatiladi?
2. Bu nerv qayerdan chiqadi?

### Vaziyatli masala:

1. Bemor 47 yoshda, poliklinikaga chap tomon pastki jag` 6 tish og`rigi bilan shikoyat etib keldi. Obektiv ko`rilganda 6 tish emirilgan, shilliq qavati shishgan. Rentgenogrammada medial ildizining uchida suyak to`qimasining noaniq chegarali emirilish o`chog`i aniqlandi.

1. O`qituvchi bilan tashxis qo`ying?
2. O`qituvchi bilan davolash rejasini tuzing?
3. Qaysi og`riqsizlantirish usuli bilan 6 olish mumkin?

Javob. 1. Surunkali granulyatsiyalanuvchi periodontit qaytalanishi.

2. Tishni olish

3. Mandibulyar va infiltratsion yoki faqat torusal anesteziya.

2. Bemor 28 yosh, poliklinikaga chap tomon pastki jag` 8 tish og`rigi bilan shikoyat etib keldi, og`iz ochilishi qiyin va og`riqli. Obektiv ko`rilganda chap tomon pastki jag` osti limfa tugunlari shishgan, og`iz ochilishi 2 sm, og`riqli. YUsupov bo`yicha rentgen tasvirda 8 tish gorizontol xolda joylashganligi, atrofida cho`ntak borligi aniqlandi.

1. O`qituvchi bilan tashxis qo`ying?
2. O`qituvchi bilan davolash rejasini tuzing?
3. Qaysi og`riqsizlantirish usulini o`tkazish mumkin?
4. Palpatsiya usulida mandibulyar og`riqsizlantirish o`tkazish mumkinmi?

Javob. 1. 8 chi tish chiqishi qiyinligi.

2. Tishni olish.

3. pastki jag` nervini xarakatlantiruvchi tolasini Bershe yoki Egorov bo`yicha mandibulyar og`riqsizlantirishning og`iz tashqari usuli og`riqsizlantirish.

4. Og`iz ochilishi qiyinligi xisobiga qilib bo`lmaydi.

### Vaziyatli masala:

1. Bemor 34 yoshda xirurgik stomatologiya klinikasiga «CHap tomon pastki jag` burchak sohasidan sinishi» tashxisi bilan yotqizilgan. Og`iz ochilishi chegaralangan. markaziy og`riqsizlantirish ostida shinalash rejalandi.

1. markaziy og`riqsizlantirish qaysi usulini tanlardingiz?
2. Tanlagan markaziy og`riqsizlantirish ketma-ketligini yozing?

2. . Bemor 28 yoshda xirurgik stomatologiya klinikasiga «O`ng tomon pastki jag` tana va shox sohasida o`smasi» tashxisi bilan yotqizilgan. Bemorga keng biopsiya o`tkazish rejalandi. Bemorda ichkt organlar tomonidan- postinfarktnyy period (4 oy).

4. O`qituvchi bilan davolash rejasini tuzing?
5. Og`riqsizlantirishning qaysi usuli o`tkaziladi?
6. Tanlagan og`riqsizlantirishingiz ketma -ketligini yozing.

### **Vziyatli masala**

Bemor 22 yosh, poliklinikaga quyidagi shikoyatlar bilan murojaat etdi: og`izdan badbo`y hid kelishiga, vaqti-vaqti bilan 8 tish sohasida shish va og`riq paydo bo`lishiga. Anamnezidan: poliklinikada ikki marotaba kapyushon kesilgan. Uch kun avval shamollagandan keyin qaytadan shishi va og`riq paydo bo`lgan. Ko`rilganda: 8 tish sohasi shilliq qavati shishgan, giperemiyalangan, og`iz ochilishi chegaralangan, tish toj qismi usti shilliq qavati qizargan, paypaslanganda yiring ajralishi kuzatiladi. Rentgenda: tish distal qismida suyak cho`ntagi kuzatiladi.

- 1) Bu klinik holatda tish olishga qanday ko`rsatmalar mavjud?
- 2) Og`riqsizlantirishni qaysi usulini qo`llash kerak?
- 3) Bu holatda operatsion maydon va shifokor qo`lini qanday tayyorlash kerak?

### **Vaziyatli masala**

Bemor 52 yosh, yuqori chap tomon 6 tish sohasidagi og`riqqa shikoyat qilib murojaat etdi. Anamnezidan, tish 10 yil avval davolatgan. YUqorida aytilgan shikoyatlar sovuq urgandan keyin paydo bo`lgan. Hozirgi vaqtda arterial bosim oshganligi kuzatiladi. Ko`rilganda, tish pushti rangda, koronka ostida, perkussiya musbat. Rentgenda: tanglay kanalda plomba ashyosi soyasi, medial kanalda yot modda soyasi ko`rinadi. Medial lunj ildiz uchi sohasida  $-0.3 \times 0.2$  kattalikda suyak emirilishi kuzatiladi.

- 1) Bu klinik holatda tish olishga qanday ko`rsatmalar mavjud?
- 2) Og`riqsizlantirishni qaysi usulini qo`llash kerak?
- 3) Bu holatda operatsion maydon va shifokor qo`lini qanday tayyorlash kerak?

### *Vaziyatli masalalar:*

1. 60 yoshli ayol yuqorigi jag`da o`ng tomon 6,7 tishlar qimirlashi, ovqat eganda shu tishlarda ogriqqa , yuqori va pastki jag`da shu tishlarda boshqa tishni yo`qligiga shikoyat bilan murojat qiladi. Ko`rikdan 6,7 tishlar sohasida milk so`rg`ichlari shishgan, milk tsianotik ko`rinishida , tez qonaydi , og`izdan yoqimsiz hid kelishi kuzatiladi. 6,7 tish III-IV darajadagi qimirlashlar, patologik tish-milk cho`ntagi va alveolyar o`siqning atrofiyasi aniqlanadi.

- 1) Jarroh bemor bilan qanday ish yuritish kerak?
- 2) Davolashni qanday olib borish kerak?
- 3) Og`riqsizlantirish turini tanlang

2. 48 yoshli bemor jarroh stomatologga yuqorigi o`ng tomon 2 tishi sohasida simillovchi va kuchayib boruvchi ogriqqa shikoyat bilan murojat qildi. Ko`rilganda shu tish ildiz sohasidagi shilliq qavatida biroz giperimiya va shish kuzatiladi. Xuddi shu sohada o`tuv yo`li borligi aniqlandi. Rentgenda ildiz atrofi suyakga yirik siyraklashi aniqlandi .

- 1) Tashhis qo`yish.
- 2) Solishtirma tashhislang.
- 3) Davolash usulini tanglang.

### *Vaziyatli masalalar:*

1. Bemor 42 yoshda yuqori ikki tishni olish vaqtida toj qismi sinib qoldi. Mahalliy ikki tish lunkasi ochilgan, shilliq qavat shishgan, giperimiyalangan, zondlanganda ildiz katakning tubida turibdi.

- 4) Tish olishda og`riqsizlantirish usuli
- 5) SHifokorning keyingi taktikasi
- 6) Qanaqa nstrumentlardan foydalanishi kerak.

2. Bemor 42 yosh, shikoyatlari 7-tish toj qismi yo`qligiga ildizi bir-biridan ajralmagan tish, sanatsiya maqsadida olinishi kerak

- 3) Qanaqa instrumentlardan foydalanishi kerak.
- 4) Og`riqsizlantirish usulini tanlang.
- 5) Tish olishdagi asosiy hususiyatlar

### *Vaziyatli masalalar:*

1. Bemor 48 esh !6 tishning ildizlarini olish vaqtida yuqori jag` bo`shlig`i bilan tutashganligi aniqlandi. Mahalliy: !6 tish ildizlari olingan, tish katakchasida yallig`lanish belgilari yo`q, bo`shliqdan ajralma yo`q. Burundan qon oqish boshlandi.

- 1) Sizning tashhisingiz
- 2) Qiyosiy tashhisni o`tkazing
- 3) Berilgan yordam xajmini aniqlang

2. Bemor 72 yosh, uch kun oldin 4 tish oldirilgan. SHikoyatlar: yuqori jag` alveolyar o`siq chetlaridagi og`riqlar. Mahalliy: tish katakchi qon quyqasi bilan to`lgan. Paypaslaganda og`riqli.

1. Tashhis qo`ying
2. Davolash.

### Vaziyatli masalalar

1. Bemor Z. 63 yoshda, bo`limga og`ir axvolda murojat qildi. Shikoyatlari: boshning o`ng yarimida doimiy zirqiragan o`tkir og`riqqa, og`iz ochilishini, yutinishni imkoniyati yo`qligiga, umumiy xolsizlikka, qaltirashga, tana haroratini 40,0 gacha ko`tarilishiga. Anamnezidan, 2 kun ilgari turar joy poliklinikasida yuqori o`ng tomon 7,8 tishlari surunkali periodontit o`tkirlashuvi bo`yicha sug`urilgan. Sug`urilishiga qaramay yuqori jag` sohasida og`riq kuchaygan, boshning o`ng yarimiga og`riq tarqalgan, og`iz ochilishi chegaralanishi kuchaygan, yutinishda og`riq ko`paygan.

Ob`ektiv: teri qoplami oqargan, yuz sohasi muzdek ter bilan qoplangan, shifokor savollariga sust javob qaytaradi. Murojat qilganda tana harorati 41,2 gradusda, O`ng tomon chakka va quloq oldi chaynov sohalari yumshoq to`qimalarida shish aniqlanadi. ("qum soati" belgisi), shuningdek o`ng ko`z yuqori va pastki qovoqlari shishi kuzatiladi. O`ng tomon chakka sohasi teri rangi o`zgarmagan. Chakka mushagi kengligida palpatsiya qilinganda noaniq konturli o`tkir og`riqli zich yallig`lanish infiltratli aniqlanadi. Flyuktuatsiya aniqlanmaydi, og`iz ochilishi qiyinlashgan, pastki jag`ni yon xarakterlarida o`tkir og`riq seziladi. Og`iz bo`shlig`i: o`ng yuqori 6,7,8 tishlar sohasi vestibulyar tomondan o`tuv burmasi shilliq qavatida qizarish, shish aniqlanadi. Yuqori jag` do`mbog`iga tomomn palpatsiya qilinganida o`tkir og`riqli yallig`lanish infiltrati aniqlanadi. Shuningdek yumshoq tanglay va o`ng tomon yutqin yon devori yuqori bo`limlari shilliq qavatida shish kuzatiladi.

1. Tashxis qo`ying. Tashxislashda asoslangan asosiy klinik belgilarni ko`rsating.
2. Davolash rejasini belgilang.

### Vaziyatli masala:

1. Bemor 34 yosh poliklinikaga o`ng tomon til osti sohasidagi shish va og`riq, yutingandagi og`riq, tilni harakatlantirgandagi og`riq tufayli nutq buzilishi shikoyatlari bilan keldi. Anamnezdan 2 yil oldin 6 tishi davolangan. Vaqti-vaqti bilan tish og`rib turgan. Bir xafta oldin og`riq kuchaygan va o`ng til osti sohasida shish paydo bo`lgan. o`ng tomon til osti sohasi tekshirilganda infiltrat og`riqli, shilliq qavat shishgan va qizargan, jag`-til tarnovchasi silliq va og`riqli. 6 perkussiya musbat.

1. Taxminiy tashhis ko`ying.
2. Infektsiya tarqalishi mumkin bo`lgan yo`llarni tushintiring.
3. Davolash rejasini va kesish usulini tuzing.

2. Bemor 70 yosh poliklinikaga yuzning o`ng tomoni shishi va og`rishi shikoyati bilan keldi. Anamnezidan: bir yil oldin 7 plombalangan, lekin plomba tushib ketgan va bir xafta oldin tish sohasida shish va simillovchi og`riq paydo bo`lgan, shish sekin-asta kattalashgan va shikoyatlar ko`paygan. Og`zini yaxshi ocha olmagan, yutinganda og`riq va nutq tushunarsiz bo`lgan. Tekshirilganda – o`tirgan xolat, og`iz yarim ochik, nutq buzilgan. Paypaslaganda Dahan osti va jag` osti sohalari og`riqli va qattiq infiltrat, bilqillash yo`q, krepitatsiya aniqlanadi..

1. Tashhis ko`ying.
2. Davolash rejasini tuzing
3. Nimaga krepitatsiya paydo bo`lgani va bemor majburiy xolati sababini tushintiring
4. Qanday kesma o`tkazish kerak va operatsiyadan keyingi davo

### Vaziyatli masalalar

1. Bemor M., 57 yosh, poliklinikaga ung tomon yuqori lab sohasidagi shishga va kuydiruvchi ogrikka shikoyat kilib muroajat etdi.

Anamnezidan: 4 kun avval ung tomon yuqori lab sohasida yirngli shishcha va biroz orgik paydo buldi.

Umumiy axvoli konikarli, tana xarorati 37,8°.

Maxalliy xolati: burun-lab burmasi yassilashgan. Yuqori lab sohasida diametri 3 sm bo'lgan zichlashish kuzatiladi. Usti teri kavati kizargan. Markazida nekrotik uzak.

1. Tushuntirib Bering va tashhis kuying.
2. Bunday kasallikda kandy asoratlar bo'lishi mumkin?
3. Bemorni davolash rejasini tuzing.

Javob: Ung tomon yuqori lab furunkuli. Asoratlari: yuz venalari tromboflebiti, kavernozi sinus trombozi, bosh miya absessi. Xirurgik stomatologiya bulimiga tezkor gospitalizatsiya, furunkulni ochish, yotok tartib, antibiotikoterapiya, antikoagulyantlar buyurish.

2. Bemor K., 29 yosh. Shikoyalari: yuzni ung tomonida chegarlangan shishga. Anamnezidan: bir oy avval yikilib tushgan, sungra shish paydo bulib, asta sekin kattalashgan, ogiz chishi chegaralangan. Bemor gospitalizatsiya kilingan.

Statsionarga yotkizilganda, umumiy xolati konikarli, tana xarorati 37,8°. Ung tomon jag` osti sohasida zich, kam ogrikli, kattaligi 2x2 sm bo'lgan shish kuzatiladi. Usti teri kavati rangi giperemiyalangan, burmaga yigilmaydi, okma yo'l va undan yirngli ajralmalar chikishi kuzatiladi.

Paypaslanganda pastki jag` osti limfa tugunlari zichelastikligi aniklanadi.

Tashhis kuyildi: ung tomon jag` osti sohasi karbunkuli. Krestsimon kesim o'tkazildi, yallig`lanishga karshi davo tayinlandi.

1. Bu kasallikning qaysi simptomlari karbunkulni klinik belgilariga mos kelmaydi?
2. Tashhisni aniklashtirish uchun kandy tekshirish usullaridan foydalainsh kerak?
3. Bunday kasallikda mumkin bo'lgan kandy tashhis kuyish kerak?

Javob: okma yo'l borligi, shish kam ogrikligi, jaroxat borligi. Pastki jag`ni rentgen tasvirini olish kerak. Pastki jag`ni travmatik osteomieliti, ung tomon jag` osti sohasi flegmonasi

### Vaziyatli masalalar:

1. poliklinikaga 34 yoshli bemor, tildagi patologik o'zrashilar, ishtaha yo'qolishi, tana vazni kamayishi, tez charchashiga shikoyat qilib muroajat etdi. Umumiy ko'rikda: teri qavati oqargan, nam. Anamnezidan: bemor 3 yil avval ozodlikka chiqqan

Mahalliy holat: tilni yon taraflarida oq rangli tuklar chiqib turganligi va ko'chmasligi aniqlanadi

1. Bemorga qandy tashhis qo'yish mumkin?
2. Bu qaysi kasallik simptomlari va qaysi bosqichda namoyon bo'ladi?

Javob: Tukli leykoplakiya. Odatda VICH-infektsiyani 3-bosqichida namoyon bo'ladi (oraliq boqich).

2. Statsionarga pastki 6 tish sababli luj sohasi flegmonasi tashhisi bilan bemor yotqizildi.

Ko'rilganda: yumshoq tanglayda, **dujka** va ikki tomonlama mindalinalarda yumaloq shakilli papular kuzatiladi, diametri 1sm, og'riqli. Papular ko'chirilganda go'shtli-qizil eroziya aniqlanadi, tilda silliq, yaltiroq, «chopilgan dalaga» o'hshash shiliqqavatdan tushib ketuvchi elementlar kuzatiladi. Anamnezidan: bemor 4 yil avval Malayziyada bo'lgan, shundan so'ng vaqti-vaqti bilan tanadan toshmalar paydo bo'lib, izsiz yo'qolib ketadi.

1. Bemorda qandy yondosh kasallik bor?
2. Qaysi kasallik bosqichi uchun bu belgilar hos hisoblanadi?

Javob: Sifilis. Ikkilamchi bosqich (papulezli sifilid).

### Vaziyatli masalalar

1. Bemor S., 24 yosh, shikoyati: daxan va jag` osti soxalardagi doimiy tez og`riklarga, og`iz ochilishda og`riklar kuychayishiga. 3 kun avval kasallangan. Boshlanishini xech narsa bilan bog`lamaydi.

Ob`ektiv: tana xarorati 38,0°, bemor xolsiz, kaltirash kuzatiladi, peshona ter bilan koplangan

Maxalliy: daxan osti va ikkala tomon jag` osti soxalarida teri kavati giperemiyalangan, maxalliy xarorat kutarilgan, og`rik xisobiga og`iz ochish kiyinlashgan. Og`iz bushlig`i sanatsiya kilinmagan. Rentgen tasvirda: ung tomon 5,6 tishlar surunkali granulyatsiyalanuvchi periodontit.

1. Bu ma`lumotlar asosida kandy kasalliklarni taxmin kilishingiz mumkin?
2. Tashhis kuyish uchun nima kilasiz?

Javob: Og`iz tubi odontogen flegmonasi. Yuz-jag` xirurgiyasi bulimiga shoshilinch gospitalizatsiya. Flegmonani ochish. Intensiv medikamentoz davu (antibakterial, desensibilizilluvchi, dezintoksikatsion)

2. Bemor O., 53 yosh, shikoyatlari: chap tomon lunj soxasidagi shishga, og`iz ochilish chegaralanganligiga. Anamnezidan: 4 yilda buyon ikki tomonlama parenximatoz parotit bilan stomatologda dispaser nazoratda turadi. 2 oy avval chap tomon lunj soxasi flegmonasi tashhisi. Bilan klinikada davolangan. Flegmona ochilgan, yiring olingan, tish olinmagan. 3 hafta avval chap tomon lunj soxasi pastki kismida yana shish paydo bulgan. Bir necha kun og`riklar bulmagan, sungra paydo bulgan. 4 kun avval og`riklar kuchaygan, teri giperemiyasi kuzatilgan

Maxalliy: chap tomon lunj sohasi pastki qismida keng yallig`lanish infiltrati kuzatiladi, kattaliga 5x7 sm, chegarasi noanik, kamogrikli, ustidagi teri kam giperemiyalangan, kukimtir, burmaga yig`ilmaydi. Chap tomon jag` osti soxasi paypaslanganda limfatik tugun bir oz shishganligini, xarakatchanligini, og`rikliligini aniklash mumkin. Og`rik tufayli og`iz ochilishi kiyinlashgan, lekin bir oz xarakatdan keyin tulik ochildi. Chap tomon lunj shillik kavati shishgan, kukimtir. Chap tomon stemon yuli buyicha ajratmalar kuzatilmayapti. Ung tomon stemonov yuli buyicha ko`pikli ajratmalar kuzatilmokda.

1. Tashhis kuyish uchun kandy ma`lumotlar etishmayapti?
2. Qandy kasalliklarni taxmin kilishingiz mumkin?

Javob: Tishlar xolati xaqida ma`ulmotlar yuk, chunki ular sababchi bulishi mumkin. Chap tomon lunj soxasi odontogen flegmonasi, ikki tomonlama parenximatoz parotit o`tkirlashuvi.

3. Bemor, 47 yosh, shikoyatlari: ung tomon jag` osti soxasidagi bir oz shishga, ung tomon jag` osti va tomokdagi og`rikka, og`iz ochilmaslikka, yutishi og`rikligiga, umumiy xolsizlikka, kaltirashga, tana xarorati 39 S kutarilganligiga. Ung tomon kanotsimon-jag` burmasi, tanglay pardasi va yutkun soxasi yon devori shishgan.

1. Tashhis kuying?
2. Davu rejasini tuzing.

Javob: Ung tomon yutkun oldi soxasi flegmonasi. Yiringli uchokni ochish. Antibakterial, desensibilovchi davu. Yaraga kundalik ishlov.

### Vaziyatli masala:

1. Bemor 35 yosh poliklinikaga yutinganda og`riq, shish, og`iz ochilishi chegaralanishi bilan keldi. Anamnezdan 2 yil oldin 8 tishi davolangan shamollagandan keyin tana harorati ko`tarilgan hamda yutinganda og`riq paydo bo`lgan

4. Taxminiy tashhis ko`ying.
5. Tekshiruv rejasini tuzing.
6. Qaysi og`riqsizlantirish usulidan foydaniladi.

2. Bemor 40 yosh klinikaga shishga, og`izni qiyinlashganiga va yutingandagi og`riqqa shikoyat qilib keldi. Bemor 8 tishni turar-joy poliklinikasida oldirgandan keyin kasallik paydo bo`ldi deb taxmin qiladi.

Ko`rikda aniqlandi: og`izdan o`tkir xid, og`iz lsm ochiladi, retromolyar shilliq soha va yumshoq tanglay giperemiyalangan, «uvulae» shishgan chap tomonga surilgan.

5. Tashhis qo`ying.
6. Tekshiruv rejasini tuzing.
7. Davu rejasini tuzing.

**6.3 TESTLAR**  
**MURAKKABLIGI 1-DARAJALI TESTLAR:**

1. Poliklinika sharoitida xirurgik stomatologik bo'lim necha qismdan tashkil topadi:

- A. 5
- B. 3
- V. 4
- G. 7
- D. 2

2. Bitta stomatologik kreslosi bor operatsiya xonasi necha kvadrat metrga ega bo'lishi kerak:

- A.  $23m^2$
- B.  $21m^2$
- V.  $14m^2$
- G.  $20 m^2$
- D.  $22m^2$

3. Poliklinika sharoitida qaysi rejali operatsiyalar o'tkaziladi:

- A. tish ildizi uchini rezektsiyasi
- B. yumshoq to'qimalar jaroxatlariga choklar qo'yish
- V. biopsiya uchun to'qima olish
- G. distopiyalangan tishlani olish
- D. pastki jag` chiqishini to'g'irlash

1. AV, 2. GD, 3. A BV, 4. A, 5. VD

4. Rejali bo'lmagan operatsiyalarga qaysilar kiradi.

- A. yumshoq to'qimalar jaroxatlariga choklar qo'yish
- B. yuz suyaklari siniqlarini repozitsiyasi
- V. tish ildizi uchini rezektsiyasi
- G. biopsiya
- D. tish implantatsiyasi

1. AB, 2. AV, 3. BG, 4. DG, 5. VD

5. Xirurgik bo'limda xona va uning kengligini moslashtiring.

- 1) operatsiya oldi xonasi                      A)  $23 m^2$  dan kam emas
  - 2) operatsiya xonasi                              B)  $10 m^2$  dan kam emas
  - 3) sterilizatsiya xonasi                         V)  $8m^2$  dan kam emas
1. B      2. A      3. V

**MURAKKABLIGI 2-DARAJALI TESTLAR:**

1. Xirurgik kabinetda xonani va talabni moslashtiring:

- 1. Sterilizatsiya xonasi
  - 2. Operatsiya xonasi
  - A. YUza  $10 m^2$ .dan kam emas
  - B. Butun bo'yiga kafel bilan qoplangan bo'lishi kerak
  - V. YUza  $14m^2$ .dan kam emas
  - G.  $1.8 m^2$ .kam bo'lmagan balandlikkacha kafel bilan qoplanishi kerak
  - D. Pol – linoleum
  - E. Pol- keramik plitka.
- 1 AGD      2 BVE

2. Poliklinika sharoitida o'tkaziladigan rejali va rejali bo'lmagan operatsiyalarni mosligini toping:

- 1) rejali
- 2) rejali bo'lmagan
- A. O'tkir periostitda yiringli o'choqni xirurgik ishlovi

- B. yuz suyaklari siniqlarini repozitsiyasi
  - V. replantatsiya
  - G. tish ildizi uchini rezektsiyasi
  - D. tish implantatsiyasi.
- 1 VGD      2 AB

3. Kesuvchi instrumentlar qanday sterilizatsiyalanadi:

- A. 2 soat davomida 96 gradusli spirtida
- B. 0.5 soat qaynatilib
- V. 1 soat davomida 180 S da quruq xavoda
- G. 0.5 soat ichida diotsid eritmasida
- D. 1 soat ichida avtoklavda

4. Bemorga maishiy jaroxat olganligini isbotlovchi qanday xujjat beriladi:

- A. 6 kunga ishga layoqatsizlik to'g'risida
- B. 1 kun ishga layoqatsizlik to'g'risidagi qog'oz
- V. 3 kunda ishga layoqatsizlik to'g'risidagi qog'oz
- G. 3 kunga ishga layoqatsizlik to'g'risida
- D. 10 kunga ishga layoqatsizlik to'g'risida

#### MURAKKABLIGI 1-DARAJALI TESTLAR:

1. Bemorni og'iz bo'shlig'ini tekshirish nimadan boshlanadi:

- Б. og'iz daxlizi shilliq qavatini ko'rish
- В. lab qizil xoshiyasini ko'rish
- Г. tilni ko'rish
- Д. so'lak bezlarini chmqaruv naylarini ko'rish
- Е. lunj shilliq qavatini ko'rish

2. Bemorni tekshirishdan maqsad:

- A. tashxis qo'yish
- Б. bemorni umumiy xolati bilan tanishish
- В. aloxida a'zolar xolatini o'rganish
- Г. bamor psixikasi xususiyatlarini o'rganish
- Д. bemor bilan yaqin tanishish

3. Quyida keltirilgan usullardan qaysi biri qo'shimcha tekshirish usullariga kiradi:

- A. Anamnez yig'ish
- Б. EOD
- В. punktsiya
- Г. rentgenografiya
- Д. sialografiya

4. Normada og'iz necha santimetrda ochiladi

- Е. 3 sm
- Ж. 5 sm
- З. 4 sm
- И. 6 sm
- К. 4,5 sm

5. Biopsiya uchun preparatni qanday eritmaga solinadi:

- A. 40 % li formalin eritmasi
- Б. 0,5 % li natriy xlor eritmasi
- В. 10 % li neytral formalin eritmasi
- Г. 70 % li spirt eritmasi
- Д. 10 % li natriy xlor eritmasi

#### MURAKKABLIGI 2-DARAJALI TESTLAR:



1. Sub`ektiv tekshirish usullariga nima kiradi:
  - A. so`roq
  - Б. xayot anamnezi
  - B. palpatsiya
  - Г. auskultatsiya
  - Д. perkussiya

1. AB, 2. VG, 3. GD, 4. AG, 5. BD
  
2. Uzoq davom etuvchi va bitmaydigan yaralarda qanday analiz o`tkazish kerak:
  - A. Vasserman reaksiyasi
  - Б. SPID-diagnostikasi
  - B. Sterillikka qon
  - Г. Qon ivishini aniqlash
  - Д. ECHTni aniqlash

1. VG, 2. AB, 3. GD, 4. AV, 5. GB
  
3. Ob`ektiv va sub`ektiv tekshirish usullarini moslashtiring:
 

1. sub`ektiv	A. tishlar perkussiyasi
2. ob`ektiv	B. laborator tekshiruv
	V. Bemorni so`roqlash
	G. palpatsiya
	D. kasallik anamnezi

1. VD. 2. ABG
  
4. Bemorni ob`ektiv va sub`ektiv tekshirishda asosiy va qo`shimcha usullarni mosligini aniqlang:
  1. asosiy
  2. qo`shimcha
    - A. Rentgen
    - B. Palpatsiya
    - V. Laborator tekshiruv
    - G. TSitologiya
    - D. Nuqson kattaligini aniqlash
    - E. Perkussiya

1. BED 2.VAG
  
5. Limfa tugunlarini proektsiyasi va palpatsiyasi joyini aniqlang
  - 1.quloq oldi
  - 2.lateral bo`yin
  - 3.jag` osti
  - 4.so`rg`ichsimon
    - A. m. Sternocleidomastoideus dan oldinda va orqaroqda
    - B. pastki jag` shoxi proektsiyasi
    - V. Jag` osti uchburchagi
    - G. Pastki jag` shoxini orqa qirg`og`o

1. B, 2. A, 3. V, 4. G

#### MURAKKABLIGI 1-DARAJALI TESTLAR:

1. Tishlarni infiltratsion anesteziyasi uchun qo`llaniladi:
  - A. novokainning 0.25% eritmasi
  - Б. novokainning 0.5% eritmasi
  - B. novokainning 1-2% eritmasi
  - Г. novokainning 3% eritmasi
  - Д. dikainning 3% eritmasi
  
2. Noin`ektsion mahalliy ogriksizlantirishda nima kiradi?
  - A. infiltratsion

- Б. o'tkazuvchi
- В. applikatsion
- Г. ignasiz usul
- Д. neyroleptanalgeziya

3. Bemorga surunkali periodontit sababli yuqori jag` chap tomon 3,4 tishlarini olib tashlash kerak. Qanday maxalliy og`riqsizlantirish usullarini qo'llaysiz?

- А. supraorbital, infraorbital
- Б. infraorbital, infiltratsion
- В. infiltratsion, mandibulyar
- Г. applikatsion, torusal
- Д. tuberal, applikatsion

4. o'tkazuvchi anesteziyada novokainning bir martalik yuqori dozasi qancha.

- А. 150 ml – 1% li eritma va 30 ml -2%
- Б. 100 ml – 1% , 30 ml – 2 %
- В. 100 ml – 1 % , 60 ml – 2%
- Г. 200 ml – 1% , 20 ml – 2 %
- Д. 150 ml – 1 % , 20 ml 2%

5. 2 % lidokainning maksimal dozasi.

- А. 100 ml
- Б. 50 ml
- В. 150 ml
- Г. 30 ml
- Д. 75 ml

#### MURAKKABLIGI 2-DARAJALI TESTLAR:

1. Torusal anesteziyada qaysi nervlar blokadasi kuzatiladi?

- А. til
  - Б. lunj
  - В. pastki alveolyar
  - Г. daxan osti
  - Д. uchlik nervini harakatlantiruvchi tolalari.
1. ABV 2. BVG 3. DGV 4. ABG 5. DAB

2. Mahalliy og`riqsizlantirishga qarshi ko`rsatmalar.

- А. Bemor psixikasini labilligi yoki aqliy etishmovchilikda.
  - Б. Maxalliy anestetiklarga yuqori sezuvchanlik
  - В. Uzoq davom etuvchi va travmatik operatsiya
  - Г. Qarilik yoshida
  - Д. Nafas olish va yurak – qan tomir etishmovchiligida
1. GD 2. VGD 3. ABV 4. VG 5. GDA

3. Mahalliy anestetiklarni ta`sirini uzaytiradigan preparatlarni ko`rsating

- А. adrenalin
  - Б. felepressin
  - В. dimedrol
  - Г. seduksin
  - Д. noradrenalin
1. VD 2.ABD 3.VG 4.BV 5.AD

4. Mahalliy og`riqsizlantirish turini va usulini moslashtiring.

- 1. in`eksion      А. o'tkazuvchi
- 2. noinektsion    В. applikatsion

- V. infiltratsion
- G. muzlatish
- D. elektroforez yordamida anestetik yuborish.

5. tishlarni infiltratsion anesteziyasi uchun qo'llaniladi

- A. novokainni 1-2% li eritmasi
- Б. novokainni 0,25% li eritmasi
- B. novokainni 0,5% li eritmasi
- Г. kokainni 3% li eritmasi
- Д. dikainni 3% li eritmasi

#### MURAKKABLIGI 1-DARAJALI TESTLAR:

1. Uchlamchi shoxni tarkibiga qanday tolalar kiradi:

- A. Hamma sanab o'tilganlar
- Б. sezuvchi
- B. xarakatlantiruvchi
- Г. simpatik
- Д. parasimpatik

2. Uchlamchi shoxni qaysi nervi pastki jag`ni innervatsiya qiladi:

- A. III
- Б. II
- B. I
- Г. I, II
- Д. I, II, III

3. Uchlamchi shoxni nechta vegetativ tugunlari yuz soxasida joylashgan.

- A. 5
- Б. 3
- B. 4
- Г. 7
- Д. 1

4. Tanglay nervini innervatsiyasi:

- A. molyar, premolyar va qoziq
- Б. yuqori premolyar
- B. premolyar va molyar
- Г. bir tomonlama yuqori jag`ni hamma tishlari
- Д. faqat yuqori jag` molyar tishlar

5. Lunj nervini innervatsiyasi:

- A. 5 va 7 pastki tishlarni chegarasi
- Б. qoziq
- B. 4 va 5 pastki tishlarni chegarasi
- Г. fakat premolyarlar
- Д. markaziy chiziq

#### MURAKKABLIGI 2-DARAJALI TESTLAR:

1. O'rta yuqori alveolyar shoxini innervatsiyasi

- A. premolyar va shu tishlarni vestibulyar tomondagi shilliq qavati
- Б. molyar va premolyar tishlar
- B. premolyar tishlar
- Г. molyar va shu tishlarni vestibulyar tomondagi shilliq qavati
- Д. qoziq tishlar.

7. Ko'z osti nervi ko'z kossasiga qanday kiradi:
- A. pastki ko'z yorig'i
  - Б. yuqori ko'z yorig'i
  - В. yonoq-ko'z teshigi
  - Г. ko'z osti teshigi
  - Д. ko'z usti teshigi
8. Xarakatlantiruvchi tola kichik tanglay nervini qaysi mushakni innervatsiya qiladi:
- A. yumshoq tanglayni ko'taruvchi
  - Б. jag` - tilosti
  - В. ikki qorinchali
  - Г. yumshoq tanglayni tortuvchi
  - Д. nog`ora pardani taranglashtiruvchi

**MURAKKABLIGI 1-DARAJALI TESTLAR:**

1. Ko'zosti og'riqsizlantirish og'iz ichi usulida ignani sanchish joyi:
- A. 1 va 2 tishlarni 0,5 sm o'tuv burmasidan yuqoriga.
  - Б. 2 tishni o'tuv burmasiga
  - В. 3 tishni o'tuv burmasiga
  - Г. 1 tishni o'tuv burmasiga
  - Д. 5 tishni o'tuv burmasiga
2. Infraorbital og'riqsizlantirishda ignani noto'g'ri yo'nalishini ko'rsating:
- A. xammasi to'g'ri
  - Б. yuqoriga
  - В. orqaga va yuqoriga
  - Г. oldinga va to'g'riga
  - Д. tashqariga va tepaga
3. YUqori 8 tishni olish uchun qaysi og'riqsizlantirish o'tkaziladi:
- A. tuberal va palatinal
  - Б. infraorbital va tuberal
  - В. tuberal va maxalliy
  - Г. infraorbital va palatinal
  - Д. palatinal va maxalliy
4. Anestetik ko'z tubiga tushganda nima bo'ladi?
- A. diplopiya
  - Б. kurlik
  - В. kurish pasayishi
  - Г. nistagm
  - А. ko'z olmasini xarakatini buzilishi

**MURAKKABLIGI 2-DARAJALI TESTLAR:**

5. Palatinal og'riqsizlantirishda bulmaydigan asoratni ko'rsating:
- A. og'riqli yutinish
  - Б. ko'ngil aynashi
  - В. gematoma
  - Г. yot moddani sezish
  - Д. kusish
6. Anestetik ko'z tubiga tushganda nima bo'ladi?
- Д. diplopiya
  - Е. kurlik
  - Ж. kurish pasayishi
  - З. nistagm
  - И. ko'z olmasini xarakatini buzilishi

7. YUqori orqa alveolyar alveolyar shoxi qaysi soxani innervatsiya qiladi:

- A. 6,7,8 tishlar
- Б. 3,4,5,6,7 tishlar
- B. 5,6,7,8 tishlar
- Г. 7 va 8 tishlar
- Д. YUqori jag`ni yarim tomoni

8. Infraorbital og`riqsizlantirish qaysi nervalarni ta`sir ko`rsatadi?

- A. YUqori orqa alveolyar shoxi
- Б. Pastki orqa alveolyar shoxi
- B. Oldingi yuqori alveolyar shoxi
- Г. O`rta yuqori alveolyar shoxi
- Д. Buruntanglay nervi
- E.

### **MURAKKABLIGI 1-DARAJALI TESTLAR:**

1. Uch shoxli nervni tarkibida qaysi tolalar kiradi:

- E. xamma sanab o`tilganlar
- Ж. sezuvchi
- З. xarakatlantiruvchi
- И. simpatik
- K. parasimpatik

2. Pastki jag`ni uch shoxli nervni qaysi shoxi innervatsiya qiladi:

- E. III
- Ж. II
- З. I
- И. I, II
- K. I, II, III

3. Mandibulyar og`riqsizlantirishda ignani qaergacha yuboriladi:

- A. suyak do`mbog`iga
- Б. pastki jag`ni tilchasiga
- B. chakka qirrasiga
- Г. pastki jag` boshchasiga
- Д. pastki jag` teshigiga

5. Daxan osti og`riqsizlantirishda qaysi soxalarga o`tadi:

- A. kurak, qoziq, premolyar va ularni vestibulyar tomondagi shilliq qavati
- Б. kurak, qoziq, premolyar ikkala tomoni
- B. kurak, qoziq, premolyar va ularni ikkala tomondagi shilliq qavati
- Г. kurak, qoziq, premolyar va ularni til tomondagi shilliq qavati
- Д. kurak, qoziq, premolyar va ularni lab va lunj tomondagi shilliq qavati

### **MURAKKABLIGI 2-DARAJALI TESTLAR:**

1. Qaysi og`riqsizlantirishda mimik mushaklarni parezi kuzatiladi:

- A. mandibulyar anesteziya
- Б. palatinal
- B. tuberal
- Г. kurak
- Д. infiltratsion

7. Jag` osti so`lak bezini og`riqsizlantirishda qaysi nervni shikastlanishi mumkin.

- A. til

- Б. til osti
- В. jag` – til osti
- Г. til yutqun
- Д. pastki katakchalar nervini.

8. Mandibulyar og`riqsizlantirishda ignani sanchish joyi:
- А. molyar tishlarni chaynov yuzasidan 0.75 - 1 sm yuqorida
  - Б. Tishlar birlashadigan pog`onada.
  - В. Uchinchi molyar tishning chaynov yuzasidan 1 sm pastroqda
  - В. so`lak bezi chiqaruv yo`lini soxasida
  - Г. molyar tishlarni chaynov yuzasidan 1.5 sm yuqorida

9. Torusal og`riqsizlantirishda ignani sanchish joyi:
- А. yuqori jag`dagi molyar tishlardan 0,5 sm pastroqdan
  - Б. molyar tishlarni chaynov yuzasidan 1 sm yuqorida
  - В. tishlarni birikan joyi
  - Г. yuqori jag`dagi molyar tishlardan 1,5 sm pastroqdan
  - Д. so`lak bezi chiqaruv yo`lini soxasida

10. M.I.Veysblat bo`yicha og`riqsizlantirishda qaysi soxaga anestetik yuboriladi.:
- А. pastki jag` bolishchasi
  - Б. yuqori jag` do`mbog`i
  - В. molyar orqa chuqurchasiga
  - Г. quloqdan 2 sm oldin
  - Д. qanotsimon plastinkani ustki qismiga yuboriladi.

#### MURAKKABLIGI 1-DARAJALI TESTLAR:

1. YUqori jag` nervi kalla suyagining qaysi teshigidan chiqadi:
- Л. Aylana teshigidan;
  - М. Oval teshigidan;
  - Н. shilo-sostsevidnoe otverstie.
2. YUqori jag` nervi kalla suyagining qaysi teshigidan chiqadi:
- А. Aylana teshigidan;
  - Б. Oval teshigidan;
  - В. shilo - sostsevidnoe otverstie.
3. Qanot –tanglay gangliysidan chiqmaydigan nerv:
- А. Quloq –chakka nervi
  - Б. ko`z nervi
  - В. burun-tanglay nervi
  - Г. katta tanglay nervi
  - Д. kichik tanglay nervi
  - Е. qanot-tanglay kanali nerv.
4. orbital yo`l orqali og`riqsizlantirishda igna oval teshikka qancha chuqurlikda kiritiladi.
- А. 2-2,5 sm
  - Б. 0.5 sm
  - В. 1-1.5 sm
  - Г. 3-3,5 sm.
5. Qaysi avtor oval teshikka og`riqsizlantirishning hamma usulini ishlab chiqqan?:
- А. S.N. Vaysblat:
  - Б. M.M. Veysbrem

- B. M. D. Dubov
- Г. V.M. Uvarov
- Д. A.E. Verlotskiy
- E. P.M. Egorov

#### MURAKKABLIGI 2-DARAJALI TESTLAR:

1. markaziy og`riqsizlantirishda qanaqa asoratlarni bo`lishi mumkin :
  - E. Miya asosiga infeksiyani kiritilishi.
  - Ж. diplopiya
  - З. uzoqlashtiruvchi va ko`zni harakatlantiruvchi nervlarga mexanik jaroxatlash.
  - И. Vaqtinchalik ko`rish qobiliyatini yo`qotish
  - К. Qanotsimon venoz chigalning jarohati
  - Л. Hamma javoblar to`g`ri
2. oval teshikka yonoq osti yo`l orqali og`riqsizlantirilganda ninaning uchi qaysi tomonga qayriladi?:
  - A. 20° burchak ostida orqaga.
  - Б. 20° burchak ostida oldinga.
  - В. 20° burchak ostida pastga.
  - Г. 20° burchak ostida yuqoriga.
3. markaziy og`riqsizlantirishning yonoq osti yo`lida ninaning sanchilish joyi:
  - E. YOnoq suyagining pastki qirrasini ko`z kosasining tashqi qirradan o`tkazilgan vertikal chiziqlar kesishgan joyga qilinadi.
  - Ж. YOnoq suyagining pastki qirrasiga
  - З. YOnoq suyagining yuqori qirrasiga
  - И. tragoorbital chiziqning o`rtasiga.
  - К. Quloq dirildog`idan 2 sm oldinga.
4. markaziy og`riqsizlantirishda orbital yo`lida ninaning sanchilish joyi.
  - Л. Ko`z kosasining pastki-tashqi burchagi yuqori chegarasi
  - М. YOnoq suyagining yuqorigi qirrasiga
  - Н. tragoorbital chiziqning o`rtasiga
  - О. yuqori jag` uchinchisi oziq tishlardan 1,5 sm yuqoridan
  - П. ko`zning ichki burchagi
5. M.I.Vaysblat bo`yicha og`riqsizlantirishda qaysi soxaga anestetik yuboriladi:
  - E. pastki jag` yostiqchasiga
  - Ж. yuqori jag` do`mbog`i
  - З. molyar orqa chuqurchasiga
  - И. quloq dirildog`idan 2 sm oldin
  - К. asosiy suyagining qanotsimon o`sig`ining tashqi plastinkasi

#### MURAKKABLIGI 1-DARAJALI TESTLAR:

1. Tuberal og`riqsizlantirishda ko`proq qaysi asorat kuzatiladi:
  - A. gematoma
  - Б. Ko`z olmasini jarohatlash
  - В. SHilliq qavat nekrozi
  - Г. YUz soxasi ishemiyasi
  - Д. nevrit
2. Qaysi og`riqsizlantirishda mimik mushaklar parezi kuzatiladi:
  - A. mandibulyar og`riqsizlantirish
  - Б. palatinal
  - В. tuberal

- Г. kurak
- Д. infiltratsion

3. Qaysi og`riqsizlantirishda nerv bilan jag` osti bezining yo`li jaroxatlanadi:

- A. til
- Б. tio osti
- В. jag` -til osti
- Г. til-xalqum
- Д. pastki alveolyar nervi

4. Ko`z kosasiga anestetik tushishi natijasida kelib chiqadi:

- A. diplopiya
- Б. ko`rlik
- В. ko`rish o`tkirligini pasayishi
- Г. nistagm
- Д. Ko`z kosasini xarakatini chegaralanishi.

5. Tuberal og`riqsizlantirishda qaysi asorat bevosita va ko`proq uchraydi?

- A. CHakka osti venoz chigali jaroxati
- Б. Anafilaktik shok
- В. YUqori jag` arteriyasi jaroxatlanishi (gematoma)
- Г. YUqori jag` nervining jaroxatlanishi
- Д. In`eksion igna sinishi.

#### MURAKKABLIGI 2-DARAJALI TESTLAR:

1. Qaysi og`riqsizlantirishda infeksiyani kalla asosiga kiritish mumkin:

- A. markaziy og`riqsizlantirishning orbital yo`li.
  - Б. infraorbital
  - В. mandibulyar
  - Г. markaziy og`riqsizlantirishning yonoq osti yo`li.
  - Д. Tanglay
1. AD 2. AG 3. VG 4. AB 5. DB

2. Og`riqsizlantirish va asoratlarni to`g`ri ketma ketlikda joylashtiring:

- 1. infraorbital
  - 2. mandibulyar
  - 3. tuberal
  - 4. kurak
  - A. gematoma
  - Б. burundan qon ketish
  - В. diplopiya
  - Г. Igna sinishi.
1. V 2. G 3. A 4. B

3. Mandibulyar og`riqsizlantirishda qaysi asorat kuzatilmaydi:

- A. Mimik mushaklar parezi
- Б. diplopiya
- В. nevrit
- Г. burundan qon ketish
- Д. Pastki lab va engak terisi shemiyasi

1. BG, 2. AV, 3. GD, 4. ABV, 5. VG

4. Palatinal og`riqsizlantirishda qaysi asorat kuzatilmaydi:

- A. YUtinishning qiyinligi
- Б. Ko`ngil aynishi



- B. gematoma
- Г. "yot jism "hisi
- Д. qusish

5 Og`riqsizlantirish va asoratlarni to`g`ri ketma ketlikda joylashtiring:

- 1.infraorbital
  - 2.mandibulyar
  - 3.palatinal
  - 4.kurak
- A. YUqori jag` bo`shlig`iga tushishi
  - B. tanglay shilliq qavati nekrozi
  - V. Mimik mushaklar parezi
  - G. burundan qon ketish

1. A 2.V 3.B 4. G

MURAKKABLIGI 1-DARAJALI TESTLAR:

1. Novokain bilan og`ir darajada zaharlanganda qaysi modda yuboriladi:
  - A. 1 % 1-2 ml natriy tiopental\*
  - B. 1 % dimedrol 2 ml.
  - V. 50 % analgin 4 ml.
  - G. 0,101 % 1 ml adrenalin
  - D.10 % 10 ml kaltsiy xlor
2. Anafilaktik shok kimda rivojlanadi:
  - A. allergik reaksiyani boshdan o`tkazgan \*
  - B. yurak-qon tomir kasalliklar bilan
  - V. OIT kasalliklari bilan
  - G. MNS kasalliklari bilan
  - D. qon kasalliklari bilan
3. Anestetikni ta`sirini uzaytirish uchun adrenalin miqdorini ko`rsating:
  - A.1:100000
  - B.1:10000
  - V.1:1000
  - G.1:1000000
  - D.1:100\*
4. O`tkazuvchi og`riqsizlantirish uchun 2% novokainni maksimal miqdori:
  - A. 30 ml\*
  - B. 60ml
  - V. 100ml
  - G. 40ml
  - D. 80ml
5. 2 % lidokain maksimal miqdori:
  - A.50 ml\*
  - B.100 ml
  - V.150 ml
  - G.30 ml
  - D.75 ml

MURAKKABLIGI 2-DARAJALI TESTLAR:

1. Hushdan ketganda bemorga mumkin emas
  - A. yarim gorizontal holda yotqizish \*
  - B. toza havo ta`minlab berish

- V. novshadil spirt bug`larini hidlatish
- G. sovuq suvda ho`llangan sochiq bilan artish
- D. nafas analeptiklarini kiritish

2. Obmorkga xos emas:

- A. bosh aylanish
- B. bo'shshaganlik
- V. bemor hushida \*
- G. arterial bosim pasaygan
- D. puls kuchsiz, tezlashgan

3. Kollapsga xos emas:

- A. bosh aylanish
- B. holsizlik
- V. bemor hushdan ketgan\*
- G. arterial bosim kamaygan
- D. puls kuchsiz, tezlashgan, ipsimon

4. Anafilaktik shok bo'lmaydi:

- A. abdominal
- B. kardial
- V. astmoid
- G. tserebral
- D. tomirli\*

5. Umumiy asoratlarga kirmaydi:

- A. intoksikatsiya
- B. kollaps
- V. hushdan ketish
- G. anafilaktik shok
- D. gematoma\*

MURAKKABLIGI 1-DARAJALI TESTLAR:

1. Qaysi kasallikda novokain minimal miqdorda ishlatish tavsiya etiladi:

- A. qandli diabet
- B. tireotoksikoz\*
- V. bronxial astma
- G. o'pka emfizemasi
- D. alkogolizm

2. Homiladorlarda 2% lidokain maksimal miqdori:

- A.25 ml\*
- B.50ml
- V.10ml
- G.100ml
- D.20ml

3. YOshi katta va qariyalarda premedikatsiya maqsadida qaysi dorilardan foydalanish tavsiya etilmaydi:

- A.morfin\*
- B.analgin
- V.dimedrol
- G.fenazepam
- D.baralgin

4. Qaysi kasallikda novokain minimal miqdorda ishlatish tavsiya etildi:

- A.gipertoniya\*
- B.bronxial astma

V.tireotoksikoz  
G.o'pka emfizemasi  
D.jigar funktsiyasi buzulganda

5. Qaysi dori trankvilizatorlarga kirmaydi:

- A. dimedrol\*
- B. elenium
- V. seduksen
- G. fenazepam
- D. tazepam

#### MURAKKABLIGI 2-DARAJALI TESTLAR:

1. Homiladorlikni qaysi choragida stomatologik muolajalar tavsiya etilmaydi:

- A. 12 haftagacha\*
- B. 13 dan - 23 haftagacha
- V. 24 dan - 40 xaftagacha
- G. Homiladorlik stomatologik muolajalar o'tkazishga qarshi ko'rsatma emas
- D. hohlagan choragida mumkin

2. Fentanil, droperidol va uyqu dorilar qo'llash mumkin emas:

- A. o'pka emfizemasi va pnevmosklerozda\*
- B. qandli diabetda
- V. yurak porokida
- G. tireotoksikozda
- D. gipertonik kasalligida

3. Dori vositalar va ularni guruhlarini taqqoslang:

- 1. Antigistamin vositalar
- 2. Nonarkotik analgetiklar
- 3. Spazmolitik vositalar

- A. analgin
- B. dimedrol
- V. baralgin
- G. suprastin
- D. spazmalgon

1.B, G 2.A 3.V, D.

4. Dori vositalar va ularni guruhlarini taqqoslang:

- 1. Gormonlar
- 2. Narkotik analgetiklar
- 3. Gipoglekemik vositalar

- A. prednizalon
- B. aktropid
- V. morfin
- G. gidrokortizon
- D. omnopon

1.A, G 2.V, D 3.B

5. YOndosh kasallilar va ularni operatsiyaga tayyorlash uchun ishlatiladigan dori vositalarni taqqoslang::

- 1. Qandli diabet
- 2. Bronxial astma

### 3. Tireotoksikoz

- A. gipoglikemik vositalar
- B. bronxodilatatorlar
- V. yod mikromiqdorlari
- G. antigistamin vositalar
- D. analgetiklar

1. A, G, D. 2. B, G, D 3. V, G, D.

### MURAKKABLIGI 1-DARAJALI TESTLAR:

#### 1. Ingalyatsion narkoz uchun ishlatiladi:

- A. ftorotan\*
- B. kalipsol
- V. droperidol
- G. natriy oksibutirati
- D. ketalar

#### 2. Noingalyatsion narkoz uchun ishlatiladi:

- A. geksenal\*
- B. efir
- V. xloroform
- G. azot eritmasi
- D. ftorotan

#### 3. Poliklinika sharoitida narkozni o'tkazish mumkin:

- A. ovqatlangandan 4-5 soatdan so'ng\*
- B. ovqatlangandan 2 soatdan oldin emas
- V. to'q qoringa
- G. ovqatlangandan 3 soatdan oldin emas
- D. ovqatlangandan 1 soatdan oldin emas

#### 4. Poliklinika sharoitida narkozdan keyingi davr davomiyligi:

- A. 20-30 minut
- B. 30-40 minut
- V. 2 soat
- G. 1 soat-1 soat 30 minut \*
- D. 10 minut

#### 5. Ovqatlangandan so'ng qachon narkoz o'tkazish mumkin:

- A. 4-5 soat \*
- B. 1-2 soat
- V. 30-40 minut
- G. 3 soat
- D. 20-30 minut

### MURAKKABLIGI 2-DARAJALI TESTLAR:

#### 1. Ingalyatsion narkoz uchun ishlatilmaydi:

- A. hammasi\*
- B. kalipsol
- V. droperidol
- G. natriy oksibutirati
- D. tazepam

2. Noingalyatsion narkoz uchun ishlatilmaydi:

- A. hammasi\*
- B. efir
- V. xloroform
- G. azot eritmasi
- D. ftorotan

3. Narkoz o'tkazish uchun qarshi ko'rsatma bo'lib hisoblanmaydi:

- A. yaqqol anemiya\*
